



Soxiba Madirimova



O'ZBEK ADABIYOTI TARIXINI O'QITISHNING MANBAVIY ASOSLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Soxiba Madirimova

**O'ZBEK ADABIYOTI TARIXINI
O'QITISHNING MANBAVIY
ASOSLARI
(Mutrib ijodi)**

USLUBIY QO'LLANMA

**"BOOKMANY PRINT"
TOSHKENT – 2023**

UO‘K: 821.512.133.09(092)

KBK: 83.3g(5O')ya7

M 14

Madirimova, Sohiba

“O‘zbek adabiyoti tarixini o‘qitishning manbaviy asoslari” (Mutrib ijodi)” [Matn]: uslubiy qo‘llanma/ S.Madirimova. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 167 bet.

Uslubiy qo‘llanmada XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitida faoliyat yuritgan Muhammad Hasan Mutrib Hoji Tabib o‘g‘li (1853-1923) hayoti va adabiy merosi qo‘lyozma va toshbosma manbalar asosida tadqiq qilingan. Shoir she’riyati qo‘lyozmalarining ilmiy tavsifi amalga oshirilgan. Mutrib she’rlari qiyosiy-matniy tahlil etilib, lirik asarlari matnshunoslikning matn tarixi, tahriri va talqini singari nazariy masalalari kesimida o‘rganilgan. Birlamchi manbalar asosida ijodkor lirik she’rlarining ishonchli matnlari tiklangan.

Uslubiy qo‘llanma oliy ta’lim muassasalarining 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejadagi O‘zbek adabiyoti tarixi fani o‘quv dasturi asosida tayyorlangan. Undan mazkur mutaxassislik magistrantlari hamda oliy ta’lim muassasalar 60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (o‘zbek tili) bakalavr ta’lim yo‘nalishidagi Matnshunoslik, Matn tahriri fanlaridan ham foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

Nurboy Jabborov

filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Shohobiddin Nuriddinov

filologiya fanlari doktori (DSs), dotsent,

Qo‘Idosh Pardayev

filologiya fanlari doktori (DSs), professor

Uslubiy qo‘llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2023-yil 28-mart 8-sonli majlisi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Madirimova S.

ISBN 978-9943-9440-2-2

© “Bookmany print” nashriyoti, 2023.

KIRISH

Jahon xalqlari matnshunosligida milliy adabiy merosni birlamchi manbalar asosida o‘rganishga bo‘lgan e’tibor har qachongidan ham kuchayib bormoqda. Qo‘lyozma manbalar tadqiqi, qaysi davrda yashagan bo‘lishidan qat’i nazar, shoir yoki adib asarlarining asliyatga muvofiq (hech bo‘lmaganda unga yaqin) matnlarini tiklash imkonini beradi. Ishonchli matnni tiklamay turib, shoir ijodini adabiyotshunoslikning nazariy muammolari kesimida tahlil etib bo‘lmaydi.

Dunyo matnshunosligida qo‘lyozma manbalarni qiyosiy tahlil etish, ijodkor ilmiy biografiyasini yaratish, badiiy asar matni tarixini o‘rganish kabi ilmiy muammolar ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Ular sirasidan dunyo kutubxonalari bo‘ylab tarqalgan Sharq qo‘lyozmalari, jumladan, turkiy adabiyotning buyuk namoyandalari Alisher Navoiy va Bobur asarlari manbalarini o‘rganish doirasida katta tajriba, bilim hamda material to‘plandi. Olib borilgan keng tadqiqotlar matnshunoslikning nazariy asoslari yaratilishiga zamin bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbek matnshunosligi mavjud ilmiy tajribalar negizida taraqqiy etib, mumtoz adabiy manbalarni o‘rganish borasida muayyan natijalarga erishdi va erishmoqda. Milliy adabiyot tarixida yorqin iz qoldirgan ijodkorlar adabiy merosini asliyat asosida tadqiq qilish, qo‘lyozma va toshbosma manbalarni ilmdagi so‘nggi yutuqlarga tayanib o‘rganish manbashunoslik va matnshunoslikning ustuvor vazifalaridandir. Negaki, “...o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish katta ahamiyatga ega...”¹. Shunga ko‘ra, Xorazm adabiy muhiti namoyandasini Mutrib Xonaxarob (1853-1923) lirik devoni manbalarining ilmiy-monografik tadqiqini amalga oshirish, shoir asarlari matn tarixini o‘rganib, ilmiy-tanqidiy matnnini tayyorlash tamoyillarini ishlab chiqish dolzarb ekani ayon bo‘ladi.

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига йўллаган табриги. // Халқ сўзи. – Тошкент, 2018 йил 8 август.

Mutrib ijodini o‘rganish shoir hayotligidayoq boshlangan. Tabibiy “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” hamda “Majmuatu muxammasot ush-shuaroyi Feruzshohiy” majmularida shoirning she’riyat va musiqadagi yutuqlarini e’tirof etadi. Hasanmurod Laffasiyning “Xiva shoirlari va adabiyotchilarining tarjimayi hollari”, Bobojon Tarrohning “Xorazm shoir va navozandalari”, Po‘latjon Qayyumiyning “Tazkirayi Qayyumiyy” asarlarida ham shoir ijodi haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Ijodkor adabiy merosi yuzasidan O.Sharafiddinov, M.Yunusov, N.M.Mallayev, Yu.Yusupov, M.Pirnazarov, A.Abdug‘afurov kabi olimlar maqolalar e’lon qilgan. Ushbu maqolalarda shoir tarjimayi holi, asarlarining g‘oyaviy qamrovi va badiiyati, adabiy merosining mavzu va janr xususiyatlari yoritilgan. Lekin ularning aksarida shoir asarlari kommunistik mafkura ta’sirida talqin etilgan.

M.Pirnazarov Mutrib lirik merosining qo‘lyozma va toshbosma manbalari, mavzu ko‘لامи, janr xususiyatlari, badiiy mahorati masalalarini o‘rgangan. Ushbu tadqiqot o‘z davri uchun qimmatli ma’lumotlar bergen bo‘lsa-da, shoir ilmiy biografiyasini yaratish, ijodkor asarlarini matnshunoslikning nazariy muammolari kesimida tadqiq qilish, ilmiy-tanqidiy matnnini yaratish kabi muammolar hanuz yechimini kutib turibdi. Shoir adabiy merosini o‘rganishda “Mutrib Xonaxarobiy (Risola-majmua)” kitobi e’tiborga molik. Biroq bu she’rlar matni to‘liq emasligidan tashqari, so‘zlarning o‘qilishida ham xatoliklar uchraydi.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada Muhammad Hasan Mutrib devonining O‘zR FA ShI asosiy hamda H.Sulaymon fondlarida saqlanayotgan 906/VII, 903/IV, 2679/II raqamli qo‘lyozmalari, shuningdek, qo‘lyozma bayoz, majmua va tazkiralardagi turkiy she’rlari, Xiva Ichonqal’a Muhammad Rahimxon Feruz II muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozma bayozlardagi she’rlari haqida ma’lumotlar berilgan.

MUTRIB XONAXAROB ILMIY BIOGRAFIYASI ASOSLARI

Reja:

1. Mutrib hayoti va ijodiga oid manbalar tahlili
2. Mutrib ijodining o‘rganilishi
3. Shoир ijodining davr vaqtli matbuotida yoritilishi

Tayanch so‘zlar: *manba, taxallus, tazkira, meros, Ichonqal'a, majmua, adabiy manba, qo‘lyozma, radif, g‘azal, janr, mavzu, shakl, vaqtli matbuot, xrestomatiya.*

XIX asrning oxiri – XX asr boshlari Xorazm adabiy muhit o‘zining ilm-fan, adabiyot va san’at rivojidagi o‘rni bilan alohida ajralib turadi. Davr adabiy muhit Muhammad Rahimxon Feruz II hukmronligi yillarida yangi qiyofa kasb etib, mavzu, janr va shakl jihatdan takomilga erishdi. Ana shu muhitning salohiyatli vakili Muhammad Hasan Mutrib ijodiy merosi adabiyotshunoslikda nisbatan kam o‘rganilgan. Ijodkor hayoti va ijod yo‘li bo‘yicha 1973-yili birgina dissertatsiya himoya qilingan bo‘lib, birinchidan, unda shoир devoni qo‘lyozmalari to‘liq jalb etilmagan, ikkinchidan, bu ish adabiyotshunoslik aspektida bajarilgan, uchinchidan, shoир tavallud va vafot sanalari to‘g‘ri belgilanmagan, taxallusi noto‘g‘ri talqin etilgan. To‘rtinchidan, shoир asarlarining bir qismi o‘rganilgan, xolos. Shoир adabiy merosi keyingi qariyb yarim asr davomida adabiyotshunoslik e’tiboridan chetda keldi.

O‘zbek adabiyoti tarixida Mutrib taxallusi bilan bir qancha shoир ijod qilgani ma’lum. Mutrib Xonaxarobdan tashqari Mutribiy (Samarqand), Mutriba (Samarqand), Devonai Mutrib (Qo‘qon) singari ijodkorlar faoliyati buning isbotidir. Mutrib Xonaxarobning salmoqli adabiy merosi yirik hajmli she’rlar devonida jamlangan. Shoир devonini, avvalo, manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishida tadqiq etish, shu asosda shoirning milliy adabiyotimizda tutgan o‘rnini baholash ilmiy zaruriyatdir.

Manbalarda Mutrib Xonaxarobning tavallud sanasi 1852, 1860, 1865, vafoti sanasi esa 1922, 1923, 1925 tarzida turlicha keltirilgan. “Tazkirayi Qayyumi”da uning 1923-yili vafot etgani, 70 yil umr ko‘rgani aytilgan. Zamondoshlaridan Laffasiy shoirning 1923-yilda

vafot etgani, Bobojon Tarroh 70 yil umr ko‘rgani haqida yozib qoldirgan. Mazkur ma’lumotlardan Mutrib 1853-yilda tug‘ilib, 1923-yilda vafot etgani ma’lum bo‘ladi.

Muhammad Hasan devon Hoji Tabib o‘g‘li Mutrib Xonaxarob Xiva shahrining tashqari qal’asida, ya’ni Qalli Oqsoqol qavmida tug‘ilgan. U asli eronlik bo‘lib, ilk ustozи otasi bo‘lgan. Keyinchalik Xivadagi Muhammad Aminxon madrasasida tahsil olgan. Maqomchi bastakor sifatida tanilgan. Cholg‘uchi, sozanda ma’nolarini beruvchi Mutrib taxallusini tanlashi sababi shunda. Iste’dodi bois Feruz uni saroyga jalg‘ etadi. Forsiy va turkiy tillardagi ishqiy va hajviy g‘azallari bilan shuhrat topadi. “Xorazm shoир va navozandalari” tazkirasida uning tanburni maromida chalgani, olti yarim notani yoddan bilgani, she’riyat, musiqa, kitobat, tabobat, fors-tojik tillarini puxta egallagani, shu bilan birga, so‘z bahsida hech kimdan yengilmagani haqida ma’lumot beriladi.

Bobojon Tarroh shoirga quyidagicha ta’rif beradi: “*U o‘rtal bo‘yli, ketmon soqol, biroq soqli siyrak, iflos kiyinib yuradigan kishi edi... Ammo juda ilmli odam edi. She’rlari ham mazali, tartib intizomli edi...*”. Mutrib asarlarining aksariyati hajviy bo‘lgan. 1919-yilda rus askarlari hukumatni qo‘lga olgach, Junaydxon askarlari qochib ketadi. Shu vaqtda Mutrib Junaydxonni tanqid qilib quyidagilarni yozadi:

*Qochti Junovit barcha saranjomini tashlab,
Rus askariga ko‘zлari bodomini tashlab.*

Laffasiyning “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimayi hollari” qo‘lyozma tazkirasida ham Mutribga oid ma’lumotlar uchraydi. U shoirning tanburni maromida chala olishi, devon tartib qilgani, “Shoh Komron” nomli asar yozganini aytadi. “Xonaxarob” taxallusini olishi sababini esa hajviy she’rlar yozishi bilan izohlaydi: “... *Muhammad Rahimxonning qilg‘on qattig‘ farmoyishig‘a binoan she’rlar mashq etib, turli g‘azal, muxammas va musaddaslar yozib, aksar Feruzning farmoni bilan biror mahramu Bosh vazirlarni qattiq tanqid-u hajv etib, Xon huzurida ul hajv g‘azallarni mazkur tanqid qiling‘on shaxsni dog‘i o‘lturg‘uzub, Mat Hasan Tanbur sozig‘a qo‘sib o‘qur erdi. Shul sababli Mat Hasan “Mutrib Xonaxarob” taxallusi bilan turli hajviyotlar yozub turadur....*”.

Bobojon Tarroh fikricha: “*Mutrib xushchaqchaq so‘zlarni so‘zlaganda og‘izlarini o‘ynatib so‘zlab, sizni butun qayg‘u-hasratlaringizni yo‘q qilar edi. Shuni uchun ham Muhammad Rahim ikkinji xalqg‘a kulushma bo‘lsin deb “Mutrib Xonaxarob” qo‘yg‘on edi...*”. Yunus Yusupov “Xorazm shoirlari” risolasida bu haqda o‘zgacha fikr bildiradi: “*Mutrib, - deb yozadi muallif, - xaroba uyda og‘ir hayot kechira beradi. Bir kuni otda ketayotgan Feruz Mutribni xaroba kapa oldida uchratib, “Mutasan, haqiqatan ham sening ahvoling, uying, ro‘zg‘oring xarob ekan, shuning uchun endi senga bizdan isna (istisno) o‘rnida shu xotira bo‘lsinki, sening bundan keyingi taxallusing Mutribgina emas, Mutribi Xonaxarobiy bo‘lsin...*” deydi”.

M.Pirnazarov bu fikrni tasdiqlaydi. Yu.Yusupovning manbasi ko‘rsatilmagan bu fikri tarixiy haqiqatga muvofiq bo‘lmay, kommunistik mafkura ta’sirida to‘qilgan bo‘lishi haqiqatga yaqin. A.Otamurodova bobosi Bobojon Tarrohning Mutrib haqidagi fikrlarini keltirib, uning saroyda ishlagani, Feruzning ishongan insonlaridan bo‘lganini aytadi. “Tazkirayi Qayyumiyl”da yozilishicha: “... *Shoir ham shashmaqom sohibi muzikachiligi ila elga tanilmish Mutrib Isfandiyorxon qahridin qo‘rqub yuradur. Nihoyat Junaydxon hovlisini bosib talon-taroj etib vayron etadur. Shoir mo‘jiza shaklida qochib qutuladur. Shundan so‘ngra o‘ziga Mo‘tribi xona xarob deb taxallusga qo‘shimcha bilan shuhratlanadur...*”.

Junaydxon qo‘zg‘oloni 1919-yil fevral oyida bo‘lgan. Po‘latjon Qayyumiyl fikricha, Junaydxon Mutribni barcha narsasidan mahrum etgandan keyin shoir “Mutrib”ga qo‘shimcha “Xonaxarob” nisbasini olgan bo‘lib chiqadi. Ammo, shoir devoni qo‘lyozmalari 1907, 1908-yillarda ko‘chirilgani, bayoz, majmua va tazkiralardagi she’rlari esa 1907, 1908, 1909, 1910-yillarda tartiblangani va ular tarkibidagi she’rlari “Mutrib Xonaxarob” taxallusi bilan berilgani bu fikrni shubha ostiga qo‘yadi.

O‘tgan asrning 50-yillaridan so‘ng vaqtli matbuot nashrlari va tadqiqotlarda shoir taxallusi “Xonaxarobiy” tarzida qo‘llangan. Yana boshqa o‘rinlarda “Mo‘tribi xona xarob”, “Mutrib Xonayi Xarob”, “Mutribiy Xonaxarobiy”, “Mutrib Xona Xarobiy”, “Mutrib Xonaixarob” shaklida turlicha yozilgani kuzatiladi. *Birinchidan*, shoir asarlarining barcha qo‘lyozmalarida hamda uning zamondoshi

Laffasiy tazkirasida ijodkor taxallusi “Mutrib Xonaxarob” shaklida berilgan. *Ikkinchidan*, birlamchi manbalardagi har bir asar hamda har bir shaxs nomi asliyatidek saqlanishi maqsadga muvofiqdir.

Bobojon Tarroh shoир qabri Xiva shahri Ko‘hnaqal’ a ichidagi Muhammad Aminxon madrasasi kunbotaridagi Tanobli avliyo qabristoni to‘g‘risida ekani, tadqiqotchi K.Xudoyberganov esa Xiva Ichonqal’asidagi Tohir Eshon qal’asi yonidagi bir xaroba tagida qolib ketgani haqida yozadi. Bu masala oydinlashtirilishi zarur.

Mutribning 1920-yilgacha bo‘lgan lirik merosini ishq-muhabbat va shohni madh etish kabi mavzulardagi g‘azal, muxammas, musaddas, murabba’, qasidalar tashkil etadi. Keyinchalik shoирning ilm-ma’rifatga da’vat, hurriyat mavzularidagi she’rlari mahalliy matbuotda yoritilgan. Jumladan, 1920-yildan keyin uning she’rlari “Xorazm xabarlari”, “Inqilob quyoshi” va “Qizil Xorazm” kabi gazeta va jurnallarda e’lon qilingan. Matbuotda nashr etilgan she’rlari to‘planib, Xivada 1923-yilda “O‘zbekcha inqilob she’rlari yig‘urmi” to‘plamida nashr etilgan. Bu turkum “*Ko ‘rung emdi xaloyiqqaadolat oshkor o ‘ldi...*”, “*Bilinglar, ey xaloyiq, sizga bu yaxshi davrondur...*”, “*Ko ‘nglima bir turfa so ‘z keldi ravon...*”, “*Umid aylab ekib bularga turluk dona dehqonlar...*”, “*Shod o ‘lunglar, ey xaloyiq, shodlig‘ ayyomidur...*” va boshqa targ‘ibiy-tashviqiy ruh, xitob, da’vat ohanglari hukmronlik qiladigan she’rlarni o‘z ichiga olgan. Hozirda bu to‘plam O‘zR FA ShIda **80057** raqam ostida saqlanmoqda. Ushbu to‘plamdagagi ba’zi she’rlar vaqtli matbuot sahifalarida e’lon qilingan.

Adabiyotshunoslikda Mutrib ijodi yuqori baholangan. Akademiklar 1958-yilda Vohid Abdullayev va Botir Valixo‘jayev Mutrib she’riyatini Hamza, Chokar, Munzim kabi shoirlar asarlari bilan qiyosiy o‘rganib, lirik asarlari tahlili asosida badiiy mahoratini ochib bergan. O.Sharafiddinov, M.Yunusov, A.Boboxo‘jayev, G‘.Mo‘minov, Yu.Yunusovning XX asr boshlari poeziyasiga doir tadqiqotlarida ijodkor asarlari tahlil qilinib, davr hayotida muhim iz qoldirgani e’tirof etiladi. 1969-yilda F.G‘anixo‘jayev “Ahmadjon Tabibiyning hayoti va ijodi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida Alisher Navoiy davomchilari sifatida Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Avaz, Bayoniy, Mirzo va Chokarlar qatorida Mutrib adabiy merosi haqida ham qimmatli fikrlarni bildiradi. O‘sha davr mafkurasi ta’siri sezilsa-da, ushbu tadqiqotlar Mutrib hayoti va ilmiy

biografiyasini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. 1957-yilda N.M.Mallayev “O‘qituvchi” gazetasining 14-mart, 24-sonida Mutrib Xonaxarob, Mirzo singari shoirlar asarlarini chop etish va keng ommalashtirish zarurligi haqida yozadi.

1968-yilda Mutribning qisqacha biografiyasi va she’rlaridan namunalar ilk bor “O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi” beshinchi tom, ikkinchi kitobida e’lon qilingan. Lekin 10 ta g‘azal, 1 ta musaddas va 1 ta masnaviydan iborat bu she’rlar shoir lirik merosi haqida to‘laqonli tasavvur bera olmaydi.

Yu.Ro‘zmatovning “Xorazm haqiqati” gazetasi 1963-yil 27-dekabr sonida e’lon qilingan “Mutrib” sarlavhali maqolasida shoir haqida ma’lumotlar berilib, ilova sifatida uning “Yaxshi davrondur”, “Adolat oshkor bo‘ldi”, “Har yona, har yona” radifli g‘azallari chop etilgan. Mazkur gazetaning 1970-yil 29-avgust sonida Yu.Yusupovning ham “Mutrib” nomli maqolasi e’lon qilinadi. Maqolada, jumladan, mana bunday yozilgan: “*Muhammad Hasan yoshlik vaqtlaridan boshlab adabiyot, san’atga mehr qo‘yadi. 1890-yillarga kelib elda nomdor shoir sifatida tanildi, tanburda maqom kuylarini chalishda hammaga manzur bo‘ldi... Muhammad Hasan 1890-yillardan keyin saroyga shoir va sozanda sifatida ishga chaqiriladi...*”. Shoir hayoti qiyinchilik va mashaqqatga to‘liq bo‘lgani, saroy shoirlari orasida eng g‘arib hayot kechirgani hamda oilasidan faqat 98 yoshga kirgan voldasi borligi haqida ma’lumot berilgan. Mutrib 1910-yildan keyin saroyni tark etishi, muhabbat mavzusida lirik doston yaratgani, 1920-yilga kelib, Xorazmdagi “Inqilob quyoshi” gazetasida bo‘lim mudiri vazifasida ishlagani aytiladi. Ushbu maqolaga ilova sifatida shoirning “*Suv toshqini*”, “*Obodlig‘ ayyomidur*”, “*Ey xaloyiq*”, “*Ilm hosiyati*” kabi she’rlari nashr qilingan.

“Guliston” jurnalining 1974-yil 7-sonida (28-bet) M.Pirnazarov “Obodlig‘ ayyomidir” sarlavhasi ostida Mutrib hayoti va faoliyati haqida maqola e’lon qiladi. Maqolada shoir haqiqatparvar, demokrat ijodkor sifatida tilga olinib, u haqda quyidagi ma’lumotlar berilgan: “.... shoir demokratik shoir bo‘lgani... davlat tepasida turgan reaksiyon hukmronlarga yoqmasdi. Asfandiyorxon devon tuzdirish bahonasi bilan Mutribning ko‘pgina hajviyot va g‘azallarini yoqdirib yuboradi”. “Reaksiyon hukmronlar” iborasi sho‘rocha mafkura

ta'siridagi yondashuv bo'lsa ham, shoir asarlarining yondirilishi haqidagi ma'lumotdan Mutribning "Shoh Komron" hamda bir qancha lirk asarlari bizgacha yetib kelmagani sabablari ayon bo'ladi. Maqolaga ilova sifatida Mutribning 1 ta musaddasi ("Obodlig' ayyomidur" sarlavhali musaddasi shoir umrining oxirlarida ko'chirilgan. Bu devon qo'lyozmalarida yo'q) hamda 2 ta "Oz emas", "Etding mani" radifli g'azali beriladi.

"Xorazm haqiqati" gazetasi 1991-yil 20-iyul sonida Bolta Davlatovning "Shoir Mutrib" maqolasida ijodkor hayoti va faoliyati, uning lirk asarlari haqida to'xtalinadi. Xivalik zamondoshlari ma'lumotiga ko'ra "Gul va Bulbul" nomli asar yozgani ma'lum bo'ladi. Ilova sifatida "Xorazm xabarlari"ning 1921-yil 26-sentyabr 24-sonida e'lon qilingan 1 ta masnaviysi, "Paydo", "Etarsan" radifli g'azallari chop etiladi.

Polvonnazir Bobojonov 1992-yilda Xiva shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Laffasiyning tazkirasini nashrga tayyorlagan. Bu nashr haqida P.Bobojonov: "40-yillarda Xiva muzeyida xizmat qilgan Hasanmurod qori Laffasiy Xiva xoni saroyida ijod qilgan shoirlar haqida ma'lumotlar to'plagan. Uning arab yozuvidagi qo'lyozmalari 50-yillarga kelib padari buzrukvorimiz adib va jurnalist Matyoqub Bobojonov tomonidan yangi manbalar bilan boyitilib, o'ris alifbosiga ko'chirilgan edi..." kabi fikrlarni keltiradi. Bundan tashqari, rus tilidagi ushbu kitobni o'zbek tiliga tarjima qilganini aytadi. "Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimayi hollari" nomli bu tazkira "Tazkirayi shuaro" nomi bilan nashr qilingan. Nashrda Feruz saroyida ijod qilgan 51 ta shoirning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar berilib, Mutrib Xonaxarobning "Paydo", "Etarsan", "O'ldi" radifli g'azallari berilgan.

Matnazar Pirnazarov tomonidan 2001-yilda "Mutrib Xonaxarobiy (Risola-majmua)"si nashr qilingan. Undan shoirning 96 ta she'ri o'rinni olgan. Ulardan 81 tasi g'azal, shuningdek, Navoiy, Munis, Ogahiy g'azallariga yozilgan 3 ta muxammas hamda "Falakka chirmashur, jono, g'amingdin...." misrasi bilan boshlanuvchi musaddasi e'lon qilinadi. Bundan tashqari, shoirning ilmda ma'lum bo'lмаган "Nigoro", "Oz emas", "O'lg'on emas", "Menda yo'q", "Kelurman deb", "Xalos et", "Etdilar", "Derlar meni" radifli hamda "Ohkim, bo'ldi nigorim bazmim ichra masti

xob”, “*Damodam fosh etib mehru vafo, ey mehribonim, kel*”, “*Nigoro, ishq aro zoru hayronman xor etmazlar*” misrasi bilan boshlanuvchi 11 ta g‘azalidan namunalar beriladi.

Bundan tashqari, ZIYOUZ.COM kutubxonasining <https://kh-davron.uz> hamda <https://kh-davron.uz> saytlariga Abdurashid Abdug‘afurov tomonidan tayyorlangan ma’lumotlar kiritilgan. Shoirning “*Aylama*”, “*Kelmasa*”, “*O‘rtama*”, “*Ichra o‘t*”, “*Erur*”, “*Kelur*”, “*Bo‘lg‘aymu edi*”, “*O‘ldi*” radifli hamda “*Qatl etarga ko‘zlarining qilsa g‘azab*”, “*Bilinglar, ey xaloyiq, sizga bu bir yaxshi davrondur*” kabi misrasi bilan boshlanuvchi 10 ta g‘azali berilgan. Shulardan 9 tasi shoir devon qo‘lyozmalarida uchraydi.

Shoir devoni qo‘lyozmalari O‘zR FA ShI fondida 2679/II, 903/IV, 906/VII raqamlari bilan saqlanadi. Mutrib adabiy merosi devon, bayoz va majmualarga ko‘chirilgan 16 ming misraga yaqin g‘azal, muxammas, musaddas, murabba’ va qasidalarni o‘z ichiga oladi. Ellikdan ortiq qo‘lyozma manbalarga ko‘chirilgan asarlari ichidan o‘n beshtadan ortiq bayoz va majmualarga shoir devoni qo‘lyozmalarida uchramaydigan she’rlari borligi aniqlandi.

1973-yilda M.Pirnazarov “Mutrib Xonaxarobiyning ijodiy yo‘li” nomli nomzodlik dissertatsiyasida N.M.Mallayevning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan – ”دیوان مطرب خانه خراپ“ - “Devoni Mutrib Xonaxarob” 1327 (milodiy 1909) yilda Muhammad Sharif bin Muhammad Yoqub devon – Xarrot tomonidan Xivada ko‘chirilgan nusxasi va boshqa manbalari haqida ham ma’lumot beradi. Afsuski, hozirgi kunda ushbu manba topilmadi.

M.Pirnazarov biz o‘rganayotgan uchta qo‘lyozma devondan (2679/II, 903/IV, 906/VII) bittasi haqida, ya’ni O‘zR FA Hamid Sulaymonov fondidagi 2679/II raqamli devon qo‘lyozmasi haqida ma’lumotga ega bo‘limgan.

Ayrim tadqiqotlarda shoir ijodi manbalari bilan bog‘liq munozarali ma’lumotlar uchraydi. Masalan, Salomat Matkarimova 2007-yildagi “Tabibiy – tazkiraganavis” nomli nomzodlik dissertatsiyasi foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati “*V. Qo‘lyozma manbalar*” qismida “*Devoni Mutrib Xonaxarobi. O‘zR FA ShI. Qo‘lyozma inv. №1909*” deb qayd qiladi. Ammo O‘zR FA Sharqshunoslik institutidagi uchta fondda saqlanayotgan 1909 raqamli qo‘lyozma manbalarda Mutrib she’rlari ko‘chirilgan devonni

uchratmadik. Masalan, *Hamid Sulaymon fondida* Zamaxshariyning “Tafsiri kashshof” asari, *asosiy fondda* Navoiy, Jomiy kabi shoirlarning 1886-yilda ko‘chirilgan forscha she’rlari hamda muallifi yo‘q ruboiylar kirgan bayoz, *dublet fondida* esa “Daloil ul-xayrot” asari ko‘chirilgan. Ushbu qo‘lyozma manbalarda Mutribga oid biror she’r uchramaydi.

Mutrib hayoti haqida ma’lumot beruvchi manbalar uning xalqchil, rostgo‘y, millatparvar ijodkor bo‘lganidan dalolat beradi.

Netdim, ey gardun, sani kajravlik izhor aylading,

Turfa mehnatlarg‘a jonimni sazovor aylading² –

deya falakning “kajravligi”dan nolishi shoir hayotining og‘ir kechganini ko‘rsatadi. Lekin u yaxshi kunlarni orzu qilib yashadi. 1920-yildan keyin vaqtli matbuot sahifalarida Mutribning ilm-ma’rifatga da’vat etuvchi bir qancha she’rlari bosilgan. U ilmnинг shaxs kamoloti va jamiyat ravnaqi uchun ahamiyatini vasf etadi. “Xorazm xabarlari” gazetasining 1921-yil 26-sentyabr 24-sonida e’lon qilingan masnaviysi ana shu mavzu o‘ziga xos talqin etilgani bilan alohida ajralib turadi:

*...Ey xaloyiq, bo ‘lsa farzanding agar
Ber muallimg‘a oni qilmay hazar.*

*Chunki, umri necha chandon o ‘lg‘usi,
Muruvvat, hurmat farovon o ‘lg‘usi –*

*Kim, oni ilmu hunar xor etmagay,
Hech birovga dunyoda zor etmagay.*

*Mutribo, bo ‘lsang suxandin lojaram,
O ‘qumoqni odat etgil dam-badam.*

Shoir lirik asarlarida Navoiy, Ogahiy, Munis, Ravnaq, Navras kabi mutafakkirlar ijodiy yutuqlarini badiiy sintez qildi. Mutrib avvalambor Navoiyni o‘ziga ustoz sanaydi. Bir qancha she’rlariga nazira hamda tazmin muxammaslar bog‘lagani buning yaqqol isbotidir.

² O‘zR FAShI qo‘lyozmalar fondi, devon. inv. 2679/II (144^a-bet), 903/IV (232^a-bet), 906/VII (255^a-bet).

Umuman, shoir asarlari manbalari ustida olib borilgan tadqiqotlar Mutrib ilmiy biografiyasini haqidagi mavjud ma'lumotlarni boyitishi jihatidan ahamiyatlidir. Shoirning qo'lyozma va toshbosma manbalar, matbuot nashrlari, antologiya va xrestomatiyalar orqali yetib kelgan boy adabiy merosi uning hayot va ijod yo'liga doir asosiy manbalardir. Ularni o'rganish shoir shaxsiyati va dunyoqarashini, taxallus tanlashiga sabab bo'lgan hayotiy va adabiy-estetik omillarni aniqlash imkonini beradi.

1. Mutrib hayoti va ijodi bilan bog'liq masalalar monografik tarzda tahlil etilib, shoir tug'ilgan va vafot etgan yiliga aniqlik kiritildi.

Savollar:

1. Mutrib ijodi haqida ma'lumot beruvchi tazkiralarni bilasizmi?
2. Shoir biografiyasiga doir qaysi ma'lumotlarga aniqlik kiritilgan?
3. Shoir kimlarning ijodidan ta'sirlangan?
4. Mutrib she'rlari vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilinganmi?
5. Mustaqillik davrida Mutrib ijodi manbalari yuzasidan kimlar ilmiy tadqiqot olib borgan?

Mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar:

1. Mutribning "Ey xaloyiq, bo'lsa farzanding agar..." misrasi bilan boshlanuvchi masnaviysini tahlil qilish.
2. "Aylading" radifli g'azalni yod olish.
3. Shoirning taxmis yaratish mahorati.

O'qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Лаффасий, Ҳасанмурод. Тазкираи шуаро (Нашрга тайёрловчи: Бобожонов П.). – Урганч, Хоразм. 1992. –Б. 83.
2. Бобожон Тарроҳ-Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари. –Тошкент, Тафаккур қаноти (Нашрга тайёрловчи: Анбара Отамуродова ва Олланазар Абдураҳимов). 2011. –Б. 136-140.
3. Мадиримова С. Мутриб девонининг қўлёзма манбалари. ЎзМУ хабарлари. //№1/5. –Тошкент, 2017. –Б. 424-426.
4. Пирназаров М. Мутриб Xонахаробийнинг ижодий йўли. Филол.фун.номз... дисс. – Самарқанд, 1973. –Б. 130.

5. Мадиримова С. Мутриб ижодида Навоий анъаналари. Алишер Навоий ва XXI аср. // Халқаро илмий-назарий анжуман. –Тошкент, 2019. 9 февраль. –Б. 440-44.

6. Пирназаров М. Мутриб Хонахаробий (Рисола-мажмуа). – Тошкент, 2001. –Б. 40.

7. Madirimova S. Navoiy g‘azaliga bog‘langan muxammas tadqiqi. // Alisher Navoiy va XXI asr mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. –Toshkent, 2020. 8-fevral. –B. 487-489.

SHOIR ASARLARI QO‘LYOZMALARINING ILMIY TAVSIFI

Reja:

1. Shoir devoni qo‘lyozmalari ilmiy tavsifi
2. Mutrib she’rlari kirgan qo‘lyozma bayoz va majmular
3. Shoir she’rlari kiritilgan toshbosma manbalar.

Tayanch so‘zlar: *qo‘lyozma, devon, bayoz, tazkira, xattot, kotib, toshbosma, majmua, adabiy manba, g‘azal, muxammas, musaddas, masnaviy, murabba’.*

Qo‘lyozma manbalarning ilmiy-monografik tavsifi masalasi muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot olib borilayotgan ob’ekt yuzasidan ilmiy tavsif orqaligina to‘liq ma’lumot berish mumkin. Shunga ko‘ra, Mutrib qo‘lyozma asarlari jamlangan manbalarning holati, ko‘chirilgan yili, davri bilan bog‘liq barcha ma’lumotlar izchil tadqiq etildi. Zero, amalga oshirilgan monografik tavsif keyinchalik shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda asos bo‘ladi.

Mutribning 2679/II, 903/IV, 906/VII raqamli devon qo‘lyozmalari hamda she’rlari ko‘chirilgan manbalarni quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin:

- I.** Shoir devoni qo‘lyozmalari.
- II.** Qo‘lyozma bayozlar.
- III.** Qo‘lyozma tazkiralari.
- IV.** Toshbosma manbalar.

V. Davriy nashrlar(gazeta, jurnal to‘plam)da e’lon qilingan asarlari.

I. Shoir devoni qo‘lyozmalari ilmiy tavsifi

2679/II raqamlı “ديوان مطرب خانه خراب” - “Devoni Mutrib Xonaxarob” – O‘zR FA ShI H.Sulaymon fondida saqlanayotgan ushbu qo‘lyozmada Mutrib Xonaxarob she’rlari jamlangan. Qo‘lyozma ikki qismidan iborat bo‘lib, birinchi qismida Shinosiy she’rlari ko‘chirilgan.

Qo‘lyozma “Bismillohir-Rahmonir-Rahim”dan boshlanib, birinchi g‘azal “*Muhammad Hasan devoni mutaxallisi bi-l-Mutrib Xonaxarob valadi Hoji Tabib*” sarlavhasi bilan beriladi. Ushbu sarlavhadan keyin an’anaviy tarzda quyidagi matla’li hamd-g‘azal matni kelgan:

*Zihi jonlarg‘a hamdingdin bo‘lub fayzu safo paydo,
Xayolingdin ko‘ngullarga bo‘lub har muddao paydo.*

Qo‘lyozma hijriy 1326, milodiy 1908-yili ko‘chirilgan. Devon kolofonida kotib va qo‘lyozma ko‘chirilgan sana mana bunday ko‘rsatilgan: كا تب ملا عبد الكريم ابن محمد رحيم مرحومى ابن پحلوان ۱۳۲۶ (kotib Mulla Adbulkarim ibn Muhammad Rahim marhumi ibn Pahlavon Niyoz Mirzoboshi marhumi. Sana 1326). Devondan shoirning 706 ta g‘azali (shundan 250 tasi fors, 456 tasi turkiy tilda), 16 ta muxammasi (shundan 5 tasi fors, 11 tasi turkiy tilda), 5 ta musaddasi va 2 ta qasidasi o‘rin olgan. Jami: 729 ta she’r kiritilgan.

Mutrib Navoiyning “*Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab...*”(220^{a/b}), “*Ulki, solg‘ay shu’la a’zosig‘a o‘tlug‘ ohlar...*”(221^b-222^a) hamda “*Muvofiq keldilar bo‘lmish magar navro‘z ila bayram...*”(224^{a/b}), Feruzning “*Ko‘zum bir pari orazi padidor etdiyu ketdi...*” (222^b-223^a), “*Gul yuzung ochib, ey gul, majlisim guliston qil...*”(223^{a/b}-224^a), “*Ochilmish gul, yeturmish bog‘a ziynat, ey sanam, kelgil...*”(226^b-227^a), Ravnaqning “*Kelgil, ey mahliqo, nodirai davronim...*”(224^b-225^{a/b}), Amirning “*Bazm aro har dam labing maxmuring‘a qondur avaz...*”(227^b-228^a), Navrasning “*Faryodki, faryodimi go‘sh etdira bilmam*”(227^b), Munisning “*Xiromon qomatingkim, gulshani umrim niholidur...*” (230^b-231^{a/b}), – deb boshlanuvchi g‘azallariga taxmis bog‘lagan. Bundan tashqari

Sa'diy, Jomiy, Tabibiy hamda Zebunniso kabi shoirlarning forsiy g'azallariga bog'lagan taxmislari ham bor.

Qo'lyozma matni chiroyli nasta'liq xatida, qora siyohda ko'chirilgan bo'lib, har bir janr sarlavhasi qizil siyohda avval raqam, janr nomi, shoir ismi va taxallusi bilan "*I g'azali Mutrib Xonaxarob*", "*I muxammasi Mutrib Xonaxarob*", "*I musaddasi Mutrib Xonaxarob*", "*Qasidayi Mutrib Xonaxarob*" tartibida beriladi. Devon sahifalarining izchilligini ko'rsatish maqsadida kotib tomonidan poygir berilgan. Poygir: "b" sahifaning bиринчи so'zi "a" sahifaning pastki qismida qiya shaklda beriladi. Qo'lyozma sahifalari mukammal bo'lib, matn yaxshi saqlangan. Devon hoshiyalariga bitilgan she'rlar esa, mayda nasta'liqda ko'chirilgan, ammo raqamlanmagan.

Muqova rangi yashil. Muqova ustiga o'yma naqsh tushirilgan, unvon bor. Unda "Amali Muhammad Rahim sahhof – 1325" degan ma'lumot bor. Muqova o'rtasi esa gulli nashq bilan bezatilgan. Qo'lyozma tarkibiga kirgan she'rlar fabrika qog'oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta'liq xatida, ikki ustun shaklda, har sahifada o'rtacha 13-14 satr she'r yozilgan. Qo'lyozmaning 129, 130, 131, 132, 177- sahifalariga muhr bosilgan. Muhr quyidagi sahifalarning yuqori ichki burchagiga urilgan bo'lib, unda Rossiya gerbidagi 2 boshli burgut nishoni bor. 129, 130, 131, 177-sahifalariga bosilgan muhrda "Govarda", 132^b sahifasida esa, "Jevesro fabrika №5", - deb yozib qo'yilgan. Kotib har bir she'rni raqamlar asosida berishga harakat qilgan. Shuni aytish kerakki, devon sahifalarida "poygir" berilgan bo'lsa-da, keyinchalik kotiblar yoki tartib beruvchi sahhoflar tomonidan ushbu devon sahifalari orasiga "poygarsiz" muallifning avval yozilgan ijod namunalarining sahifalari tikib borilgan. Shuning hisobiga g'azallarning tartib raqami buzilgan. Ammo muxammas va musaddaslarining tartibi saqlangan. Qo'lyozmaning 1^b, 91^{a/b}, 106^a, 116^a, 131^b, 144^b, 178^b, 179^a, 200^b, 208^a, 231^b, 232^b, 233^b - sahifalaridagi ba'zi so'zlar bo'yagan. Qo'lyozmaning o'lchovi 27,5x17,5. Devon 508 sahifadan iborat.

1^b-sahifadan 81^a-sahifagacha Shinosiy she'rlari berilgan, keyin 81^b sahifa bo'sh qoldirilib, orada 3 sahifa kesib olingan. 82^a-sahifa ham bo'sh qoldirilgan. 82^b dan 234^b gacha, ya'ni 152 varaq, 304 sahifaga Mutrib Xonaxarobning she'rlari ko'chirilgan.

903/IV raqamli qo‘lyozma. O‘zR FA ShI asosiy fondida saqlanayotgan ushbu qo‘lyozmadan Devoniy, Totor, Xayoliy va Mutrib she’rlari o‘rin olgan. Qo‘lyozma “Bismillohir-Rahmonir-Rahim”dan boshlanib, birinchi g‘azal “*Muhammad Hasan devoni mutaxallisi bi-l-Mutrib Xonaxarob*” valadi *Hoji Tabib*” sarlavhasi bilan beriladi. Qo‘lyozma hijriy 1325, milodiy 1907-yili Rahimbergan o‘g‘li Mulla Karimbergan devon tomonidan ko‘chirilgan. Devon kolofoni quyidagicha:

رَحِيمٌ بِيرْگَنْ مَاهُ رَمَضَانُ الْمَبَارَكَدَا يَازِيبٌ اتَّمَامٌ غَهٗ يَتَكُورُدِي١٣٢٥
(Kotib Mullo Karimbergan devon ibn Rahimbergan mohi ramazonu-l-muborakda yozib itmomig‘a yetkurdi, 1325).

Devondan shoirning 430 ta g‘azal (shundan 175 tasi forsiy tildagi, 255 tasi esa, turkiy), 14 ta muxammas (shundan 3 tasi forsiy, 11 tasi turkiy), 2 ta musaddas va 1 ta qasidasi o‘rin olgan. Jami: 447 ta she’r bor. Mutribning 2679/II raqamli devonidagi Navoiy, Feruz, Ravnaq, Amiriyy va Munis g‘azallariga taxmislari bu manbaga ham kiritilgan.

Qo‘lyozma muqovasi yashil. Muqova qattiq, unga o‘yma naqsh tushirilgan. Unvon bor. Keyin “*Amali Muhammad Rahim sahhof – 1325*” degan ma’lumot keltirilgan. Qo‘lyozma 273 varaqdan iborat bo‘lib, 203^b-273^a-sahifalaridan Mutrib ijod namunalari o‘rin olgan. 231^a, 233^a, 235^a-sahifalaridagi matn bo‘yalgan. Qo‘lyozma tarkibiga kirgan she’rlar fabrika qog‘oziga, qora va qizil siyohlarda mayda nasta’liq xatida ikki ustun shaklda (sarlavhalari qizil siyohda) kitobat qilingan. Manbaning ba’zi sahifalari hoshiyasiga ham she’rlar ko‘chirilgan. Devon qo‘lyozmasining boshida va oxirida 3 sahifa bo‘sh qoldirilgan. Qo‘lyozmaning o‘lchovi 27,5x17,5.

906/VII raqamli qo‘lyozma. O‘zR FA ShI asosiy fondida saqlanayotgan ushbu qo‘lyozmaga Murodiy, Farrux, Doiy, Ajziy, Xokiy, Devon, Mutrib, Nadimiyy, Xodim, Chokarlarning she’rlari kiritilgan. Jami shoirlar soni 10 ta.

Devon basmaladan boshlanib, *Muhammad Hasan devoni mutaxallisi bi-l-Mutrib Xonaxarob valadi Hoji Tabib* sarlavhasi bilan boshlanadi. Bu qo‘lyozmada “hamd” g‘azal devonning hoshiyasiga ko‘chirilgan. 2679/II, 903/IV raqamli qo‘lyozma manbalardagi kabi sarlavhalar qizil siyohda bitilgan. Ba’zi sahifalar hoshiyalariga mayda nasta’liq xatida she’rlar ko‘chirilgan.

Qo‘lyozma kotibi: *Mullo Boltaniyoz usto Qurban niyozi mulaqqabi bi-l-Xarrot*. Kolofonda ko‘chirilgan yili ko‘rsatilmagan. (کاتیب ملا بالطه نیاز بن اوستا قوربان نیاز ملقبی بخرات یازیب اتمامیغه یتکوردی) *Mullo Boltaniyoz usto Qurban niyozi mulaqqabi ba Xarrot yozib itmomig‘a yetkurdy*). Manbadan shoirning 225 ta g‘azali, (shundan 111 tasi forsiy, 113 tasi esa, turkiy), 6 ta muxammas (2 tasi forsiy, 4 tasi turkiy), 5 ta turkiy musaddasi va 1 ta turkiy qasidasi o‘rin olgan. Jami: 237 ta she‘r ko‘chirilgan. Shu jumladan, Feruzning “*Ochilmish gul, yeturmish bog‘a ziynat, ey sanam, kelgil*” deb boshlanuvchi g‘azaliga Mutrib muxammasi ham kiritilgan.

Qo‘lyozma muqova yashil. Muqovaga o‘yma naqsh tushirilgan. She’rlar fabrika qog‘oziga, qora va qizil siyohlarda chiroylı nasta’liq xatida, ikki ustun shaklda berilgan. Har sahifada 16-17 satr she‘r ko‘chirilgan. She’rlar raqamlangan. Har bir shoir she’rlaridan keyin 2-3 varaq bo‘sh qoldirilgan. Devonning 248^a-281^b-sahifalariga Mutrib Xonaxarob she’rlari ko‘chirilgan. Qo‘lyozma yaxshi saqlangan. Xati nastaliqda bo‘lib, matn qora (saravhalar qizil) siyohda ko‘chirilgan. Hajmi: 337 bet. O‘lchovi: 27x17,5.

Shoir devonining O‘zR FA ShI asosiy fondidagi 903/IV, 906/VII raqamli qo‘lyozmalarni Hamid Sulaymon fondidagi 2679/II raqamli manba bilan qiyosiy o‘rganish natijalari ular hajman kichik bo‘lib, shoir adabiy merosini to‘liq qamrab olmaganini ko‘rsatadi. Shunga qaramay, bu qo‘lyozmalar shoir asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda muhim manba sanaladi.

II. Mutrib she’rlari kirgan bayoz va majmualar tavsifi

Shoir she’rlari ko‘chirilgan qo‘lyozma bayoz va majmualarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

- 1) *devondagi she’rlar kiritilgan bayozlar;*
- 2) *devonga kirgan va kirmagan she’rlarni o‘z ichiga olgan bayoz va majmualar;*
- 3) *devonda uchramaydigan she’rlar kirgan bayozlar.*

O‘zR FA ShI asosiy fondidagi 1126, 1128, 1130, 1131, 1133, 1143, 1157, 1172, 1175, 1176, 1177, 1179, 1182, 1185, 1186, 1190, 1191, 1195, 1196, 2036, 1275, 6930, 6939, 6975, 6976, 6990, 7023, 7032, 7039, 7045, 2026, 2028, 6668, 7122, 582³ hamda Xiva

³Bu bayoz O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo‘lyozma va nodir bosma kitoblar fondida saqlanadi.

Ichonqal'a muzeyidagi 5894/II, 5894/III, 5894/IV 5894/V, 5884/V raqamli qo'lyozma bayozlar birinchi turga mansub.

Mutrib devoniga *kirgan va kirmagan* she'rlarni o'z ichiga olgan manbalar quyidagilardir:

1152 raqamli qo'lyozma. "Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy" - "Basmala"dan boshlanib, keyin debocha keladi. Majmuada Feruz, Sultoniy, Sodiq, Sa'diy, G'oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Mirzo, Shinosiy, G'ulomiy, Nozir, Purkomil, Kamoliy, Inoyat, Umidiy, Doiy, Ojiz, Haqiriy, Niyoziy, Habibiy, Chokar, Yusuf, Tabibiy, Xayoliy, Rog'ib, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadimiy, Xodim, Muznib, Chokar kabi 33 nafar shoirning 3099 ta g'azallari ko'chirilgan. Har bir shoir she'rlaridan oldin uning fazilatlarini yorituvchi masnaviy keltiriladi. Majmuada Mutrib she'rlari 28-o'rinda kelgan.

Ushbu asar Feruz farmoniga binoan hijriy 1326/1908-yilda Muhammad Ya'qub tomonidan ko'chirilgan. Qo'lyozma kolofonida quyidagilar qayd qilingan: "*Alhamdulillah val minna hazrati sulton-ul zamoni va nodir-ul davroni bois-ul aman val omon zillu as-subhona halifata ar-rahmon al-hoqon ibn al-hoqon as-sulton va bin as-sulton a'ni Abul Muzaffar val Mansuri Abulg'ozi Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon soniy xalladallohu taaliy mulkuhu va davlatahu zayyada umruhu ul janobi oliy hazratning farmoni oliylari bila bu majmuayı shuaroni faqir al-haqir Muhammad Ya'qub devon mulaqqabi bi Xarrot ibn usto Qurban niyozi Xorazmiy bir ming uch yuz yigirma oltilanji yil, mohi safarning uchlanji juma kuni muvofiq quy yili yozib itmomi sarhadig'a yetkurdi*".

Majmua Feruz farmoniga binoan Tabibiy tomonidan tuzilgan. Majmuaga XIX asr oxiri XX asr boshlarida faoliyat yuritgan 33 nafar shoirning Feruz g'azallariga tatabbu'lari kirgan. Har bir shoir g'azallaridan oldin masnaviyda ularning xususiyatlari vasf etilgan. Bunday tartibga 1134 raqamli qo'lyozma majmuada ham amalga oshirilgan. Ya'ni g'azallardan oldin masnaviy keltirilgan (1134 inv. 1-432-b).

Bu majmuaning yana bir manbasi Xiva Ichonqal'asidagi Muhammad Rahimxon Feruz II maqbarasi muzeyida KP6565 raqam ostida saqlanadi. Majmua hijriy 1328/1910-yilda domla Muhammad Ohund kotib tomonidan ko'chirilgan bo'lib, 690 sahifani tashkil

etadi. Xati nasta'liq. Debocha qismi ham bor. Qo‘lyozma matni to‘liq berilgan bo‘lib, juda yaxshi saqlangan.

1152 raqamli qo‘lyozma majmuaga Mutrib Xonaxarob haqidagi masnaviy-ta’riflar ham kiritilgan. Bu esa shoir haqidagi tasavvurlarni yanada boyitadi. Ayrim masnaviylarda Mutrib quyidagicha tavsif etiladi:

*Hamulkim, erur nazm elidin hisob,
Kelib Mutrib ismu Xonaxarob.*

*Degusidurur yaxshi guftorlar,
Oning fazlidindur bu ash’orlar.*

Yoki:

*Hamulkim, ongo Mutrib erur laqab,
Oning birla qizg‘usi bazmi tarab.*

*Kent ongo keldi Xonaxarob,
Bu ne dedi, nukta qilib ihtisob.*

*Hamulkim, sochar bu ila durri xushob,
Erur Mutrib zoru Xonaxarob.*

*Biri nazm elin Mutribi xushkalom -
Ki, Xonaxarob o‘ldi ul zora nom.*

Tabibiy Mutribning “Xonaxarob” taxallusi bilan ijod qilgani, nazmiy asarlar yozish unga shior bo‘lgani va shu kabi boshqa fazilatlar unda mujassam ekanagini qayd qiladi. Quyidagi baytda esa Mutrib tatabbu’ bog‘lashni “nisor aylaydi, shu she’rlar bilan u o‘zining iqtidorini ko‘rsatadi” deydi.

*Tatabbu’da jonini aylab nisor,
Bu ash’or ila ko ‘rguzur iqtidor.*

Ushbu majmua ham shoirning 2679/II raqamli qo‘lyozma devoni tuzilgan yili ko‘chirilgan. Shoir qo‘lyozma devoni kolofonida majmuadagi kabi tafsilotlar to‘liq keltirilmagan. Faqat “*Kotib Mulla Adbulkarim ibn Muhammad Rahim marhumi ibn Pahlavon Niyoz Mirzoboshi marhumi. Sana 1326*” keltirilgan. Ushbu asar esa “...bir ming uch yuz yigirma oltilanji yil, mohi safarning uchlanji juma kuni muvofiqi qo ‘y yilida...” yozilgani haqida ma’lumot bor. Majmuaga

shoirning *bir yuz bitta g‘azali ko‘chirilgan*. Shundan to‘rttasi 903, 906, 2679/II raqamli devon qo‘lyozmalarida uchramaydi. Bu g‘azallar poetik jihatdan mukammal ekani bilan qimmatlidir. Bular: Feruzning ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan “*Qatlinga qasd aylamish ul chashmi xunxor, ey ko ‘ngul*” (470^a), “*Ul sanamg‘a o ‘zga ruhbon bor ekandur bilmadim*” (504^b), “*Iki mahvash bu kecha bazmim aro tutdi maqom*” (513^b), hazaji musammani solim vaznidagi “*Ochilmish gul yeturmish bog‘a ziynat, ey sanam, kelgil*” (487^a) misralari bilan boshlanuvchi g‘azallariga Mutribning “*Vahki, hajridin ado bo ‘lmas g‘amim bor, ey ko ‘ngul*” (477^b), “*Ul siymbar o ‘zgalarga yor ekandur bilmadim*” (512^a), “*Tun mango iki mahi tobon kelib berdi salom*” (521^{a/b}), “*Ochilmish lolalar bog‘ ichra, ey oromijon, kelgil*” (494^b-495^a) misralari bilan boshlanuvchi tatabbu’lardir.

Qo‘lyozmaga 3 ta o‘yma naqsh tushirilgan. Muqovasi yashil rangda. Qo‘lyozma qattiq karton bilan muqovalangan. Matn fabrika qog‘oziga nasta’liq xatida ikki ustun shaklida qora (sarlavhalari qizil) siyohda ko‘chirilgan. Har sahifaga 17-21 satr she‘r yozilgan. O‘lchovi: 27,5x17,5. Bayoz 873 sahifadan iborat. Manbaning boshida va oxirida 1 tadan bo‘sh varaq qoldirilgan. Ushbu majmuuning muqovasi yirtilgan, ammo qo‘lyozma yaxshi holatda saqlangan.

1184 raqamli bayoz. Mutrib Xonaxarob, Devoniy, Rog‘ib, G‘oziy, Chokar, Amir, Yusuf, Shinosiy, Avaz, Sodiq, Devoniy, Xodim, Inoyat, Kamoliy, Nadimi, Asad, Purkomil, Nozir, Muznib, Xaqiri, Xokiy, Mirzolarning she‘rlari ko‘chirilgan.

Bu qo‘lyozma bayoz hijriy 1328/1910-yilda Abulg‘azi Sayyid Muhammad Rahim bahodirxon farmoniga binoan Mulla Muhammad Yusuf Chokar tomonidan ko‘chirilgan. Qo‘lyozma kolofonida quyidagi so‘zlar yozilgan: “*Alhamdulillah va-l-minna ushbu bayozkim, bo amri sultonu-z-zamon va nodiri davron boisi al-armon va-l-amon, a’ni Abulmuzaffar va-l-mansur Abulg‘azi Sayyid Muhammad Rahim bahodirxon ul janobni farmonlari birla faqiru-l-haqir Mulla Muhammad Yusuf al-mutaxallisi bi-l-Chokar ibn Muhammad Yusuf devon mulaqqabi ba Xarrot yozib itmom sarhadig‘a yetkurdy. Sana 1328*”.

Bayozga Mutribning jami 23 ta g‘azali kiritilgan bo‘lib, shundan 10 tasi fors, 13 tasi turkiy tilda. Shoirning “*Jamolingdin furug‘ istagan parvona mandurman* (85^{a/b}-86^{a/b})”, “*Hazin ko‘nglum ko‘zingdin dam-badam nozi ado istar* (86^b-87^a)”, “*Fig‘onkim bo‘lmisham hajringda noshod* (87^{a/b})”, “*Sango derman eshit, ey sarvi qomat* (88^b-89^a)”, “*G‘aming ko‘nglum uyin vayron etibdur* (114^{a/b})”, “*Quyoshoso jamoling sham’ig‘a parvonaman, kelgil* (121^{a/b})”, “*Ko‘zum tushgach sango, ey dilrabo, bilmon nechuk bo‘ldum* (132^{a/b})”, “*Gul yuzing shavqida tun-kun ohi afg‘on aylaram* (134^b-135^a)”, “*Dardi ishqingdin ajab Majnun kibi bemor o‘zum* (135^{a/b})” misralari bilan boshlanuvchi 9 ta g‘azali nafaqat 2679/II raqamli devon qo‘lyozmalariga, balki mavjud boshqa qo‘lyozma bayozlar tarkibiga ham kiritilmagan. Bizningcha, buning sababi shoirning 2679/II raqamli devoni 1908-yilda, boshqa devonlari ham shu sanadan avval, bayoz esa 1910-yilda tuzilganidadir.

Bayoz yashil karton bilan muqovalangan. Muqovada o‘yma naqsh bor. Matn pushti rangli fabrika qog‘oziga, qora va qizil siyohlarda chiroqli nasta’liq xatida, qiya holatda, ikki ustun shaklda ko‘chirilgan. Har bir sahifada o‘rtacha 12 satrdan she‘r yozilgan. O‘lchovi: 18x11. Hajmi: 308 bet. Qo‘lyozma boshida 2, oxirida 4 sahifa bo‘sh varaq qoldirilgan. Bayoz yaxshi saqlangan.

1192 raqamli bayoz. Oqil, Bayoniy, Rog‘ib, G‘oziy, Asad, Yusuf, Niyoziy, Kamoliy, Sodiq, Nozir, Mutrib Xonaxarob, Xokiy, Mirzo, Muznib, Purkomil, Inoyat, Avaz, Mirzo, Shinosiy, Sa’diyarning she’rlari kiritilgan. Bayoz hijriy 1328/1910-yilda Feruz farmoniga binoan Abdulaziz Maxdum tomonidan ko‘chirilgan. Kolofonda quydagilar yozilgan: “*Zillu-s-Subhon xalifatu-r-Rahmon boisi al-amoni va-l-omon, a’ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon soniy doma davlatahuning farmoni oliylari bila ushbu bayozkim, bir ming uch yuz yigirma sakkizlanji, 1328 sana, yili Bobojon Mahdum devon tarro al-mutaxallisi bi-l-Xodim ibn Abdulaziz Maxdum marhumi yozib itmom sarhadig‘a yetkurdi*”.

Bayozga Mutribning ikki g‘azali kiritilgan bo‘lib, bittasi fors (qo‘lyozma devonda mavjud), ikkinchisi “*Gul yuzungga notavon ko‘nglum qushin zor aylading* (34^{a/b})” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli o‘zbekcha g‘azaldir. Ushbu turkiy g‘azal shoir devoni

qo‘lyozmalariga kirmagan. Bayoz shoir devon qo‘lyozmalarini tuzilgandan ikki-uch yil o‘tib ko‘chirilgan.

Qo‘lyozma muqovasiga o‘yma naqsh tushirilgan. Muqova rangi yashil. Qo‘lyozma muqovasi qalin. Matn och yashil rangli fabrika qog‘oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta’liq xatida yozilgan. She’rlar avval qizil siyohda ramkaga olinib, keyin tilla rangli zar bilan jadval ichiga ikki qator qiya holatda ko‘chirilgan. Har bir sahifada 12 satr she’r yozilgan. She’rlar raqamlangan, sarlavhalangan. O‘lchovi: 20,5x13. Hajmi: 254-bet. Boshida va oxirida 3 varaq bo‘s sh qoldirilgan. Bayoz yaxshi saqlangan.

1134 raqamli qo‘lyozma. “Majmuatu muxammasot ushshuaroyi Feruzshohiy” deb nomlangan ushbu qo‘lyozma avvalida qizil siyohda: “*Debochayi masnaviyotu muxammasoti majmuati-shshuaroyi Feruzshohiy doma mulkahu va davlatahu va zayyada umrahu va shavkatahu...*” sarlavhasi qo‘yilgan. Basmaladan keyin hamd, na’t va to‘rt xalifa vasf etilgan she’rlar berilgan. Ogahiy ta’rifiga bag‘ishlangan *mataqoribi musammani mahzuf* vaznidagi o‘n bir baytdan iborat masnaviy ustoz shoirga ehtirom namunasidir:

*Shahi oliy iqbolu gardun sarir,
Jahon mulki ichra amiri kabir.*

*Zamiri oning keldi koni suxan,
Demaki, bordur jahoni suxan.*

*So ‘zi dur, dil oinasin sayqali,
Ko ‘ngul uqdasi mushkulining halli.*

*Qachon bir suxan aylasa oshkor,
Ongo fazl eli jonin aylar nisor.*

*O ‘zi chun balog ‘atg ‘a ma ’dan erur,
So ‘zi ham fasohatg ‘a ma ’dan erur...
Taxallus ongo bor edi Ogahiy,
Maqomi va lekin fanoning rahi...*

*Budurur ul muxammaski, olib qalam,
Qo ‘limg ‘a oni aylamishman raqam.*

Muallif ushbu masnaviyda Ogahiyni “*zamiri koni suxan*” sifatida vASF etib, so‘zi dil oynasiga sayqal beruvchi durga tashbeh etiladi. “O‘zi balog‘atga, so‘zi fasohatga ma’dan” bu zot qachon *suxan oshkor aylasa, fazl eli jon nisor qilishini ta’kidlaydi.*

Masnaviydan keyin Ogahiy g‘azallariga bog‘lagan Feruz taxmislari ko‘chirilgan. Bundan tashqari, majmuada Sultoniy, Sodiq, Sa’diy, G‘oziy, Asad, Bayoni, Oqil, Mirzo, Nozir, Shinosiy, G‘ulomiy, Purkomil, Kamoliy, Inoyat, Doiy, Ojiz, Haqiriy, Niyoziy, Xokiy, Habib, Yusuf, Tabibiy, Rog‘ib, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadimi, Xodim, Chokar, Muznib, Umidiy, Totor 33 nafar shoirning avval Ogahiy g‘azallariga, keyin Feruz g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari tartib bilan joylashtirilgan.

Majmua Feruz farmoniga binoan hijriy 1327/1909-yilda Tabibiy tomonidan tuzilgan. Tabibiyning quyidagi ma’lumoti shu haqda:

*Bihamdillahkim, lutf aylab Xudo,
Bu majmuag‘akim, yetdi itmom ongo.*

*Oning asrikim, ko ‘p farahhol edi,
Ming uch yuz yigirma yetti sol edi.*

*Rabi’ ul-avval erdi fasli rabi’,
Bu abyotlar bo ‘ldi mundin jami’...(1134 inv. 214^{a/b}).*

Misralar mazmunidan anglashiladiki, Tabibiy majmuani hijriy 1327 (1909)-yil, *Bahor faslining rabi’ ul-avvalida* ko‘chirgan.

Majmuada Mutribning Ogahiy hamda Feruz g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari ham uchraydi. Har bir muxammasdan oldin Tabibiy ularga atab yozilgan ikki yoki to‘rt satrdan iborat masnaviyni keltiradi. Barcha 33 nafar shoir she’rlaridan oldin ularning fazilatlarini ochib beruvchi masnaviyalar bitilgani ushbu majmuaning tazkira xarakteriga ega ekanini ko‘rsatadi. Mutrib haqidagi ayrim masnaviyalar:

*Biri Mutrib ul zoru Xonaxarob –
Ki, nag‘amotg‘a qilg‘usi irtikob.*

Yoki:

*Qilib Mutribi zoru Xonaxarob,
Bu olam aro mayli changu rubob.*

*Biri nazm elin Mutribi zor erur –
Ki, sozandayi changu setor erur.*

*Ongo gar xarob o ‘lmasa xonasi,
Bu ash’or bo ‘lg ‘usi afsonasi.*

Mutribning “Xonaxarob” taxallusi bilan ijod qilgani va sozandalik qilib, kuy bastalagani haqida so‘z yuritgan Tabibiy yana bir o‘rinda nazmiy asarlar yozish unga shior bo‘lganini aytadi. Zehni o‘tkir, o‘ziga ishonchi baland bo‘lganini ta’kidlaydi. Quyidagi baytlar ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Vale gohi fikri musaddas qilib,
Muni qildi zohir muxammas qilib.*

*Kelib Mutrib ul zoru Xonaxarob –
Ki, hushu xiraddin erur bahrayob!.*

*Muni aylamish zohir ul bo xirad –
Ki, fazl ahli ichra erur mu’tamad.*

*Dedi, Mutribi zoru Xonaxarob,
Bu shiorni jahd etib behisob!.*

*Chu Xonaxarob o ‘ldi Mutribg ‘a ot,
Ko ‘ra olmayin yoridin iltifot.*

*Shikoyat tariqi bila bir suxan,
Demakni o ‘z-o ‘ziga qilg ‘usi fan.*

Majmuada Mutribning Ogahiy hamda Feruz g‘azallariga bog‘lagan 5 ta muxammasi berilgan. Bular O‘zR FA ShIda saqlanayotgan shoir devoni qo‘lyozmalarida uchramaydi. Ular: Ogahiyning 2 ta 9, 13 baytli “*Jonbaxsh la ‘ling uzra to xat qildi paydo orazing...*”, “*Vah, ne balodur bilmadi, ey dilrabo, qoshu ko ‘zung...*” misralari bilan hamda Feruzning “*Mango rahm aylab, ul shirin zabon, ohista-ohista...*”, “*Dedim, ko ‘zumni ravshan et, mehri jamoling ko ‘rsatib...*”, “*Yoqutdurmu bilmadim, yo la ‘l, ey jonon, labing...*” deb boshlanuvchi g‘azallariga Mutrib taxmislardir.

Bundan tashqari, majmuada Mutribning devoniga kiritilgan 7 baytli 2 ta musaddasi ham joy olgan.

Manba uchta naqshinkor bezak tushirilgan qattiq qora karton bilan muqovalangan. Muqovaning yuqori va pastki qismiga “*Amali Muhammad Rahim sahhof 1325*” degan unvon tushirilgan. Matn fabrika qog‘oziga qora va qizil siyohda, nasta’liq xatida, ikki ustun shaklida ko‘chirilgan. Har sahifaga 17 satr matn joylashtirilgan. O‘lchovi 27x17. Hajmi: 432 bet. Boshida va oxirida 4 varaq bo‘sh qoldirilgan. Qo‘lyozma juda yaxshi saqlangan.

6927 raqamli bayoz. Bayoz “Basmala”dan boshlanib, unga Nozir, Haqiriyy, Oqil, Niyoziy, Rog‘ib, G‘ulomiy, Mutrib Xonaxarob, Yusuf, Asad, Bayoniyy, Sodiq, Xokiy, Xodim, Nadimiyy, Chokar, Shinosiyy, Purkomil, Mirzo, G‘oziy, Devoniylarning she’rlari kiritilgan.

Qo‘lyozma Feruz farmoniga binoan hijriy 1326/1908-yili Muhammad Ya’qub devon tomonidan ko‘chirilgan. Kolofonda quyidagilar bitilgan: “*Zillu-s-Subhon, xalifatu-r-Rahmon, bois al-amoni va-l-omoyi Abulmuzaffar va-l-Mansur- Abulg‘azi Sayyid Muhammad Rahim bahodirxonni soniy, ul oliv hazratning farmoni oliylari bila bu bayozni faqiru-l-haqir Muhammad Sharif bin Muhammad Ya’qub devon bir ming uch yuz yigirma oltilanji yil, mohi ramazonni to‘quzlanjisi muvofiq bijan (maymun) yili yozib itmomg‘a yetkurdi*”. Bayozga Mutrib Xonaxarobning 10 ta fors, 33 ta o‘zbekcha g‘azali kiritilgan. Jami: 43 ta.

Bayozga kirgan “*Damodam ko‘zlaring qatlimg‘a novaklar ravon aylar*”(21^b-22^a) misrasi bilan boshlanuvchi g‘azal devon qo‘lyozmalarida uchramaydi.

Bayoz to‘q yashil karton bilan muqovalangan. Tarkibiga kirgan she’rlar pushti rangli yupqa shildiroq Qo‘qon qog‘oziga ko‘chirilgan. She’rlar qora va qizil siyohlarda nasta’liq xatida yozilgan bo‘lib, ikki qator qiya holatda ko‘chirilgan. O‘lchovi: 17,5x11,5. Hajmi: 308 bet. Boshi va oxirida 2 varaq bo‘sh qoldirilgan. Bayoz yaxshi saqlangan.

6928 raqamli bayoz. Bayoz “Basmala”dan boshlanib, Purkomil, Inoyat, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Asad, Bayoniyy, Muznib, Rog‘ib, Chokarlarning she’rlari kiritilgan.

Qo‘lyozma Feruz farmoniga binoan hijriy 1326/1908-yilda Muhammad Ya’qub tomonidan ko‘chirilgan. Kolofonda quyidagilar

bitilgan: “*Alhamdulillah, va-l-mina ushbu bayoznikim, bo amri sultoni az-zamoni va nodir-ul zamoni bois al-a-moni va-l-amoni oliy xoqoni ibn al-xoqon a’ni Abul Muzaffari val Mansuri Abulg’izi Sayyid Muhammad Rahim Baxodurxon ul janob farmonlari birla faqir al-haqir Mullo Muhammad Yusuf ibn Muhammad Ya’qub mulaqqabi ba Xarrot yozib itmomg‘a yetkurdy. Sana: 1326.*

Bayozga Mutribning 3 ta fors, 10 ta turkiy g‘azali kiritilgan. Jami: 13 ta she’r. Shu g‘azallardan “*Mato’yi husnunga parvona bo’ldim*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli turkiy g‘azal shoir devoni qo‘lyozmalarida uchramaydi.

Qo‘lyozma muqovasi qalin. Ustiga o‘yma naqsh tushirilgan. Rangi yashil. Matn pushti rangli yupqa shildiroq qog‘ozga qora va qizil siyohda nasta’liq xatida ko‘chirilgan. O‘lchovi: 18x11,5. Hajmi: 328 sahifa. Manbaning boshida va oxirida 2 varaq bo‘sh qoldirilgan. Bayoz yaxshi saqlangan.

6932 raqamlı bayoz. Bayozga basmaladan keyin Muznib, Sodiq, Mutrib, Yusuf, Devoni, Xokiy, Kamoliy, Shinosiy, Rog‘ib, Asad, G‘oziy, Mirzo, Oqil, Niyoziy, Chokar, Xodim, Nadimi, Nozir, Avaz, Inoyatlarning she’rlari kiritilgan.

Qo‘lyozma Feruz farmoniga ko‘ra hijriy 1328/1910-yili Muhammad Ya’qub devon tomonidan ko‘chirilgan. Kolofonda quyidagilar yozilgan: “*Alhamdulillah, val-minna ushbu bayoznikim, bo amri sultoni al-zamoni va nodir-ul davron bois al-a-moni va al-o-moni al-xoqoni ibn al-xoqon a’ni Abul Muzaffari val Mansuri Abulg’izi Sayyid Muhammad Rahim Baxodurxon domi davlatahu ul janobni farmoni oliylari birla faqir al-haqir Mullo Muhammad Sharif ibn Muhammad Ya’qub devoni mulaqqabi ba Xarrot yozib itmomg‘a yetkurdy. Sana: 1328*”. Bayozda shoirning jami 41 ta g‘azali bo‘lib, shundan 21 tasi fors, qolgan 20 tasi turkiy tilda.

Qo‘lyozmadagi 15 ta: “*Ruxi xurshidi tobonam kujo raft...*”(10^{a/b}), “*Quyoshoso jamoling, ey pari, hayron bir manmu...*”(128^b-129^a), “*Mani jono visoling shahdidin masruri xandondin qil...*”(129^{a/b}), “*G‘amingdin, ey sanam, qadim dutodur...*”(137^b-138^a), “*Mudomo sandin, ey jon, iltimosim...*”(142^b-143^a), “*Mango ruxsori toboning yetoshmos (etushmas)...*” (143^b-144^a), “*Fig‘onkim, orazing mandin nihondur...*”(144^{a/b}), “*Bu tun kulbamg‘a jononim kelibdur...*”(144^b-145^a), “*Bu kecha bazmimg‘a*

kelgan la 'li xandonmudur... ”(146^b-147^a), “Firoq ichra maning holim tabodur... ”(147^b-148^a), “Mani, yo rab, bu kecha lutf ila jonona yetur... ”(150^{a/b}), “Nihon etma jamoling, ey parizod... ”(150^b-151^a), “Mani ishq ichra hayron qilmadingmu... ”(151^{a/b}), “Nargisi bemoringa jono, hazin jonim fido... ”(151^b-152^a), “Bihamdillah, visoli yordin komim ravo topdim... ”(152^b-153^a) misralari bilan boshlanuvchi g‘azallar shoir devoniga kirmagan.

Bayoz o‘yma naqshli qattiq to‘q yashil karton bilan muqovalangan. Matn ko‘k rangli yupqa, shildiroq fabrika qog‘oziga qora va qizil siyohlarda nasta’liq xatida ko‘chirilgan. O‘lchovi: 18x11,5. Hajmi: 306 bet. Manbaning boshida 2, oxirida 3 varaq bo‘sh qoldirilgan. Ushbu bayoz ham yaxshi saqlangan.

6951 raqamli bayoz. Nozir, Mutrib, Purkomil, Avaz, Asad, Yusuf, Chokar, Sodiq, Inoyat, Kamoliy, Devoniy, Rog‘ib, Xokiy, G‘oziy, Muznib, Xodim, Nadimi, Bayoniy, Mirzo, Niyoziy, Oqillarning she’rlari ko‘chirilgan.

Qo‘lyozma Feruz farmoniga binoan hijriy 1328/1910-yili Muhammad Komil Devoniy tomonidan ko‘chirilgan. Kolofon quyidagicha: “*Zilli as-subhona xoliyfata(hu) ar-rahmoni a’ni Sayyid Muhammad Rahim Bahodurxon domi davlatahu va shavkatahuning farmoni oliylari birla soniy ushbu bayozni faqir al-haqir Muhammad Komil devon mulaqqabi ba Devoniy ibn domlo Ismoil devon Xorazmiy yozib, safar oyinda itmomg‘a yetkurdi. Sana 1328 lanji yilda*”.

Bayozga shoirning jami 35 ta g‘azali kiritilgan (shulardan 15 tasi fors, qolgan 20 tasi turkiy). G‘azallardan 4 tasi shoir devoni qo‘lyozmasida ham bor. She’rlarning 16 tasi shoir devon qo‘lyozmalarida uchramaydi.

Mutribning “*Yuzungga murg‘i ko‘nglum zor o‘lubdur... ”(61^b-62^a), “Sham ‘i husnunga nigoro, ro‘zi shab parvonaman”(73^{a/b}), “Majnun ishqisi aro devonadurman”(87^b-88^a), “Dambadam chekkan g‘amingdin ohu afg‘onim nedur... ”(90^{a/b}), “Falakka chirmashur faryodu afg‘onim firoqingdin”(90^b-91^a), “Gul yuzingga bulbuloso ro‘zi shab, zor o‘lmisham”(91^b-92^a), “Damodam fosh etib mehru vafo, ey mehribonim, kel”(93^b-94^a), “Dardi ishqingdin ko‘zimni mardumin qon ayladim”(94^b, 95^a), “Mani har nozanin ruxsori tobonig‘a ravo(zor) etdi”(95^{a/b}), “Bihamdillah, bu tun sarvi*

xiromonimni ko ‘rdumman... ”(95^b-96^a), “Ne deb yonimdin, ey jonon, ketarsan”(113^b-114^a), “Ko ‘zim tushgach jamolig‘a mani kim zor etib ketdi”(114^b- 115^a), “Ey sanam, raf‘i niqob ulki, jamoling ko ‘rayin”(132^{a/b}), “Yuzing gulzorin istab ohi afg‘onman saharlarda”(133^{a/b}), “Xasta jonimg‘a labingdin xayru ehson aylagil”(148^{a/b}), “Mani majnunlig‘im xurshidi ruxsorimg‘a oytinglar” (148^b-189^a) misralari bilan boshlanuvchi 16 ta g‘azali shular jumlasidandir.

Bayoz o‘yma naqshli qattiq to‘q yashil karton bilan muqovalangan. Matn fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan. Bayozning ba’zi sahifalariga “Rjevskoy fabriki №6” degan muhr bosilgan. She’rlar qora va qizil siyohlarda nasta’liq xatida yozilgan bo‘lib, ular ikki qator qiya holatda ko‘chirilgan. Sahifalarda o‘rtacha 12 satr she’r yozilgan. O‘lchovi 17,5x11. Hajmi: 300 bet. Boshi va oxirida 3 varaq bo‘sh qoldirilgan. Bayoz yaxshi saqlangan.

6952 raqamli qo‘lyozma bayoz. Ushbu bayozdan Mutrib she’rlari qatorida, 10 nafar shoirning she’rlari o‘rin olgan. Bular: Sodiq, Nazar, G‘oziy, Asl, Mirzo, Kamoliy, Inoyat, Devoniy, Avaz, Rog‘ib. Ko‘chirilgan yili va kotibi noma’lum. Bayozga Mutribning 8 g‘azali kiritilgan. Shulardan 1 tasi fors, qolgan 7 tasi turkiy tilda. Shoirning “*Jon qasdin aylab, ey pari, har lahza fatton ko ‘zlarining...* ”(73^b-74^a) misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli bitta turkiy g‘azali devon qo‘lyozmalarida uchramaydi.

Manba o‘yma naqshli to‘q yashil karton bilan muqovalangan. Matn qalin sarg‘ish shildiroq fabrika qog‘oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta’liq xatida, ikki ustunda qiya shaklda ko‘chirilgan. Bayozga shoirlarning she’rlari ketma-ket tartibda emas, aralash holda ko‘chirilgan. Ammo barcha she’rlar alifbo tartibida keladi. She’rlar raqamlangan va sarlavhalangan. O‘lchami 18x11. Hajmi: 276 bet. Qo‘lyozmaning boshida 1 varaq, oxirida esa 12 varaq bo‘sh qoldirilgan. Ushbu bayoz juda yaxshi saqlangan.

6969 raqamli bayoz. Basmaladan keyin Nadimi, Xodim, Chokar, Devoniy, Oqil, Kamoliy, Yusuf, Niyoziy, Sodiq, Sa’diy, Mutrib Xonaxarob, Rog‘ib, Shinosiy, Nozir, G‘oziy, Avazlarning she’rlari kiritilgan.

Qo‘lyozma Feruz farmoniga binoan hijriy 1326/1908-yilda Muhammad Ya’qub devon tomonidan ko‘chirilgan. Kolofonda

quyidagilar yozilgan: “*Alhamdulillah, va-l-minna ushbu bayozkim, bo amri sultonu-z-zamon va nodiri davron boisi al-amoni va-l-omon. As-sulton ibnu-s-sulton, al-xoqon ibnu-l-xoqon, a’ni Abulmuzaffar va-l-mansuri Abulg’ovi Sayyid Muhammad Rahim bahodirxon, ul janobni farmoni oliylari birla bir ming uch yuz yigirma oltilanji yili erdikim, faqiru-l-xaqir Muhammad Sharif ibn Muhammad Ya’qub devon, mulaqqabi ba Xarrot yozib itmom sarhadig’a yetkurdy. 1326-yil*”. Bayozdan Mutribning 6 ta turkiy g‘azali joy olgan. Shundan “*Gardun uza xurshididin ra ’no jamoling yaxshidur...*”(75^{a/b}) misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali shoir devoni qo‘lyozmalarida uchramaydi.

Bayoz o‘yma naqshli qattiq to‘q yashil karton bilan muqovalangan. Matn yupqa shildiroq fabrika qog‘oziga qora va qizil siyohlarda nasta’liq xatida ko‘chirilgan. O‘lchovi: 18x11. Hajmi: 332 bet. Manbaning boshida 3, oxirida 2 varaq bo‘sh qoldirilgan. Ushbu bayoz ham yaxshi saqlangan.

2024 raqamli bayoz. Devoniy, Rog‘ib, Muznib, G‘ulomiy, Bayoniy, Sodiq, Mutrib Xonaxarob, Bayoniy, Xokiy, Kamoliy, Sa’diy, Yusuf, Avaz, Xodim, Nadimi, Inoyat, Purkomil, Tabibiy, Nozir, Shinosiy, Oqil, Asadlarning g‘azallari kiritilgan.

Qo‘lyozma Feruz farmoniga binoan hijriy 1327/1909-yilda Muhammad Komil devon tomonidan ko‘chirilgan. Bayoz kolofonida quyidagilar qayd qilingan: “*Zillu-s-Subhon, xalifatu-r-Rahmon, bois amnu omon, a’ni Sayyid Muhammad Rahim bahodirxon doma davlatahuning farmoni oliylari bila ushbu bayozni faqiru-l-haqir mullo Muhammad Komil devon, mulaqqabi bi-Devoniy ibn domullo Ismoil devoni Xorazmiy muvofiqi bijan (maymun) yili mohi muharramning avvalida itmomg‘a yetkurdy, 1327 sana*”. Bayozga Mutribning 23 ta g‘azali kirgan bo‘lib, ulardan 3 tasi fors, qolgan 20 tasi turkiy tildadir. Ushbu bayozda shoir devoni qo‘lyozmalarida uchramaydigan “*Kel, istadim, ey dilsiton, ochib jamol, ochib jamol...*” (67^b-68^a), “*Tinmay ko ‘zimda qon, ey oromi dil, oromi dil...*”(69^{a/b}) misralari bilan boshlanuvchi 2 ta turkiy g‘azali ham bor.

Manba muqovasiga 3 ta o‘yma naqsh tushirilgan. Muqova rangi yashil. Matn za’faron rangli fabrika qog‘oziga nasta’liq xatida, ikki qator qiya holatda ko‘chirilgan. O‘lchovi: 18x11,5. Hajmi: 312 bet. Manbaning boshida 2 va oxirida 3 sahifa bo‘sh qoldirilgan. Ushbu bayoz ham yaxshi saqlangan.

6816 raqamli bayoz. Mutrib Xonaxarob she'rlari qatorida Chokar, Xodim, Nadimi, Devoniy, Tabibiy, Rog'ib, G'ulomiy, Muznib, Avaz, Mirzo, Doiy, Inoyat, Sa'diyarning ham g'azallari kiritilgan. Kolofonda ko'chirilgan yili hamda kotibi haqida ma'lumot yo'q. Xati va ko'chirilgan qog'oz turidan anglashiladiki, XX asr boshlarida ko'chirilgan. Buni qo'lyozma asarning muqovasida rombik shaklida tushirilgan bezak ichidagi "Amali Muhammad Sahhof-1325" degan bitikdagi sanadan ham bilish mumkin.

Bayozga shoirning 75 ta turkiy g'azali ko'chirilgan. Shundan 72 tasi 2679/II raqamli qo'lyozma devonda mavjud. Bayozga ko'chirilgan shoir she'rlarining o'ziga xos jihat shundaki, uning faqat *takrorga asoslangan yoyiq radifli g'azallari* shu qo'lyozma manbada uchraydi. Qolgan uchta turkiy g'azal shoir devoni qo'lyozmalarida uchramaydi. Bular: "*Jono yuzung gulzorini shaydosiman, shaydosiman...*"(9^b), "*Tinmay ko'zimda qon, ey oromi dil, oromi dil...*"(9^b), "*Kel, istadim, ey dilsiton, ochib jamol, ochib jamol*"(230^a) misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azallardir.

Manba muqovasiga 3 ta o'yma naqsh tushirilgan. Muqova rangi yashil. Muqovaning yuqori va pastki qismida lola shaklidagi naqsh bor. O'sha naqsh ichiga "Amali Muhammad sahhof - 1325" deb yozilgan. Matn fabrika qog'oziga nasta'liq xatida, uch qator qiya holatda ko'chirilgan. O'lchovi: 36,5x22. Hajmi: 233 bet. Boshi va oxirida 4 sahifa bo'sh qoldirilgan. Bayoz yaxshi saqlangan.

Yuqorida tavsiyi keltirilgan bayoz, muxammasotlarga shoir asarlarining devon qo'lyozmalarida uchraydigan hamda uchramaydigan she'rlari haqida ma'lumot berildi. Bayozlardagi shoir devoniga ko'chirilgan g'azallarning soni keltirildi, xolos. Uning qiyosiy-matniy xususiyatlari haqida tadqiqotning keyingi boblarida to'xtalinadi.

Devonda uchramaydigan she'rlar kirgan bayozlar. 1127, 1129, 6971, 2025 raqamli qo'lyozma bayozlarda Mutribning devon qo'lyozmalariga kiritilmagan lirik asarlari haqidagi ma'lumotlar keltiriladi:

1127 raqamli bayozi muxammasot. Sultoniy, Feruz shohi, Sodiq, Sa'diy, G'oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Nozir, Shinosiy, G'ulomiy, Purkomil, Kamoliy, Amir, Inoyat, Ojiz, Niyoziy, Habib, Xokiy, Yusuf, Rog'ib, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadim,

Xodim, Chokar, Muznib, Soqiy, Umid, Mirzo, Niyoziy, Tabibiy, Haqiriylarning muxammaslari kiritilgan.

Qo‘lyozma Feruz farmoniga ko‘ra hijriy 1326/1908-yili Muhammad Ya’qub tomonidan ko‘chirilgan. Kolofoni quyidagicha yakunlanadi: “*Alhamdulillahi va-l-minna oliv hazrat rafi manzilat sultonu-z-zamon, boisi al-amnu va-l-amon, a’ni Abulmuzaffar va-l-Mansur Abulg’oziy Sayyid Muhammad Rahim bahodirxon soniy xalladallohu taolo mulkahu va davlatahu zayyada umrahu, ul oliv hazratning farmoni vojiblari bo‘lib, bu bayozi muxammasotni faqirul-haqir Muhammad Ya’qub devon mulaqqabi bi Xarrot, sanai 1326 lanji yil muvofiqi bijan yili mohi safaroni 22lanji Chahorshanba kuni yozib itmomg‘a yetkurdy*”.

Bayozga Mutribning Feruz g‘azallariga bog‘lagan 7 baytli “*Dedim: ko‘zumni ravshan et, mehru jamoling ko‘rsotib...*” (23^b-24^a), 11 baytli “*Mango rahm aylab, ul shirin zabon ohista-ohista...*” (56^b, 57^{a/b}, 58^a), 9 baytli “*Yoqutdurm u bilmadim, yo la'l, yo jonon labing...*” (111^b, 112^{a/b}), Ogahiyning 13 baytli g‘azaliga “*Vah, ne balodur bilmadim, ey dirlrabo, qoshu ko‘zung...*” (90^{a/b}, 91^a) misralari bilan boshlanuvchi taxmislari joy olgan.

Mazkur muxammaslar barchasi shoir devon qo‘lyozmalariga kiritilmagan.

Bayoz qattiq karton bilan muqovalangan. Qo‘lyozma muqovasi och yashil. Matn sarg‘ish yupqa fabrika qog‘oziga, qora va qizil siyohlarda chiroyli nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Har bir sahifadagi she’rlar sarg‘ish yaltiroq ranglar bilan jadvalga olingan bo‘lib, ular qizil va tilla yaltiroq ranglar bilan bezatilgan. Jadval ichidagi she’rlar qiya, uch ustun shaklda, har bir sahifada 20 satrdan muxammaslar matni keltirilgan. O‘lchovi 26,5x15,5. Bayoz 308 betdan iborat. Boshida va oxirida 3 varaq bo‘sh qoldirilgan.

1129 raqamli bayozi muxammasot. Bu bayozga Rog‘ib, Oqil, G‘olib, Niyoziy, Doiy, Bayoniy, Tabibiy, Habib, Shinosiy, Avaz, Asad, Mutrib Xonaxarob, Chokar, Ojiz, Nodir, Nodim, Nadimi, Najot, Yusuf, Devoniylarning muxammaslari ko‘chirilgan.

Bu qo‘lyozma Feruz farmoniga ko‘ra hijriy 1327, milodiy 1909-yilda Muhammad Ya’qub devon Xarrot tomonidan ko‘chirilgan. Kolofonda quyidagilar yozilgan: “*Lillahi-l-hamd va-l-minnah oliv hazrat raf‘imanzilat zillu-s-Subhon, xalifatu-r-Rahmon boisi al-amnu*

va-l-omon Abulmuzaffar va-l-Mansur Abulg‘ozi Sayyid Muhammad Rahim bahodirxon soniy, xalladallohu ta’olo mulkahu va davlatahu va zayyada umrahu, ul oliv hazratning farmoni oliylari birlan bu muxammasot bayozni bir ming uch yuz yigirma yettilanji yil, mohi jumod-ul avvalini avvali Chahorshanba kuni bu faqir al-haqir Muhammad Ya’qub devon ibn ustuo Qurban niyozi Xorazmiy mulaqqabi ba Xarrot yozib itmom sarhadig‘a yetkurdy”. Bayozga Alisher Navoiyning “Favoyidu-l-kibar” devoni dagi “Gul kerakmasdur manga majlisda sahbo bo ‘lmasa...” – deb boshlanuvchi g‘azaliga Mutrib taxmisi kiritilgan. Jami 7 ta muxammas kirgan bo‘lib, shundan 6 tasi fors, qolgan 1 tasi turkiy tilda. Shu bilan birga bunda Mutribning “Ne sabab bo‘ldi bu tun bazmimg‘a yorim kelmadi...” (125^b-126^a) misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga Tabibiy va Avazlar tomonidan yozilgan muxammaslar ham kiritilgan.

Bayoz qattiq qora karton bilan muqovalangan. Muqovada o‘yma naqsh bor. Matn G‘arb (fabrika) qog‘oziga qora va qizil siyohda nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Qog‘ozi havo rangda bo‘lib, bayozning birinchi sahifasida ko‘k, yashil, pushti ranglar bilan bezatilgan naqshinkor unvon berilgan. She’rlar qizil va ko‘k rangli siyoh bilan ramkaga olinib, yaltiroq sariq rangli zar bilan jadval ichiga yozilgan. Har bir sahifada 20 satr she’r yozilgan. She’rlar raqamlangan, sarlavhalangan. O‘lchovi 27x16,5. Bayoz 400 betdan iborat. Manbaning boshida va oxirida 4 varaq bo‘sh qoldirilgan. Ushbu bayoz ham yaxshi saqlangan.

6971 raqamli bayoz. Basmaladan keyin Avaz, Purkomil, Shinasiy, Nadimiyy, Rog‘ib, Yusuf, Nozir, Haqiriyy, Xodim, Xokiy, Mutrib, Kamoliy, Asad, Muznib, Inoyat, Sodiq, Devoniyy, Bayoniyy, Niyoziy, G‘oziy, Mirzo, Chokarlarning she’rlari ko‘chirilgan.

Qo‘lyozma bayoz Feruz farmoniga binoan hijriy 1328/1910-yilda Boltaniyoz Nadimiyy tomonidan ko‘chirilgan. Qo‘lyozma bayozning kolofonida quyidagilarni uchratamiz: “Alhamdulillah, val-minna ushbu bayozkim, bo amri sultonu-z-zamon va nodiru-l-davron, a’ni Abulmuzaffar va-l-Mansur Abulg‘ozi Sayyid Muhammad Rahim bahodirxon domi davlatahu va shavkatuning farmoni oliylari bila bir ming uch yuz yigirma sakkizlanji yili mohi safarning o‘n oltilanjisi, juma kuni erdikim, Mullo Boltaniyoz al-mutaxallasi bo

Nadimiyl valadi usto Qurbonniyozi yozib itmomi sarhadig‘a yetkurdi. 1328 sana”.

Bayozga Mutribning “*Hajr o‘qin o‘lturgali jonimg‘a tayyor aylama...*”(70^{a/b}), “*Fig‘onkim, bu kecha oromijonim qaydadur, bilmon...*”(71^b-72^a), “*Bir nafas lutfing mayidin shodu xandon bo‘lmadim...*”(72^b-73^a), “*Mudomo murg‘ ko‘nglum ko‘yi ishqingda gado bo‘lsun...*”(74^{a/b}), “*Nigoro, hasrati hajring hazin ko‘nglumni qon etmish...*”(74^b-75^a), “*Jamolingg‘a maningdek, zor bormu...*”(75^{a/b}), “*Mani tokay ruxi olingg‘a zor etmak nedur muncha...*”(77^b-78^a), “*Shukrkim, bu kecha ul yori qadrdon kelujok⁴...*”(94^{a/b}), “*Jonimda bor ofati hijrona ne dersan...*”(100^b-101^a) misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli 9 ta turkiy g‘azali devon qo‘lyozmalarida uchramaydi. Bayozga jami 21 ta g‘azal kiritilgan bo‘lib, shundan 12 tasi fors tilida.

Bayozning muqovasi yashil rangda. Muqovada o‘yma naqsh bor. Tarkibiga kirgan she’rlar pushti rangli fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan. She’rlar qora va qizil siyohda nasta’liq xatida yozilgan bo‘lib, ikki qator qiya holatda ko‘chirilgan. Har sahifada 12 satr she’r bor. Bayozga ko‘chirilgan g‘azallar qizil siyohda raqamlangan, sarlavhalangan. O‘lchovi 18x11,5. Bayoz 276 betdan iborat. Manbaning boshida va oxirida 3 varaq bo‘sh qoldirilgan. Ushbu bayoz ham yaxshi saqlangan.

2025 raqamli bayoz. Mutrib, Rog‘ib, Yusuf, Kamoliy, Asad, Inoyat, Muznib, Sodiq, Purkomil, Xokiy, G‘oziy, Nozir, Bayoni, Devoni, Xodim, Oqil, Mirzo, Avazlarning g‘azallari kiritilgan.

Qo‘lyozma Feruz farmoniga binoan hijriy 1328/1910-yilda Muhammad Sharif Xarrot tomonidan ko‘chirilgan. Kolofonda quyidagilar bitilgan: “*Zillu-s-Subhon, xalifatu-r-Rahmon, a’ni Sayyid Muhammad Rahim bahodirxon domi davlatahu va shavkatuning farmoni oliylari birla ushbu bayozni Muhammad Sharif valadi Muhammad Ya’qub devon mulaqqabi ba Xarrot muvofiq, tovuq yili yozib itmomig‘a yetkurdi. Fiy shahri safariy, fiy 1328 sana*”.

Ushbu bayozga Mutribning 14 ta g‘azali kiritilgan bo‘lib, shundan, 9 tasi fors tilida. Qolgan “*Istaram jono labi shakarfishoning*

⁴ Kelajak.

lazzatin... ”(3^{a/b}), “Ishq aro bilmon bu ne, ozori hijrondur mango... ”(14^b-15^a), “Erurman kecha-kunduz gul kibi ruxsoringa mushtoq... ”(96^{a/b}), “Ko’nglum ichra, ey sumanbar, dog‘i hijronimni ko‘r... ”(107^b-108^a), “Mani shod etgali bu kecha ul sarvi ravon keldi... ”(111^b-112^a) misralari bilan boshlanuvchi 5 ta 7 baytli turkiy g‘azal shoir devon qo‘lyozmalarida uchramaydi.

Ushbu manba to‘q yashil rangli qattiq qarton bilan muqovalangan. Muqovaga 3 ta o‘yma naqsh tushirilgan. Tarkibiga kirgan she’rlar sariq rangli yupqa shildiroq fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan. Bayozga kiritilgan she’rlar nasta’liq xatida, ikki qator qiya holatda ko‘chirilgan. Har bir sahifada 12 satr she’r yozilgan. O‘lchovi 18x12. Bayoz 304 betdan iborat. Manbaning boshida 4 ta va oxirida 3 sahifa bo‘sh qoldirilgan. Ushbu bayoz yaxshi saqlangan.

III. TAZKIRALAR:

12561 raqamli tazkira. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan ushbu tazkira hijriy 1365/1945-yili, Seshanbada Hasanmurod Qori Muhammad Amin o‘g‘li tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, unda o‘sha davrning 51 nafar shoir va adabiyotshunosi haqida ma’lumot berilgan.

Laffasiyning “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimayi hollari”, deb nomlanuvchi ushbu tazkirasi 2 qismdan iborat. Bular:

1. Xiva tazkirayi shuaro;
2. Xiva ulamoyi tazkirayi shuaro.

Mutrib haqidagi ma’lumotlar tazkiraning “Xiva ulamoyi tazkirayi shuaro” qismida keltirilgan.

Ushbu tazkirada Laffasiy tomonidan Mutrib Xonaxarobga atalgan 3 ta masnaviy beriladi. Shundan keyin u haqida ma’lumotlar keltiriladi hamda shoirning “Zihi jonlarg‘a hamdingdin bo‘lib fayzu safo paydo... ”(140^a), “Jono ne, deb yuzingni mandin nihon etarsan... ”(140^{a/b}) misralari bilan boshlanuvchi g‘azallari (devonga kiritilgan) uchraydi. Faqat “Ko‘ring emdi xaloyiqg‘aadolat oshkor o‘ldi... ”(141^b) misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli 1 ta turkiy g‘azal shoir devon qo‘lyozmalarida uchramaydi.

Kolofoni quyidagicha: “Raqam faqir al-haqir g‘aribi benazir xokisor Mullo Hasanmurod Qori mulaqqab Laffasiy bin Muhammad

Amin Xivaqiy 1365/1945 inji yil, 4 iyul, Dushanba jumod ussoniyning 24 injisida”.

Ushbu tazkira oxirida quyidagilar ilova shaklida keltirilgan: “*Germaniya bilan Sovet Hukumatining muhoraba boshlog‘on tarixi 22 iyun. 1941.*

Germaniya hukumatining Sovet hukumatiga taslim bo‘lgan tarixi, bo‘ldilar taslim. Ushbu yil yozishim. Germaniya 1945-yil, 9 may, Chorshanba kuni.

Toshkent Oktabr rayoni ko‘k suv ko‘cha, Yunusov Maxdum Ali. Navoiy ko‘cha marhamat guzari 3-tor ko‘cha, uy nomeri 44. “G‘ulomiy” degan ma’lumotlar keltirilgan.

Mutrib haqidagi ma’lumotlar mundarijada qirq oltinchi tartib raqamida joylashtirilgan bo‘lib, 137^a-betdan 141^b-betlarga qamrab olgan.

Ushbu manba oddiy qarton bilan muqovalangan. Har bir sahifaga 14-16 satr she’r yozilgan. Ma’lumotlar siyohrang bilan ramkaga olingan, she’rlar esa, jadval ichiga, oddiy qog‘ozga ko‘chirilgan. Qo‘lyozma o‘lchami 21,5x15. Bayoz 218 betdan iborat. Manbaning boshida 1, oxirida 3 sahifa bo‘sh qoldirilgan. Ushbu tazkiraning varaqlari yaxshi saqlanmagan, varaqlari uzuq-yuluq.

IV. TOSHBOSMA MANBALAR:

O‘zR FA ShIda №27, 28, 29, 5854/3⁵, 11238, 8734, 14420 raqamlarda saqlanayotgan toshbosma manbalar bitta nusxadan olingan bo‘lib, ko‘chirilgan yili ham bir xil. Mutribning devonga kiritilgan g‘azallaridan *bir yuz bittasi* ushbu toshbosmalarda uchraydi.

Ta’kidlanganidek, toshbosma manbalar tuzilishi bir xil bo‘lgani sababli quyida ulardan bittasi haqida batafsил ma’lumot keltiramiz:

14420 raqamli toshbosma. “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” – O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanadi. Asar “Basmala”dan boshlanib, keyin debocha beriladi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod etgan Feruz, Sultoniy, Sodiq, Sa’diy, G‘oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Mirzo, Shinosiy, G‘ulomiy, Nozir, Purkomil, Kamoliy, Inoyat, Umidiy, Doiy, Ojiz,

⁵5854/III raqamli toshbosma Xiva Ichonqal‘a muzeyida saqlanadi. Ushbu manbaning debocha qismi yirtilgan bo‘lib, asosiy qismiga zarar yetmagan.

Haqiriylar, Niyoziy, Habibiy, Chokar, Yusuf, Tabibiy, Xayoliy, Rog‘ib, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadimiylar, Xodim, Muznib, Chokarlarning g‘azallariga tartib berilgan. Bu manbada 33 ta shoir bor. Yana shuni alohida qayd qilish kerakki, har bir shoirning she’ridan oldin o‘sha shoir fazilatlarini yorituvchi masnaviy keltiriladi. Majmuada Mutrib she’rlari 28-tartib raqami bilan keladi. Asarning oxirigacha har bir shoir g‘azallari nechinchi o‘rinda kelgan bo‘lsa, shu raqamni ko‘paytmasidan keyin oxirigacha qayta takrorlanib kelaveradi. Mutrib g‘azallari yuz marta takrorlanadi. 1152 raqamli qo‘lyozma bayozni aynan nusxasi bo‘lib, ushbu toshbosma bayozga ham Mutribning *bir yuz bitta* g‘azali kiritilgan.

الهى، ايله سوزوم (Iloho, ayla so ‘zum marg ‘ubi xalq, na marg ‘ub bil yori mahbubi xalq. 1326) 1908-yilda ko‘chirilgan.

Ushbu manba to‘q yashil rangli qattiq qarton bilan muqovalangan. Muqova ustiga 3 ta o‘yma naqsh tushirilgan. Tarkibiga kirgan she’rlar fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan. Majmuaga kiritilgan she’rlar nasta’liq xatida, ikki ustun shaklida, avval ramkaga olinib, keyin jadvalga olingan. Har bir sahifada 20-21 satr she’r yozilgan. O‘lchovi 33x23. Manba 1640 betdan iborat. Toshbosmaning boshida va oxirida bitta sahifa bo‘sh qoldirilgan. Toshbosmaning saqlanish holati yaxshi.

Mutribning devon qo‘lyozmalarida uchramaydigan bir murabba’si 9543, 480, 12700, 479 raqamlar ostida saqlanayotgan toshbosma manbalarga ham ko‘chirilgan. Shulardan biri: **9543 raqamli toshbosma** bo‘lib, u O‘zR FAShI asosiy fondida saqlanadi. Bu toshbosmaga قصه تميم صحابه (Qissayi Tamim sahaba) asari 1^b sahifadan to 33 sahifalarigacha muallifi noma'lum bo‘lgan ushbu nasriy asar ko‘chirilgan. 34-sahifaga “G‘azali Mir Ziyo Ustirushaniy mutaxallus ba Navhush ‘afa anhu” sarlavhasi ostida bitta muxammas hamda bitta munojot tarzida yozilgan musaddas ko‘chirilgan. 37-sahifadan Mutrib, Xislat, Shavkatlarning she’rlari ko‘chirilgan.

Asarning 1^a sahifasiga, ya’ni yuqori qismiga الحلة والمنه کی اوشبو كитاب متنظر هر شیخ و شاب و ائمہ اهل آداب اعنی قصه تميم صحابه “Alhamdillah, valminnaki, ushbu kitobm mustatob manzuri har shayx(qari) va shob(yosh) va anis(ayol) ahli odob, a’ni qissai tamim

sahoba" deb yozib qo'yilgan. Ushbu kitobga 37-betdan 40-betgacha Mutribning "Qumrinoma" asari ko'chirilgan.

Ushbu manbaning 480, 12700, 479 raqamda saqlanadigan nusxalari ham bor. Manbaning xotimasida quyidagi ma'lumotlar berilgan: كتبه فقير الحقير ملا محمد جان بن اسماعيل باي شاشى ١٣٣١ در تاشقند. (*Katabahu faqir ul-haqir Mullo Muhammadjon ibn Ismoilboy Shoshiy, milodiy 1331 dar Toshqand*) hijriy 1913-yilda ko'chirilgan.

Ushbu 4 ta toshbosmadan ikkitasi, ya'ni, 12700, 480 raqamli manbalar 1913-yilda A.Porsevning Toshkentdag'i tipo-litografiya bosmaxonasida chiqqan. Qolgan 9543, 479 raqamli manbalar esa 1913-yilda G'ulom Hasan Orifjonov litografiyasida, Toshkent shahrida chop etilgan.

Bu manbara Muhammad Hasan Mutribning "Qumrinoma" sarlavhasi ostida "*Oshiq ersang aytako'r yo, do'st hu...*"(37^a-40^b) misrasi bilan boshlanuvchi 15 bandli murabba'si ko'chirilgan.

Bu manbalar oddiy oq, sariq, ko'k, yashil rangli qarton bilan muqovalangan bo'lib, asar fabrika qog'oziga ko'chirilgan. O'chovi: 22x13,5.

V. DAVRIY NASHR MATERIALLARI (GAZETA, JURNAL TO'PLAM)DA E'LON QILINGAN SHE'RLARI

1920, 1921, 1922-yillarda arab alifbosida nashr qilingan "Xorazm xabarlari", "Xorazm haqiqati", "Qizil Xorazm" gazeta va jurnallarda, keyinchalik e'lon qilingan she'rlari to'planib, 1923-yilda "Yugurmiya" to'plamida Mutrib Xonaxarobning bir qancha she'rlari e'lon qilingan.

Halgacha "Xorazm haqiqati" hamda "Qizil Xorazm" gazeta va jurnallarini qo'lga kirta olmadik. Shuning uchun bular haqida aniq fikr-mulohazalar aytib bo'lmadi.

"Xorazm xabarlari" gazetasi "Adabiyot" bo'limida shoirning "Toshib daryoyi Amu har taraf suvlar ravon o'ldi" (8 baytli g'azal), "Ko'ngluma bir turfa so'z keldi ravon..." (28 misra, masnaviy), "Umid aylab ekib bularga turluk dona dehqonlar..." (14 misra, masnaviy), "Bo'lung ogoh, g'animatduri, bu davron, ey xaloyiqlar..." (14 misra, masnaviy), "Shod o'lunglar, ey xaloyiq, shodlig' ayyomidur..." (42 misra, musaddas), "Notavonlarni bugun shod o'lonig'a sevuning..."(40 misra, masnaviy), "Xurramlig' esib charxi

falak...” (30 misra, musaddas), “Musulmonlar bu va’zi dostondin g‘ofil o‘lmanglar...” (14 misra, masnaviy), “Kelib yaxshi azizlar, borchag‘a rohat rason o‘ldi...”, (14 misra, masnaviy) kabi bir qancha she’rlari e’lon qilingan.

Hozirgi kunda Mutrib Xonaxarobning devoni qo‘lyozmalariga kiritilmagan 15 tadan ortiq bayoz va majmualarga 654 misra, 52 ta g‘azal (4 tasi 9 baytli, boshqalari 7 baytli), 2 ta bayozi muxammasotlarga 48 bandlik 6 ta muxammas (7, 9, 11 bandli)lari ko‘chirilgan. Bundan tashqari, Laffasiy tazkirasida 18 misradan iborat (9 baytli 1 ta) g‘azali, toshbosma manbadagi 60 misralik 1 ta murabba’, bizga ma’lum bo‘lgan mahalliy nashrlarda esa, 212 misra (8 bayt 16 misra g‘azal, 2 ta musaddas 72 misra, 6 ta masnaviy 124 misra)dan iborat yangi she’rlari tadqiqot natijasida bir joyga to‘plandi. Mutrib Xonaxarobning devoni qo‘lyozmalarida uchramaydigan she’rlari jami hajmi 992 misrani tashkil etdi.

Bugungi kunda Mutrib hayoti va adabiy merosini o‘rganish, uning devonida uchramaydigan asarlarini bayozu tazkiralardan to‘plab, joriy alifboda nashr ettirish dolzarb ilmiy muammolardandir.

Savollar:

1. Mutrib Xonaxarob devoni qo‘lyozmalari qayerda saqlanadi?
2. Shoir devoni she’rlari janrlari haqida ma’lumot bering?
3. Mutrib she’rlari ko‘chirilgan bayoz va majmualarni bilasizmi?
4. Qo‘lyozma bayozlarda Mutrib she’rlaridan tashqari yana kimlarning she’rlari kiritilgan?
5. Ahmad Tabibiy tomonida qaysi majmualar tuzilgan?
6. “Xorazm xabarlari”da Mutribning qaysi she’rlari e’lon qilingan?
7. Mutrib Xonaxarobning qancha she’ri uning devoni qo‘lyozmalarida uchramaydi?

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. “Mutrib devoni qo‘lyozmasi ilmiy tavsifi” doirasida Avaz O‘tar devoni qo‘lyozmasining ilmiy tavsifini amalgalash.
2. Mutrib she’rlarini ko‘chirgan kotiblar hayoti va ijodiga doir ma’lumotlarni to‘plash.
4. “Qo‘lyozmalar tavsifi”ga oid nazariy manbalarni o‘rganish.

O‘qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мадиримова С. Мутриб Хонахароб асарлари қўлёзмаларининг илмий тавсифи. // Олтин битиг. –Тошкент, 2019. №3. – Б. 27-59.
2. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент, Фан. 1971. –Б. 120.
3. Madirimova S. Mutrib Xonaharobning baёzga кўчирилган газаллари ҳақида. Тафаккур зиёси. №3. –Б 156-159. 2020.
4. Madirimova S. Navoiy g’azaliga bog’langan muxammas tadqiqi. Alisher Navoiy va XXI asr mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. –Toshkent: “MASHHUR-PRESS”, 8-fevral. 2020. –Б. 487-489.
5. Madirimova S. Gazelles of Mutrib Khonaharob copied into Bayes manuscript. Conference of Management of Islamic Education Leadership in The Era of Revolution 4.0. Indoneziya. 04.04.2020. p. 1/4.
6. Навоий асарлари луғати (Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов). – Тошкент: Faafur Fулом номидаги адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 531.
7. Madirimova S. Text Edition Issue of Mutrib poems. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Impact Factor: SJIF = 7.13. MAY 2020. p. 1262-1274.
8. Мадиримова С. Мутриб Хонахароб ғазаллари. Мерос. 2020. №1. –Б. 174-188.
9. Фанихўжаев Ф. Табибий тузган икки мажмуа ҳақида. Адабий мерос. –Тошкент, 1971. №2. –Б. 211-219.
- 10.Маткаримова С. Табибий – тазкиранавис. Фил. фан. номз... дис. –Тошкент, 2007. –Б. 21-38.

MUTRIB DEVONINING TAYANCH MANBALARINI ANIQLASH

Reja:

1. Matnning muallif variantiga yaqinlik darajasi
2. She'rlar matnining nuqsonlardan xoliligi
3. Kitobat holati, paleografik belgilari

Tayanch so‘zlar: kitobat, matn, tayanch, mezon, manba, qo‘lyozma, alifbo, kotib, devon, g‘azal, qasida, muxammas, musaddas, hoshiya, sarlavha, vazn, bayt.

Lug‘atda devon – biror shoirning she’rlari radiflariga ko‘ra alifbo sirasi bilan tartib berilgan to‘plam tarzida izohlanadi. *Sharq mumtoz adabiyotida devonchilik an’ana sifatida milodiy IX-XI asrlarda shakllangan va XII asrga kelib bir qancha namunalari paydo bo‘lgan. Keyinchalik, XV asrga kelib, Alisher Navoiy 17 ta lirik janrni qamrab olgan mukammal bir devon tuzdi va o‘ziga xos prinsiplarini asoslab berdi. Devon va devonchilikni tom ma’noda qo‘lyozma manbalar asosida muayyan tartibda tadqiq qilish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir...* Shunga ko‘ra, XIX asrning II yarmida Xorazm adabiy muhitida tuzilgan Mutrib Xonaxarob devoni qo‘lyozmalari tahlilini amalga oshirish dolzarbdir.

Muhammad Hasan Mutrib devon qo‘lyozmalarining tayanch manbalarini aniqlashda quyidagi uch mezonga tayanildi:

1. *Matnning muallif variantiga yaqinlik darajasi*
2. *She’rlar matnining nuqsonlardan xoliligi*
3. *Kitobat holati, paleografik belgilari.*

1. Matnning muallif variantiga yaqinlik darajasi. Shoirning uchta devon qo‘lyozmalaridan (2679/II, 903/IV, 906/VII) eng ishonchli nusxani aniqlashda ularni xillash jarayoni amalga oshirildi. Shuni ta’kidlash joizki, uchta devon qo‘lyozmalari ham muallif yashagan davrda ko‘chirilgan.

906/VII raqamda saqlanayotgan qo‘lyozma *Mullo Boltaniyoz usto Qurban niyozi mulaqqabi bin Xarrot* tomonidan ko‘chirilgan. Ko‘chirilgan yil ko‘rsatilmagan. Mutrib Xonaxarobning she’rlari, negadir, 2679/II, 903/IV devon qo‘lyozmalaridagi lirik asarlarga nisbatan juda kam. Bu esa shoirning ilk yaratilgan she’rlari bo‘lgan

bo‘lishi mumkin, degan taxminni beradi. Ikkinchi qo‘lyozma devon esa *Rahimbergan o‘g‘li Mulla Karimbergan devon* tomonidan 1907-yili, ramazon oyining birinchi kunida ko‘chirilgan. Bu devondagi she’rlar hajmi ham 1908-yili *Mulla Abdulkarim devon* tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmadagiga nisbatan kam. Ushbu qo‘lyozmada she’rlarning qaysi manbalardan ko‘chirganligiga oid ma’lumot uchramaydi. Shu bilan birga devon qo‘lyozmalarini muallif tomonidan yoki nazorati ostida ko‘chirganligiga doir ham biror havola yo‘q. Shuni hisobiga kotib o‘zi yo‘l qo‘ygan saktaliklarning ba’zi o‘rinlarigagina tuzatish kiritgandir, ehtimol. Buni matnda uchraydigan quyidagi o‘zgarishdan anglab olish mumkin:

1. *Sarlavhalarning tuzatilishiga ko‘ra;*
2. *Matndagi so‘zlarning o‘zgartirilishiga ko‘ra;*
3. *Butun boshli she’rlar tahririga ko‘ra.*

903/IV (203^b) raqamli qo‘lyozma devon “basmala” bilan boshlanib, so‘ng, sarlavha yozilgan. Keyin, negadir, ushbu sarlavha o‘chirilib, ustidan “*Muhammad Hasan devoni mutaxallusi bil Mutrib Xonaxarob valadi Hoji Tabib*” – deb yozib qo‘yilgan. Bunday hol 906/VII (276^a, 278^a) raqamli qo‘lyozma devonda ham uchraydi. Masalan, “*G‘azali Mutrib Xonaxarob*” sarlavhasidagi “Xonaxarob” taxallusi tahrirga uchragan, ya’ni taxallus tuzatilgan. Ushbu qo‘lyozma devon xoshiyasiga ko‘chirilgan muxammas “*G‘azali Mutrib Xonaxarob*” tarzida sarlavhalangan bo‘lib, uning ustidan chizilgan va “*Muxammasi Mutrib Xonaxarob*”- tarzida tuzatilgan. Qo‘lyozmadagi ko‘plab she’rlar sarlavhalari mana shunday tahrirga uchragan.

Shuningdek, bunday tuzatishlar ko‘plab she’rlarning ayrim misralarida ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, kotib 903/IV (216^b) raqamli qo‘lyozma devonga “*Mani, ey nozanin, qil g‘amdin ozod*” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalning beshinchi bayt, to‘qqizinchi misrasi “*Ko‘zingning g‘amzasi har bir nafazda*” qilib ko‘chirilgan. Ushbu misrasidagi “*nafazda*” so‘zining ustidan chizib, ustiga “*nafasda*”- deb tuzatgan. Yana shunga o‘xhash bir tuzatish 903/IV (220^a) raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan “*Intizor*” radifli 9 baytli g‘azalda ham uchraydi. G‘azal maqta’sidagi “*Aylama Mutribg‘a oh, dilso‘zin bilib*” misrasidagi “...aylama Mutribg‘a” birikmasining ustidan chizilgan. O‘rniga “...g‘am aro bu

Mutribingni”, deb yozib qo‘yilgan. 906/VII (258^b) raqamli qo‘lyozma devonda esa “*Aylama Mutribg‘a oh, dilso‘zin bilib*” tarzida bexato ko‘chirilgan.

903/IV (222^b) raqamli qo‘lyozma devon hoshiyasiga “*Sarvinoz*” radifli g‘azalning faqat besh misrasi ko‘chirilgan. Hoshiyadagi mazkur matn “Mazkur g‘alat” tarzida o‘chirilib, 225^b sahifada to‘liq 7 bayt shaklida keltirilgan.

Muallifga yaqin bo‘lgan devon qo‘lyozmalaridan yana biri 2679/II raqamli qo‘lyozma devondir. Bu qo‘lyozma 1908-yilda *Mulla Abdulkarim devon* tomonidan ko‘chirilgan. Mazkur manbada ham devonni kimning farmoniga binoan yozilganligiga oid hech qanday qayd yo‘q. Ushbu qo‘lyozma devon matnida ham 903/IV, 906/VII raqamli devon qo‘lyozmalaridagi kabi matniy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi. Jumladan, bular she’r sarlavhalarining tuzatilishi, g‘azallardagi so‘zlar qayta tahrir qilingan o‘rinlarda ko‘rinadi (O‘sha devon. 111^b, 142^b, 246^a, 267^b, 179^b, 194^a, 231^b).

2679/II (95^b) raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan “*Tushdi hajringdin dili jon ichra o‘t*” misrasi bilan boshlanuvchi 6 baytli g‘azalning sakkizinchisidagi “ichra” so‘zi ikki marta ko‘chirilgan: “*Dardi ishqing ichra jismi vayron ichra o‘t*”. Natijada, vazn saktaligi yuzaga kelgan. Kotib ushbu misradagi “ichra” so‘zining bittasini ustidan chizib, “*Dardi ishqing jismi vayron ichra o‘t*” tarzida tuzatgan.

Yana bir misol: “*Fitnalar soldi jahong‘a muncha, ey barno, ko‘zing*”, misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning o‘n uchinchi misrasi “*Shakarafshonlig‘ qilib nogah qayon boqg‘on chog‘i*” kabi ko‘chirilgan. Kotib shu misraga ko‘chirilgan “qayon” so‘zidagi “*nun*” harfi ustidan chizib, “*Shakkarafshonlig‘ qilib nogah qiyo boqg‘on chog‘i*” kabi tuzatgan (2679/II inv. 145^b).

Shuni ta’kidlash kerakki, muallif nazorati ostida ko‘chirilgan devon qo‘lyozmalari bizgacha yetib kelmagan. Kotiblarning savodxonlik darajasidan kelib chiqib, bu kabi matnda yo‘l qo‘yilgan saktaliklarning ba’zi o‘rinlari barham topgan. Ammo uchta devon uchta kotib tomonidan ko‘chirilgani nazarda tutilsa, kotiblar devon tuzish an‘analariga to‘liq bir xilda rioya qilganmi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Shuni inobatga olib, 2679/II raqamli qo‘lyozma

devonning boshqa 906/VII hamda 903/IV manbalarga nisbatan mukamalligini quyidagi ikki jihatga ko‘ra tasnifladik:

1) *devon tuzish tartibiga amal qilinishi darajasi;*

2) *devonning tarkibiy tuzilishi;*

Devon tuzish tartibiga amal qilinishi darajasi. Ushbu uchta devon ham “Basmala”dan boshlanib, qizil siyohda “*Muhammad Hasan devoni mutaxallusi bil Mutrib Xonaxarob valadi Hoji Tabib*” sarlavhasi bilan boshlanadi. Mutrib devon qo‘lyozmalarining bir-biridan farq qiluvchi xato va kamchiliklari ham borligi aniqlandi. Bunga muallifning nazorati asosida ko‘chirilmaganligi, kotiblarning bee’tibor bo‘lganligi sabab bo‘lgan, nazarimizda.

1907-1908-yillarda ko‘chirilgan qo‘lyozma devonlardagi she’rlar an'anaga ko‘ra, avval Allohga hamdu sanolar bilan boshlanib, istig‘for va to‘g‘ri yo‘ldan adashmaslik uchun Allohdan panoh istash mavzusidagi “Paydo”, “Mango” hamda payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga aytilgan salovat mazmunidagi “Anbiyo” radifli g‘azallar bilan boshlangan. Biroq ko‘chirilgan yili ma’lum bo‘lmagan uchinchi devonda “Paydo”, “Mango”, “Anbiyo” radifli g‘azallar devonning asosiy matniga emas, hoshiyalariga ko‘chirilgan. Asosiy matnda esa “*Dedi: nedin xushholsan, guftam zi payg‘om shumo...*” misrasi bilan boshlanuvchi forsiy g‘azal(lar) ko‘chirilgan (906/VII. 248^b).

Qo‘lyozma devonlar mumtoz adabiyotda devon tuzish prinsiplariga (debocha tuzish tartibiga, janrlar to‘liqligiga) to‘liq rioya qilinishi lozim... Ammo Mutrib devon qo‘lyozmalarida debocha berilmagan, janrlar to‘liq emas. 2679/II raqamli qo‘lyozma devondagi g‘azallar 903/IV, 906/VII kabi devon qo‘lyozmalari she’rlari joylashuviga nisbatan alifbo tartibidagi harflar ketma-ketligiga amal qilingan.

Devonlarda g‘azallarning harflar bo‘yicha tuzilishi quyidagi jadvalda ko‘rsatildi:

Alifbo harflari	2679/II		903/IV		906/VII	
	turkiy	forsiy	turkiy	forsiy	turkiy	forsiy
‘	26	13	14	10	8	7
ب	8	7	11	5	12	2
پ	-	-	-	-	-	-

ت	10	30	9	16	8	13
ث	2	-	-	-	-	-
ج	-	1	-	-	-	-
ڙ	2	-	1	-	-	-
ح	-	-	-	-	-	-
خ	-	-	-	1	-	-
د	5	30	3	19	3	13
ذ	1	1	-	-	-	-
ر	76	12	40	2	25	-
ز	15	5	10	11	8	9
ڙ	-	-	-	-	-	-
س	6	3	3	-	1	-
ش	7	3	3	2	3	2
ص	-	-	-	-	-	-
ض	-	-	-	-	-	-
ط	-	-	-	-	-	-
ظ	-	-	-	-	-	-
ع	1	-	1	-	1	-
ف	1	8	-	6	-	6
ق	5	2	3	1	3	-
ک	4	2	1	2	1	-
گ	37	-	20	-	7	-
ل	14	9	10	9	1	9
م	45	58	20	33	4	22
ن	95	25	49	20	8	15
و	9	16	1	10	1	5
ه	41	15	28	12	6	2
ى	46	10	35	9	13	7
	456	250	262	168	113	112
	Жами: 706 та		Жами: 430 та		Жами: 225 та	

Mutrib Xonaxarob “پ”, “ح”, “ڙ”, “ص”, “ض”, “ط”, “ڦ” 7 ta harfga yozilgan g‘azallari devonning uchta qo‘lyozmasida ham uchramaydi. Ammo arab alifbosidagi boshqa harflarga she’rlar yozilgan.

2679/II raqamli qo‘lyozma devonga kiritilgan turkiy va forsiy she’rlar: “ا” 26/13 ta, “ب” 8/7 ta, “ت” 10/30 ta, “ج” 0/1 ta, “ڇ” 2/0 ta, “د” 5/31 ta, “ڏ” 1/1ta, “ر” 76/12 ta, “ڙ” 15/5 ta, “س” 6/3 ta, “ش” 7/3 ta, “ع” 1/0 ta, “ف” 1/8 ta, “ق” 5/2 ta, “ک” 4/2 ta, “گ” 37/0 ta, “ل” 14/9 ta, “م” 45/59 ta, “ن” 93/26 ta, “و” 9/16 ta, “ه” 41/16 ta, “ي” 44/10 ta yozilgan. Jami she’rlar soni 706 ta.

№903/IV raqamli qo‘lyozma devonga esa, “ا” 14/10 ta, “ب” 11/5 ta, “ت” 9/16 ta, “ث” 0/0, “ج” 0/0, “ڇ” 1/0 ta, “د” 3/19 ta, “ر” 40/2 ta, “ڙ” 10/11 ta, “س” 3/0 ta, “ش” 3/2 ta, “ع” 1/0 ta, “ف” 0/6 ta, “ق” 3/1 ta, “ک” 1/2 ta, “گ” 20/0 ta, “ل” 10/9 ta, “م” 20/33 ta, “ن” 49/20 ta, “و” 1/10 ta, “ه” 28/12 ta, “ي” 35/9 ta harfga yozilgan she’rlar kiritilgan. Jami: 430 ta.

906/VII raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan she’rlarning alifbo tartibi assosida “ا” 8/7 ta, “ب” 12/2 ta, “ت” 8/13ta, “ث” 0/0 ta, “ج” 0/0 ta, “ڇ” 0/0 ta, “د” 3/13 ta, “ر” 25/0 ta, “ڙ” 8/9 ta, “س” 1/0 ta, “ش” 3/2 ta, “ع” 1/0 ta, “ف” 0/6 ta, “ق” 3/0 ta, “ک” 1/0 ta, “گ” 7/0 ta, “ل” 1/9 ta, “م” 4/22 ta, “ن” 8/15 ta, “و” 1/5 ta, “ه” 6/2 ta, “ي” 13/7 ta harflarga yozilgan. Jami: 225 ta.

2679/II raqamli devon qo‘lyozmasiga ko‘chirilgan “ت”, “ج” 903/IV raqamli qo‘lyozmada uchramaydi. “ث”, “ڇ”, “ڻ” harflariga yozilgan forsiy va turkiy g‘azallar esa 906/VII raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilmagan.

Mutribning eng ko‘p “ن” (nun), keyin “م” (mim), “ه” (vov), “ي” (yo, i), “گ” (gof) ر (re) harflariga yozilgan g‘azallari 2679/II raqamli qo‘lyozmaga ko‘chirilganligini hamda boshqa harflarga yozilgan she’rlari ham qolgan ikkita devonda nisbatan ko‘proq.

903/IV, 906/VII raqamli qo‘lyozmalar kichik devonlar bo‘lib, ularga ko‘chirilgan she’rlar hajmi juda kam.

Masalan, 1907-yilda ko‘chirilgan devonning 172 sahifasiga (hoshiyalaridagi she’rlar bilan) 447 ta she’r ko‘chirilgan. Shulardan 430 tasi g‘azal, 14 tasi muxammas, 2 tasi musaddas va 1 tasi qasida.

906/VII raqamli qo‘lyozma devonning 62 sahifasiga (hoshiyalaridagi bilan birga) 237 ta she’rlar ko‘chirilgan. Shundan 225 tasi g‘azal, 6 tasi muxammas, 5 tasi musaddas va 1 tasi qasida.

1908-yilda ko‘chirilgan devondagi she’rlar (hoshiyalaridagi bilan birga) 729 ta. Shundan 706 tasi g‘azal, 16 tasi muxammas, 5 tasi musaddas va 2 tasi qasida. Qo‘lyozma 302-sahifadan iborat.

Devondagi she’rlar farqi sahifasidan ham ma’lum. Masalan, 1907-yilda ko‘chirilgan devondagi she’rlar 1908-yilda ko‘chirilgan devondagi she’rlar sahifasiga qaraganda 130 taga, uchinchi devon sahifasi esa 240 taga kam.

1907-yilda *Rahimbergan o‘g‘li Mulla Karimbergan* devon hamda (ko‘chirilgan yili yozilmagan) *Mullo Bolta Niyoz ustο Qurban niyoζ mulaqqabi ba Xarrot* tomonidan ko‘chirilgan devon tarkibiga kiritilgan she’rlar 1908-yil *Mulla Abdulkarim* devon tomonidan ko‘chirilgan she’rlarga qaraganda ikki, uch barovar kam. Uchta devon qo‘lyozmasiga ham g‘azal, muxammas, musaddas, qasida janrlaridan tarkib topgan she’rlar kiritilgan bo‘lsa ham, miqdor jihatidan 1908-yilda ko‘chirilgan qo‘lyozma devondagi she’rlardan ancha farq qiladi.

Masalan, 903/IV raqamli qo‘lyozma devonga kiritilgan g‘azallar soni 2679/II raqamli qo‘lyozma devonga kiritilgan g‘azallardan 276 taga, musaddaslar 3 taga, qasida esa 1 taga kamligi bilan farq qiladi. 906/VII raqamli qo‘lyozma devonga kiritilgan g‘azallar soni esa 239 taga kam bo‘lib, muxammaslar 7 taga, musaddaslar 5 taga, qasidalar soni esa 1 taga kamligi aniqlandi.

903/IV, 906/VII raqamli devon qo‘lyozmalariga kiritilmagan bir qancha g‘azallar mavjud. Bu g‘azallar mazmun jihatidan har tomonlama yuksak badiiy asarlar hisoblanadi. Ushbu devon qo‘lyozmalarida uchramaydigan g‘azal(qofiyasi va birinchi misrasi), muxammas, musaddas, qasidalarning birinchi misrasini quyidagi jadvalda berib o‘tdik (Ilova. 164-bet).

Devonning tarkibiy tuzilishi. 903/IV, 906/VII raqamli devon qo‘lyozmlari tarkibiga kiritilgan she’rlar 2679/II qo‘lyozma devonga nisbatan ko‘p o‘rinlarda alifbo tartibida joylashtirilmagan. Masalan, 906/VII raqamli qo‘lyozma devonda “ئ” harfiga yozilgan g‘azallar orasida “ئ” harfi bilan tugaydigan g‘azal ko‘chirilgan. Masalan, “*O‘z ilki birla tutdi bu kecha yor sharbat* (O‘sha devon, 253^b)” misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azaldan keyin “*Bazmimni ravshan ayladi bu kecha jononim kelib* (O‘sha devon, 254^a)”, deb boshlanuvchi 7 baytli g‘azal yozilgan (2679/II raqamli

qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan she’rlarning alifbo tartibiga doir to‘liq tahlillar dissertatsiya 3-bobi 2-faslida beriladi).

Ushbu devon hoshiyalariga ko‘chirilgan g‘azallarning alifbo tartibi buzilishiga ko‘ra ham bunday holatni kuzatish mumkin. Masalan, “ش” (shin) harfi bilan tugaydigan “*Maktub ila, ey dil, sani bu kecha jonon istamish* (O‘sha devon. 268^b)” misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azal “م” (mim) harfi bilan tugaydigan “*Bir ko‘rgali mehr ruxin subhi maso zor o‘lmisham* (O‘sha devon. 269^a)” bilan boshlanuvchi turkiy hamda bir qancha forsiy g‘azallar orasiga ko‘chirilgan.

903/IV raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan “*Ko‘rgach yuzingni ketdi ilkimdin ixtiyorim*” misrasi bilan boshlanuvchi muxammasning 3 bandi 267^b sahifada, qolgan 6 bandi esa 272^a sahifaga o‘tkazib ko‘chirilgan. Oradagi to‘rtta sahifaga esa Navoiy g‘azaliga bog‘langan 7 bandli “*Guliston ichra, dildorim, bo‘lubman zor ila hamdam* (O‘sha devon. 268^a)”, Ravnaq g‘azaliga bog‘langan 9 bandli “*G‘ami hajringda mani yetdi chiqarg‘a jonio* (O‘sha devon. 268^b)”, Munis g‘azaliga bog‘langan 9 bandli “*Mani bu rang zardim dardi hajringni malolidur* (O‘sha devon. 270^b)” misralari bilan boshlanuvchi uchta muxammas hamda “*Jono mani lahza shodmon et* (O‘sha devon. 269^a)”, “*Falakg‘a chirmashur jono g‘amingdin ohi afg‘onim* (O‘sha devon. 270^a)” misralari bilan boshlanuvchi 7 bandli 2 ta musaddas ko‘chirilgan. Sahhoflar tomonidan ushbu to‘rtta sahifa tartibsiz holda joylashtirilgan. Natijada she’rlar uzuq-yuluq holga kelib qolgan.

Oraliqdagi to‘rtta sahifada keltirilgan janrlar ketma-ketligi ham buzilgan. Masalan, yuqorida keltirilgan “*Falakg‘a chirmashur jono...*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 bandli musaddasdan keyin Munis g‘azaliga bog‘langan 9 bandli “*Mani bu rang zardim...*” misrasi bilan boshlanuvchi muxammasning o‘rni almashib, avval musaddas keyin muxammas ko‘chirilgan.

2. *She’rlar matnining nuqsonlardan xoliligi.* 2679/II raqamli qo‘lyozma devondagi “*Tushgach ko‘zum mehr ruhin yuz noz ila pinhon etar*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azal 903/IV (224^a) raqamli qo‘lyozma devonga 13 misra etib ko‘chirilgan. G‘azalning birinchi misrasidan keyin keluvchi “*Tiyg‘i itobidin hazin ko‘nglumni har dam qon etar*” misrasi tushib qolgan. Ammo 906/VII (261^a)

raqamli qo‘lyozma devonda bu baytning ikkinchi misrasi tahrir etilgan:

*Tushgach ko ‘zum mehr ruxin yuz noz ila pinhon etar,
Tashvishi hijroni chashmimni tun-kun qon etar.*

Kotib g‘azalni ko‘chirayotib, aynan ushbu baytni unutgan, keyin g‘azal mazmunidan, ya’ni matn kontekstidan kelib chiqib to‘ldirgan. Baytning ikkinchi misrasi birinchi satrga na mazmun va na shakl jihatdan mos keladi.

906/VII raqamli devon bo‘yicha ushbu bayt mazmuni: *Ko ‘zim tushganda, quyosh (ya’ni yor) yuzini mendan yashiradi. Yor hajrining tashvishi, kecha-kunduz ko ‘zimni qon qiladi (ya’ni ko ‘zlarimdan qon rangidagi yoshlarni oqizadi).*

Ushbu g‘azalning 2679/II raqamli qo‘lyozma devonda berilgan bayt mazmuniga ahamiyat bersak: *Ko ‘zim tushganda, quyosh (ya’ni yor) yuzini mendan yashiradi. Qahr tig‘i bilan g‘amga botgan ko ‘nglimni har lahzada qon qiladi.* Tabiiyki, kotib to‘ldirgan satrdan ko‘ra muallif matnidagi misra badiiy jihatdan mukammal chiqqan. “Tiyg‘i itob” istiorasi, “hazin ko‘nglum” birikmasidagi sifatlovchisifatlanmish munosabati, istiora bilan “qon etar” tashbehi o‘rtasidagi mukammal poetik mantiq buni tasdiqlaydi.

2679/II (122^a) raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan “Ey gul’uzor, ey gul’uzor” radifli 7 baytli g‘azalning maqta’ qismida “Ko‘k uzra” so‘zi uchraydi. Bu so‘z 903/IV (221^b) raqamli qo‘lyozma devonga “Har uzra” kabi o‘zgarishga uchragan. G‘azal matni quyidagicha:

*Ko ‘k uzra afg‘onim chiqar shavq otashig‘a o ‘rtanib,
Mutrib kabi bag‘rim kabob, ey gul’uzor, ey gul’uzor.*

(Ayriliq otashida o‘rtanib, osmon-u falakka nolayu faryodim chiqar bo‘ldi. (Nido bilan) Ey gulyuzli nigorim, (sendan ayro) meni bag‘rim Mutribniki kabi kabob bo‘ldi).

Oshiq ayriliq azobidan o‘rtanib, nolayu faryodi osmon-u falakka chiqqanini, (nido bilan) gulyuzli nigor (oshiqni yonida) bo‘lmaniga Mutrib kabi bag‘ri kabob bo‘lgani mazmuni anglashiladi. Anglashiladiki, “har uzra” birikmasi ushbu bayt mazmuniga tushmaydi.

2679/II(122^a) raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan “Aylar” radifli g‘azalning maqta’ qismida “zor” so‘zi uchraydi. Bu so‘z 903/IV (221^b) raqamli qo‘lyozma devonga “aro” bo‘lib ko‘chirilgan:

*Ne erkan yozuqim tun-kun mani yor intizor aylar,
Guliston jamolig‘a hazin ko‘nglumni zor aylar.*

*Guliston jamolig‘a hazin ko‘nglumni **aro** aylar.*

G‘azal baytlaridagi “Intizor”, “Zor” so‘zlari bir-biriga qofiyadosh bo‘lib, keyingi berilgan baytdagi “aro” so‘zining berilishi evaziga g‘azalning qofiyasi buzilgan.

2679/II(131^a) raqamli qo‘lyozma devonga *rajazi musammani solim* vaznida yozilgan “Avval sango mandin salom, ey sarvinoz, ey sarvinoz” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azal ko‘chirilgan. G‘azalning oltinchi misrasida “hayronman” so‘zi uchraydi. Bu so‘z 903/IV (225^b) raqamli qo‘lyozma devonga “hayronim” bo‘lib o‘zgargan:

*Ashk o‘rnig‘a qonlar to‘kub, subhi maso g‘am dashtida,
Majnuni **hayronim** mudom, ey sarvinoz, ey sarvinoz (903/IV-inv.).*

Majnuni hayronman mudom, ey sarvinoz, ey sarvinoz (2679/II-inv.).

Bu baytdagi “hayronim”, “hayronman” so‘zlari vaznga ta’sir etmagan. Ammo “-im” qo‘shimchasi evaziga g‘azal mazmunida mantiq buzilishi yuzaga keladi. Mazmundan anglashilgan ma’no: oshiq har doim Majnundek hayron bo‘lgani, tongdan oqshomgacha (uning) ko‘z yoshi o‘rniga qonlar to‘kilayotgani mazmuni anglashiladi.

Birinchi berilgan bayt mazmunida: oshiq yorining har doim Majnundek hayron bo‘lgani, tongdan oqshomgacha (uning) ko‘z yoshi o‘rniga qonlar to‘kilayotgani mazmuni anglashiladi.

Ushbu g‘azalning maqta’ qismida “lahza kom” so‘zi uchraydi. Biroq bu so‘z 2679/II raqamli qo‘lyozma devonga “bo‘sa” bo‘lib ko‘chirilgan:

*Tun-kun firoqing ranjidin Mutrib kabi bemor o‘lub,
Topmon labingdin lahza kom, ey sarvinoz, ey sarvinoz (903/IV-inv.).*

Topbon labingdin bo ‘sa, ey sarvinoz, ey sarvinoz (2679-inv.).

Misrada “bo‘sa” so‘zining ko‘chirilishi g‘azal vaznining saktaligini yuzaga keltirgan.

2679/II(120^a), 906/VII (271^b) raqamli devon qo‘lyozmalariga ko‘chirilgan “Matlab nedur” radifli g‘azalning oltinchi misrasidagi “shavqidinkim” so‘zi 903/IV (221^b) raqamli qo‘lyozma devonga kotib e’tiborsizligi sababli “shavqida kam” tarzida berilgan:

Guldek uzoring shavqida kam nolishimdin xalq oro,

Guldek uzoring shavqidinkim nolishimdin xalq oro,

Tokay mani bee’tibor oylab sango matlab nedur.

2679/II (148^a) raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan “Qon yutarmen gul yuzing shavqida jonon rahm qil” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning yettinchi misrasida “dardi ishqingdin” birikmasi uchraydi. Bu birikma 903/IV (233^b) raqamli qo‘lyozma devonga “dardi ishqing dodin” tarzida xato ko‘chirilgan. G‘azal bayti quyidagicha:

Tashnalabman dardi ishqing dodin balo sahosida,

Tashnalabman dardi ishqingdin balo sahosida,

Qatrai la’ling mayidin aylab ehson rahm qil.

“Dardi ishqing dodin” birikmasida “دا” (do) ortirilishi evaziga bu hol yuzaga kelgan.

2679/II raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan “Olib yuzdin niqob, ey navgul, Bog‘i Eram kelgil...”misrasi bilan boshlanuvchi muxammasing uchinchi bandida “rang g‘am” birikmasi uchraydi. Bu so‘z 903/IV raqamli qo‘lyozma devonga “dardi g‘am” tarzida ko‘chirilgan. Masalan,

Ne xushdur bodayi vasl ila mast aylarga ahbobin,

Solib bo‘ynig‘a gohi jilva birla zulfi qullobin,

Ochib ming noz ila mahv etgali ruxsori mahtobin,

Muhayyo aylabon gulshanda ayshi ishrat asbobin,

Ko‘ngul ko‘zgusidin zojil qilurg‘a dardi g‘am kelgil (903/IV inv. 265^a).

Ko‘ngul ko‘zgusidin zojil qilurg‘a rang g‘am kelgil (2679/II inv. 226^b).

“Rang g‘am” o‘rnida kelgan “dardi g‘am” birikmasining qo‘llanishi to‘g‘ridek tuyulishi mumkin, ammo bitta bo‘g‘inning oshishi vaznga ta‘sir etgan. “Rang g‘am”ga kelsak, ushbu birikma g‘amning har xil tuslanishi ma’nosida qo‘llanilgan. Vaznga tushgan.

Har bir devon qo‘lyozmalarida bir-biridan farq qiluvchi xato va kamchiliklar uchraydi. Bu kabi kamchiliklarni qayd qilish jarayoni devon qo‘lyozmasining to‘liq variantini tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga qo‘lyozma devonning nisbatan to‘liq varianti sifatida ko‘rilayotgan 2679/II raqamli qo‘lyozma devon matnida ham bir qancha xatolar ko‘zga tashlanadi. Tayanch manbaga nisbatan tanqidiy yondashmoq lozimligi haqida P.Shamsievning quyidagi fikrlari asoslidir: “*Tayanch nusxa sifatida asosga olingan A nusxa, shoirning avtografiga eng yaqin va eng ishonchli qo‘lyozma deb aniqlanishiga qaramasdan, boshdan oxirigacha tanqidiy nazar bilan kuzatib borilishi kerak...*”. Shuni inobatga olgan holda 2679/II raqamli devon qo‘lyozma matnidagi farqlarni quyidagilarda ko‘rish mumkin. Jumladan, 906/VII (260^{a/b}) raqamli devon qo‘lyozmasiga “*Yuz ochib xurshid yanglig‘ bazmima keldi nigor*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azal ko‘chirilgan. Bu g‘azalning oltinchi baytida “*hijroninga*” so‘zi uchraydi. Bu so‘z 2679/II (124^b), 903/IV (223^a) raqamli devon qo‘lyozmalariga “*ruxsoringa*” bo‘lib ko‘chirilgan. G‘azal bayti quyidagicha:

Mubtalo aylab tunu kun otashi hijroninga,

*Mubtalo aylab tunu kun otashi ruxsoringa,
Ko‘zgudek chehrang tamoshosig‘a qilding intizor (2679/II,
903/IV-inv).*

Birinchi bayt mazmunida oshiq ma’shuqning ko‘zgudek chehrasini ko‘rish tomoshosiga (uni) intizor qilganligi (sababli) oshiq ma’shuqni (hajrida) ayriliq azobiga tunu kun giriftor, duchor (mubtalo) bo‘lgani, mazmuni anglashiladi.

Ikkinci bayt mazmunida esa oshiq ma’shuqning ko‘zgudek chehrasini ko‘rish tomoshosiga (uni) intizor qilganligi (sababli) oshiq ma’shuqning o‘tli, olovli ruxsoriga tunu kun giriftor, duchor (mubtalo) bo‘lgani, mazmuni tushuniladi. E’tibor bergen bo‘lsangiz ikkinchi berilgan bayt mazmunida “ruxsor” hamda “mubtalo” bir-birini to‘ldirmagan. Yana bir jihatni esa “ruxsor” hamda “chehra”

so‘zлari takror bir ma’noni ifodalagan. Shundandir ehtimol, oshiqning ma’shuq hajrida o‘rtanganidan achchiq iztiroblari tasviri ifodalanmay qolgan.

Bu so‘zлar bayt vazniga daxl qilmasa-da, ma’no jihatidan birinchi baytdagi “hijron” so‘zi g‘azal mazmunini yoritishga xizmat qiladi. Bu so‘z arab tilidan olingan bo‘lib, ayriliq, firoq degani. “Ruxsor” so‘zi esa fors tilidan olingan bo‘lib, yuz, chehra degan ma’nolarni anglatadi.

906/VII (262^a) raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan “*Bilmon, ne bo‘ldi, kelmadi oromijonimdin xabar, Joni tanimning quvvati ruhi ravonimdin xabar*” misralari bilan boshlanuvchi g‘azalning to‘rtinchi misrasi 2679/II (129^b), 903/IV (225^{a/b}) raqamli devon qo‘lyozmalariga quyidagicha ko‘chirilgan:

*Qo‘ymaslar o‘z holim bila yig‘lar esam shoyad mango,
Kelmanay-mu, deb bir kun u shul ruxi ravonimdin xabar.*

906/VII (262^a) raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan variant quyidagicha:

*Qo‘ymaslar o‘z holim bila yig‘lar esam shoyad mango,
Kelgay-mu, deb bir kun u shul abro ‘kamonimdin xabar.*

“Shoyad” so‘ziga ahamiyat berishimiz kerak. Chunki, bu so‘z koshki, zora, yor kelishi ehtimoli bor bo‘lgan o‘ringa to‘g‘ri keladi. Ya’ni: oshiq (yor) iztiroblariga chiday olmay yig‘laganida (xalq oshiqni umidvor qilib) bir kun qoshi kamonidin xabar kelishi mumkin ekanligi anglashiladi.

Birinchi baytda esa oshiq (yor) iztiroblariga chiday olmay yig‘laganida (xalq oshiqni umidvor qilib) bir kun ruxi ravonidin xabar kelmasligi mumkinligi mazmuni anglashiladi. Bundan ko‘rinadiki, ikkinchi berilgan bayt mazmunan mutanosib.

2679/II, 903/IV, 906/VII raqamli qo‘lyozma devonda “*Istadim*” radifli g‘azalning birinchi va ikkinchi misralarida ham ayrim tafovutlar mavjud. Jumladan, 2679/II (263^b) raqamli devon qo‘lyozmasida:

*Kel, uzoringni ochib, ey mohi tobon istadim,
Jon vahmi tushgali vaslingni darmon istadim.*

903/IV (238^b) raqamli devon qo‘lyozmasida:

*Kel, uzoringni ochib, ey mohi tobon, istadim,
Jon vahmi tushgan jismima vaslingni darmon istadim.*

906/VII (269^a) raqamli devon qo‘lyozmasida:

*Kel, gul’uzoringni ochib, ey mohi tobon, istadim,
Jon vahmi tushgan jismima vaslingni darmon istadim.*

906/VII raqamli devon qo‘lyozmasidagi g‘azal vazni, mazmuni mantiqan to‘liqligi bilan farq qilsa, birinchi(2679-inv.) va ikkinchi (903-inv.) berilgan g‘azal baytlari vazn jihatidan ham, mazmun jihatidan ham mos tushmaydi.

906/VII (265^a) raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan “*Ey sho‘x, lol etti mani, ikki durafshon lablaring*” misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azalning oltinchi baytida “*davron*” so‘zi uchraydi. Bu so‘z ham 903/IV (232^a), 2679/II (143^a) raqamli devon qo‘lyozmalaridan tushib qolgan:

*G‘amzang o‘qidin, ey pari, qolsa tanim bejon bo‘lub,
Bersa tong ermas toza jon iysoyi davron lablaring.*

Ushbu g‘azalning maqta’ qismida esa “*Mutrib*” ismi tushib qolgan.

*Bazming tamannosi uchun arz etsa Mutrib holini,
Qilma ibo ilking tutub aylarga pinhon lablaring.*

2679/II, 903/IV raqamli devon qo‘lyozmalariga ko‘chirilgan “*G‘ami hajringda, jono, ko‘zlarimni mardumi qondur*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning beshinchi baytida ham farqlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, quyidagi baytlarga e’tibor qaratsak:

*Ko‘zing ostida mushkin xolingga **bir** dam nigoh qilsam,
Xadang girflaringdin necha ofatlar namoyondur* (2679/II inv. 119^{a/b}).

*Ko‘zing ostida mushkin xolingga **har** dam nigoh qilsam,
Xadang kirpiklaridin necha ofatlar namoyondur* (903/IV inv. 220^b).

Birinchi berilgan baytdagi “*girflaringdin*” so‘zi aslida “*girfiklaringdin*” bo‘lgan. Kotib bu so‘zni xato ko‘chirgan. Bu hol g‘azal misralarining vaznlardagi tafovutlarini yuzaga keltiribgina qolmay, g‘azal mazmuniga ham ta’sir o‘tkazgan. “Har” so‘zining “bir” shaklida berilishini ham shu hol bilan izohlash mumkin.

903/IV (225^b) raqamli devon qo‘lyozmasiga ko‘chirilgan “*Tushgach ko‘zum bo‘lding nihon, ey sarvinoz, ey sarvinoz*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azal 2679/II (130^b) raqamli devon

qo‘lyozmasiga 6 bayt qilib ko‘chirilgan. Tushib qolgan bayt quyidagicha:

Gulgun uzoring shavqida sabrimni barbod aylabon,

Tun-kun ishim ohu fig‘on, ey sarvinoz, ey sarvinoz.

906/VII raqamli qo‘lyozma devonga bu g‘azal ko‘chirilmagan.

903/IV (234^b) raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan “*Noz ila gulshan sari bo ‘lg ‘ach xiromon ul o ‘g ‘ul*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning yettinchi misrasida “*ko ‘rgach*” so‘zi uchraydi. Bu so‘z 2679/II (151^b) raqamli qo‘lyozma devonga “*ko ‘rdim*” shaklida ko‘chirilgan. G‘azal bayti quyidagicha:

*Chehrayi zardimni **ko‘rdim** tark etib ozorini* (2679/II-inv.)

Chehrayi zardimni ko‘rgach tark etib ozorini,

Lutf ila qildi hazin ko ‘nglumni xandon ul o ‘g ‘ul (903/IV-inv.).

Ikkinchchi baytda ma’shuq oshiqning yuzi sarg‘ayganini ko‘rgach ozorini tark etib, muloyimlik, rahmdillik bilan (oshiqning) g‘amgin ko‘nglini xursand qilgani mazmuni anglashiladi. Agar baytni “*ko‘rdim*” so‘zi bilan tahlilga tortsak mazmun buziladi.

903/IV (244^a) raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan “*Kulbam sari qo ‘yg ‘il qadam, ey siyntan, ey siyntan*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning sakkizinchchi misrasida “aylab karam” birikmasi uchraydi. Bu birikma 2679/II (175^a) raqamli qo‘lyozma devonga “obi karam” tarzida xato ko‘chirilgan:

Ozod etarga bu kecha hijron balosidin mani,

*Qilg ‘il xirom **obi** karam, ey siyntan, ey siyntan.*

Qilg ‘il xirom aylab karam, ey siyntan, ey siyntan.

“Ob” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, “suv” degan ma’noni anglatadi. “Aylab” so‘zi fe’lning ravishdosh formasi. Bu so‘z g‘azal mazmunini to‘ldiradi. Oshiq (yoriga) bu kecha ayriliq balosidan uni ozod etib, chiroyli yurishi bilan (xirom aylab) marhamat qilishini (ey) nido qilayotgani ma’nosi anglashiladi.

903/IV (258^{a/b}), 906/VII (275^b) raqamli devon qo‘lyozmalariga ko‘chirilgan “*Jono yuzing man zoridin har lahza pinhon aylama*” misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azalning to‘rtinchi baytida “hayron” so‘zi uchraydi. Bu so‘z 2679/II (204^a) raqamli qo‘lyozma

devonga “izhor” bo‘lib ko‘chirilgan. Shuni hisobiga qofiya buzilgan. To‘g‘ri variant quyidagicha:

Shirin tilingdin istasam bo ‘yi vafoning mujdasin,

Bir nukta izhor etmayin noz ila hayron aylama.

Ko‘ringanidek, 903/IV, 906/VII raqamli devon qo‘lyozmalaridagi kabi 2679/II raqamli qo‘lyozma devonga ko‘chirilgan she’rlar matnida ham tafovutlar borligi kuzatildi. Bu holni kotib e’tiborsizligi bilan bog‘liq deyish mumkin. Bundan tashqari, 903/IV, 906/VII raqamli devon qo‘lyozmalarida uchramaydigan she’rlarning matnida ham saktalik bor. Bunday xatolarni shoir yashagan davrda ko‘chirilgan bayoz, majmua, tazkiralardagi variantlar asosida ularning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish maqsadga muvofiq. Bu haqida tadqiqot ishimizning keyingi boblarida batafsil ma’lumot beriladi.

3. Kitobat holati, paleografik belgilari. Kitobat tarixini o‘rganishda asl (orginal), dastlabki muqovalar qadrlidir. Kitobning asl muqovalari, odatda, qalin charm, yog‘och yoki kartondan ishlangan. Ba’zi muqovalar kartondan ishlanib, ustiga charm qoplangan bo‘ladi.

Devonning har uchala qo‘lyozmasi qalin charm bilan muqovalangan. 903/IV 906/VII raqamli qo‘lyozmalar muqovasi qizil, 2679/II raqamli qo‘lyozma muqovasi esa jigarrang charmdan qilingan. Keyinchalik qayta ta’mirlanishi jarayonida ushbu manba muqovasidagi jigarrang charm ustidan qalin oq mato yelimlangan.

Qo‘lyozma muqovasi mosh rangda. Naqsh uslubi rombik shaklida bo‘lib, o‘rtasiga hamda ust-ostiga gulli naqshlar bilan bezatilgan uchta unvon tushirilgan. Unvon tilla rangda bo‘lib, ichiga “Amali Muhammad Sahhof-1326” deb sahhofning ismi-sharifi hamda unvon tushirilgan yil yozib qo‘yilgan. Muqovalarning chetiga mayda barg shaklida naqsh ishlangan.

Ushbu muqovalarning ichki tomonida hech qanday naqshlar, miniatyuralar ishlanmagan.

Devon qo‘lyozmalarini rus fabrika qog‘oziga ko‘chirilgan. 2679/II, 903/IV, 906/VII raqamli devon qo‘lyozmalarining qog‘ozi novvotrang, silliq sifatli qog‘oz. Har uch qo‘lyozmaning ba’zi sahifalari sifat jihatdan talabga javob bermaydi. Buni poygir bilan ko‘chirilgan sahifalarning davomi boshqa o‘ringa o‘tib qolgani,

qo‘lyozmaning ayrim sahifalari sariq, oq rangli dag‘al, sifatsiz qog‘ozdan ekani ham buni tasdiqlaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, qo‘lyozma sahifalariga ham poygir, ham arab raqamlari orqali raqamlash urf bo‘lgan. Ushbu devon qo‘lyozmalari sahifalarida ham bu hol kuzatiladi. Devonning har uch qo‘lyozmasining ham hoshiyalari keng, bichimi bir xil. 2679/II raqamli qo‘lyozma devon sahifalarida poygir berilgan. Biroq sahifalarning yo‘qolishi hisobiga keyinchalik kotiblar yoki tartib beruvchi sahhoflar tomonidan yozilgan devon sahifalari orasiga muallifning avval yozilgan she’rlaridan iborat poygirsiz sahifalar tikilgan. Bunday holatni 903/IV 906/VII raqamli devon qo‘lyozmalarining sahifalarida ko‘proq uchratish mumkin.

2679/II raqamli qo‘lyozmaning 129, 130, 131, 132, 177-sahifalariga bodomsimon muhr bosilgan. Muhr quyidagi sahifalarning ichki yuqori va past burchagiga urilgan bo‘lib, unda Rossiya gerbidagi 2 boshli burgut nishoni bor. 129, 130, 131, 177-sahifalariga bosilgan muhrda “Govarda”, 132^b sahifasida esa “Jevesro fabrika №5” deb yozib qo‘yilgan. Devonning 903/IV, 906/VII raqamli qo‘lyozmalarida boshqa shoirlarning she’rlari yozilgan sahifalar ham uchraydi va ularga ham ushbu muhr urilgan. Ammo Mutrib she’rlari ko‘chirilgan sahifalarda bunday muhr uchramaydi.

Xat uslubiga ko‘ra – har bir kotib o‘zining husnixatiga ega. Shu bilan birga Mutrib Xonaxarobning devonlarini ko‘chirgan kotiblar ham o‘zining naqshinkor bezaklari bilan ushbu devonlarni ko‘chirishgan. Ammo devonni ko‘chirgan kotiblar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ham yo‘q emas. Devon qo‘lyozmalarining har uchalasi nasta’liq xatida ko‘chirilgan bo‘lsa-da, ular matni orasida farq ko‘zga tashlanadi. Masalan, *Mullo Boltaniyozi bin ustoz Qurban niyozi* tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozma matnidagi harflarni shakli biroz tushunarsiz. “Ҷ” (yo) harfinining oxirida kelishini “ҵ” (alif) harfinining biroz qiya holatdagi ko‘rinishiga hamda gap ichida so‘zlarning ustiga “yo” harfinining tezkari holatida ko‘chirilgan shakllari ko‘p. Masalan, “Jon yetti labg‘a dardi g‘amingdin, ey gulbadan, qil lutfi inoyat...” misralari bilan boshlanuvchi g‘azalning 2-baytida:

چрх اوэрхе چقد(ى) آه فغانим کоиниг غмедиа اورтанд(ى) / جаниم⁶

(Charx uzra chiqdi ohi fig‘onim, ko‘ying g‘amida o‘rtandi jonim (906/VII inv. 254^a).

“ى” “yo” harfining alif harfidan qiya holatda berilishi, alif harfining so‘z o‘rtasida kelishida esa matnning ustiga yoki tag qismiga qisqa “ـ” shaklda berilishi, ba’zi o‘rinlarda “ك” kof harfining ustki qismi berilmasdan ko‘chirilishi holatlari ko‘zga tashlanadi. Bu holatda kotib uslubini tushunmagan o‘quvchiga biroz qiyinchilik tug‘diradi. Husnixati ham ikki xil shaklda beriladi. Hoshiyalarida ko‘chirilgan g‘azallarga qaraganda devonning assosiy matniga ko‘chirilgan g‘azallar matni chiroyli husnixatda ko‘chirilgan. Asosiy matnga ko‘chirilgan g‘azallar husnixati o‘ng tomonga qiya, ya’ni egilgan shaklda, g‘azal so‘zlari esa zich holatda ko‘chirilgan.

Rahimbergan o‘g‘li Mulla Karimbergan devon tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozma devon husnixati mayda nasta’liq xatida bo‘lib, harflarning shakli nisbatan yaxshi saqlangan. Ushbu qo‘lyozma matnidagi harflar shakllarida ham yuqoridagi jihatlar ko‘zga tashlanadi. Masalan, “kof”, “yo” harflarining berilishi kabi holatlar uchraydi. Bunga sabab kotib she’rlarni ko‘chirishda sahifa matnini juda zich joylashtirishi orqali yuzaga keladi. Shundan bo‘lsa kerak, harflar qisqa shakllarda ifodalangan.

Kotibi *Mulla Adbulkarim ibn Muhammad Rahim marhumiy ibn Pahlavon Niyoz Mirzoboshi marhumiy* bo‘lgan qo‘lyozma chiroyli nasta’liq xatida ko‘chirilgan. Ammo qo‘lyozma devonning 202^{a/b}, 203^{a/b} sahifalaridagi she’rlar matnida uchraydigan “yo” harfi “alif” harfining qiya shaklida berilishiga o‘xshaydi hamda xuddi shu sahifadagi she’rlarning matni zich joylashtirilishi ko‘zga tashlanadi. Bunga matnlarni sahifalash jarayonida ushbu devon sahifalari yo‘qolishi, yo‘qolgan devon sahifasini to‘ldirish uchun keyinchalik ko‘chirilgan boshqa sahifalar tikilishi sabab bo‘lgan. Devonni ko‘chirgan kotibning o‘ziga xos uslubi bo‘lib, bu uning س “Sin” harfini o‘ziga xos uslubda, ya’ni harfning pastki qismiga belgi qo‘yishida ko‘rinadi.

⁶O‘z R FA ShI. Asosiy fond. 906/VII inv. qo‘lyozma. Devon, 254^a-bet.

Shoir devonining 2679/II raqamli qo‘lyozmasi *xat uslubi*, matn mukammalligi, janrlar tarkibi hamda qo‘lyozmada uchraydigan farqlarni inobatga olgan holda 903/IV, 906/VII raqamli nusxalariga nisbatan mukammal. Shunga ko‘ra, bu qo‘lyozma devon tuzish tartibiga qat’iy amal qilingani, devondagi janrlarning alifbo tartibida joylashtirilishi, she’r baytlarining nisbatan to‘liqligi, shoir she’rlari ko‘p ekaniga ko‘ra tayanch manba sifatida tanlandi. Keyingi o‘rinlarda ushbu qo‘lyozmani *tayanch manba* sifatida shartli ravishda “A”, qolgan 903/IV, 906/VII raqamli qo‘lyozmalar esa *tayanch yordamchi manbalar* sifatida “B”, “D” variantlar, deb belgilandi. Ta’kidlash joizki, *tayanch manbada* hamda *tayanch yordamchi manbalar* matnidagi saktaliklarni qo‘lyozma bayoz, tazkira, majmua matni orqali tiklash maqsadga muvofiq. Shuni inobatga olgan holda bu manbalar *yordamchi manba* vazifasini bajaradi. Bular ham, o‘z navbatida, shartli belgilar orqali ajratildi.

Savollar:

1. Matnning muallif variantiga yaqinlik darajasi nimalarda ko‘rinadi?
2. Kotib shoir she’rlarini ko‘chirishda qanday xatolarga yo‘l qo‘ygan?
3. Mutrib devoni qo‘lyozmalarining kitobat holati, paleografik belgilarini gapirib bering?
4. Tayanch va yordamchi manbalar deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. “Devon va devonchilik tasnifi”ga oid nazariy ma’lumotlar bilan tanishish.
2. Devonning tarkibiy tuzilishiga doir manbalarni o‘rganish.

O‘qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Жўрабоев О. Девон ва девончилик таснифи. XX аср ўзбек мумтоз адабиётшунослиги антологияси. 2016. 526-бет.
2. Шамсиев. П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари. - Тошкент, 1969. –Б. 77.

3. Madirimova S. Text Edition Issue of Mutrib poems. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Impact Factor: SJIF = 7.13. MAY 2020. p. 1262-1274.

4. Содиков К. Матншунослик ва манбашунослик асослари. – Тошкент, 2017. –Б. 72.

5. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди, девон. №906/VII.

6. ЎзР ФА ШИ Асосий фонди, девон. №№903/IV.

7. ЎзР ФА ШИ Ҳ.Сулаймон фонди, девон. №2679/II.

SHOIR SHE'RLARINI O'RGANISHDA MATN TARIXI VA TAHRIRI

Reja:

1. Matnshunoslikda matn tarixi va tahriri masalasi
2. Shoir she'rlarini o'rganishda matn tarixining o'rni
3. Mutrib she'rlarida muallif va kotib tahriri

Tayanch so'zlar: matn tarixi, matn tahriri, tarix, kotib, she'r, manba, matnshunos, kotib, muallif, matnshunos, olim, muxammas, g'azal, qo'lyozma.

Qo'lyozma manbalarni tadqiq qilishda matn tarixi va tahriri kabi nazariy masalalar muhim ahamiyatga ega. Jumladan, rus olimi D.S.Lixachyevning fikricha, matn tarixi tushunchasi muayyan asar matnining barcha masalalarini qamrab olinishi kerakligi hamda asarga aloqador hamma masalalarini faqat to'liq (yoki imkon darajasida to'liq) o'rganishgina bizga asar matni tarixini tom ma'noda kashf etish imkonini beradi.

Rus olimi B.Tomashevskiyning matn tarixi adabiyot tarixi tadqiqotchisiga adabiy yodgorlikka oid zohiriylar ma'lumotlarni emas, muallif laboratoriyasining botiniy jihatlarini kashf etish imkonini beradi, degan qarashi muallif dunyoqarashini yoki asar yaratilgan davr ruhini kitobxonga sezilarli darajada yetkazib berish uchun asos bo'la oladi.

Matnshunos Shuhrat Sirojiddinov "Matn tarixini o'rganishda qo'lyozma asarning mavjud nuxalarini o'zaro qiyosiy tekshirishdan boshlash lozimligi, matnlar *to'liq, nuqsonli, tuzatilgan* (redaksiyaga

uchragan) yoki *tugatilmagan ko'rinishlarda uchrashi mumkinligi, qo'lyozma nusxalarda uning tarixi bevosita qayd etilgan yoki bilvosita aniqlanadigan belgilar yordamida tiklanishini..."* o'rinalta'kidlaydi.

Matnshunos Nurboy Jabborovning o'zbek matnshunosligida matn tarixi muammosini nazariy jihatdan o'rganish qachondan boshlab yuzaga kelgani, matn tarixini tadqiq qilish ildizlari Qur'oni karim va hadisi shariflarning o'rganilishi bilan bog'liq asosli fikrlari qimmatlidir. Olim Qur'oni karimni tafsir qilinishida mufassirlar tomonida oyatlarning nozil bo'lish sabablari, ushbu noyob asarning kitobat qilinishining tarixi haqida so'z yuritib, payg'ambar alayhissalom hadislarining vorid bo'lish sabablarini hamda bu asarning kim tomonidan rivoyat qilinganini ilmiy asoslar bilan izohlaydi.

Matnshunos Nafas Shodmonov "Shohidu-l-iqbol" – adabiy manba" asarida matn tarixini yoritishga oid ilmiy fikrlarni qayd qiladi. Uning aytishicha, matnni yaratgan muallif harakatdagi voqelikni aks ettirar ekan muayyan ruhiy jarayonni o'zidan kechiradi. Ushbu jarayon muallifda ob'ektiv va sub'ektiv sabablar ta'sirida matnning ayrim o'rinlariga o'zgartirish yoki tuzatishlar kiritilishi mumkinligini, bu kabi tuzatish va o'zgartirishlar matnning materiali, yaratilishi, shakllanishi, qurilishi va hokazo tarixiy, badiiy, g'oyaviy hamda uslubiy jihatlarini o'rganishga asos bo'lishini, shu bilan birga matn tarixini yoritishda uning badiiy asar sifatida shakllanish jarayoni qanday kechganligini unda mavjud faktik materiallarni tahlil qilish orqaligina amalga oshirish mumkinligini aytadi.

Matnshunos R.Zohidovning matn tarixi haqida quyidagi mulohazalari e'tiborga molik: "Muayyan matnning paydo bo'lishidan to oxirigi holatigacha davom etgan o'zgarishlar silsilasi matn tarixini tashkil qiladi. Aksar matnlar ma'lum vaqt mobaynida sub'ektiv (muallif, kotib, nashrga tayyorlovchi, muharrir) va ob'ektiv (ijtimoiy) omillar ta'sirida o'zgarishga uchraydi...".

Matnshunos Q.Pardayev o'zining "Muqimiyl she'riyatida matn tarixi, tahriri va talqini" nomli dissertatsiyasida Sh.Sirojiddinovning ushbu fikrlariga quyidagicha izoh beradi: "Bu masalalar matn tarixi bilan bog'liq ko'proq tashqi belgilarni o'z ichiga oladi. Matn tarixi, bundan tashqari, badiiy matnning mohiyatiga aloqador xususiyatlarni

ham o‘rganadi...”. Ammo Sh.Sirojiddinov matn tarixini o‘rganishni bevosita hamda bilvosita belgilarini izohlash jarayonida asarning ichki hamda tashqi jihatlarini to‘laqonli o‘rganishni, shuningdek, qo‘lyozma nusxalarni qiyoslash natijasida olinadigan tekstologik natijalarini o‘rganishni alohida qayd qiladi.

Matnshunos olimlarning fikrlarini tasdiqlagan holda, bizningcha, qo‘lyozma manbalarni muallif yashagan davrdan to uning vafotigacha bo‘lgan davrlarda ko‘chirilgan matnlarning o‘zaro qiyosiy jarayonlarini amaliy hamda nazariy jihatdan o‘rganish, ulardagи farqlar matn tarixi muammolari yuzaga kelish sabablarining ilk ko‘rinishlarini namoyon qiladi. Masalan, muallif yashagan davrda ilk bor ko‘chirilgan devon, bayoz, majmua yoki tazkiralardagi asarlar keyinchalik (muallif) u tomonidan qayta tahrir qilinishi yoki kotiblar tomonidan qayta ko‘chirilishi jarayonida avval ko‘chirilgan nusxalardagi matnning aynan saqlanmasligi o‘sha asar matn tarixini o‘rganishni taqazo qiladi. Bizningcha, bitta asar doirasida matn tarixi muammosini tadqiq qilish quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Sh.Sirojiddinov ta’biri bilan aytganda, asarga oid tashqi va ichki belgilarga ham ahamiyat berish zarur. Tashqi belgilariga asarning yaratilish sabablari, ko‘chirilgan yili, asar kolofonidagi barcha ma’lumotlar, asar matnida keltirilgan ba’zi bir qaydlar, tazkira va devon debochalaridagi tavsifiy ma’lumotlar kirsa, shu bilan birga asar yuzaga kelishining ichki belgilariga ham ahamiyat berish lozim. Har qanday asarning ilk ko‘rinishlari, keyinchalik turli o‘zgarishlar asosida yuzaga kelishi bilan bog‘liq jihatlar ham matn tarixi muammosini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat ko‘proq muallif yashagan davrda ko‘chirilgan asarlar yoki keyinchalik ko‘chirilgan asarlar matnida muallif nazari bilan yoki kotibning bilib, bilmay qilgan o‘zgartirishlari, shu bilan birga buyurtmachining talabi bilan ham yuzaga kelishi mumkin.

2. Har bir yaratilgan asarning matni avvalambor o‘sha asar yaratilgan davr ruhiyati bilan ham bog‘liq. Bunga asar yaratilgan davrning ijtimoiy-siyosiy holatlari ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, biror bir asarning asliyatidan qayta ko‘chirilgan varianti o‘zaro qiyoslanganda matn qisqarishi yoki jumlalarning o‘zgarishi kabi holatlar asarning ilk ko‘rinishlarini namoyon bo‘lishiga to‘sinqlik qiladi. Bunday hol asardagi so‘zlar, misralar yoki asar matnining

tubdan o‘zgarishi holatlarini ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa biror lirk asarning boshqa bir noto‘g‘ri varianti ham paydo bo‘lishiga olib kelishi shubhasiz.

Mutrib ijodi tadqiqidagi manbalarni qiyosiy o‘rganish jarayonida matniy nomuvofiqliklar ko‘zga tashlanadi. Shoir lirk asarlari matnida uchraydigan bunday tafovutlar matn tarixini o‘rganish zaruratini kun tartibiga qo‘yadi. Bizningcha, bular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- a) *bir matn doirasida so‘z va misralarning o‘zgarishi;*
- b) *bandning o‘zaro farq qilishi.*

Mutribning A tayanch, B, D tayanch yordamchi manbalarga kirgan “Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim” misrasi bilan takrorlanuvchi bitta muxammasi 1134 raqamli qo‘lyozma majmua tarkibida ham uchraydi. Aslida, bu qo‘lyozma shoh farmoniga binoan tuzilgan. Bu qo‘lyozmalarining qaysi biri muallif hayotlik davrida ko‘chirilganini aniqlash muxammasning ishonchli matnini tiklashda muhim. Muxammasning A tayanch, B, D tayanch yordamchi manbalardagi matnini qiyosiy tahlil etish orqali bu muammoga yechim topish mumkin. A tayanch manba kolofonida qo‘lyozma hijriy 1326, milodiy 1908-yili ko‘chirilgani qayd etilgan. Kolofonda mana bunday yozilgan: كاتب ملا عبد الكريم ابن محمد رحيم مرحومى ابن ۱۳۲۶ پحلوان نیازمرزاباشی مرحومی (kotib Mulla Adbulkarim ibn Muhammad Rahim Marhumiy ibn Pahlavon Niyoz Mirzoboshi Marhumiy sana 1326). Qo‘lyozmaning boshqa sahifalarida bu bilan bog‘liq hech qanday qayd uchramaydi.

B tayanch yordamchi manba hijriy 1325, milodiy 1907-yili Rahimbergan o‘g‘li Mulla Karimbergan devon tomonidan ko‘chirilgan. Kolofonda: كاتب ملا كريم بيرگن ديوان ابن رحيم بيرگن ماہ ۱۳۲۵ (Kotib Mullo Karimbergan devon ibn Rahimbergan mohi ramazon al-muborakda yozib itmomig‘a yetkurdi 1325) tarzidagi ma’lumot yozilgan.

D tayanch yordamchi manba *Mullo Boltaniyoz usto Qurbonniyoz mulaqqabi bin Xarrot* tomonidan ko‘chirilgan bo‘lib, kolofonida ko‘chirilgan yili haqida ma’lumot yo‘q. Bu qo‘lyozma A tayanch hamda B tayanch yordamchi manbalarga nisbatan avvalroq ko‘chirilgan. Devon kolofonida quyidagi qayd uchraydi:

کاتیب ملا بالطه نیاز بن اوستا قوربان نیاز ملقبی بخرات یازیب ایتمامیغه يتکوردى (*Kotib Mullo Boltaniyoz usto Qurbaniyoz mulaqqabi bin Xarrot yozib itmomig ‘a yetkurdi*).

1134 raqamli qo‘lyozma majmua oxirida esa Tabibiyning “Xotimai masnaviy”si berilgan. Bu masnaviyning dastlabki uch baytida majmuuating hijriy 1327-yilda tuzilgani, ya’ni 1327-yil, *Bahor fasli rabi’ ul avvalida ko ‘chirilganiga* (214^{a/b}) oid ishoralarni ma’lumot sifatida berib o‘tadi. Буларни қўйидагиларда кўрамиз:

بحمدللہ کیم لطف ایلاب خدا

بومجموعہ کیم یتی اتمام آنکا

Bihamdillahkim, lutf aylab Xudo,

Bu majmuag ‘akim, yetti itmom ongo.

آنینگ عصر يکیم کوب فرح حال ایدی

مینگ اوچ يوزيگرمہ یتی سال ایدی

Oning asrikim, ko ‘p farah-un hol edi,

Ming uch yuz yigirma yetti sol edi.

ربيع اول ایردی فصل رابع

بوابیاتلاربولدی مونдаه جمیع

Rabi’ ul-avval erdiu fasli rabi’,

Bu abyotlar bo ‘ldi munda jami’...

Ushbu tahlillardan Mutribning “*Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim*” misrasi bilan yakunlanuvchi 9 bandli muxammasi birinchi bor qo‘lyozma devonga, bir yildan so‘ng esa Mutrib Xonaxarob tomonidan qayta tahrirlanib, milodiy 1909-yilda Tabibiy tuzgan majmuaga ko‘chirilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Mutribning ushbu muxammasi Feruzning “*Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim*” misrasi bilan yakunlanuvchi muxammasiga tazmin sifatida yaratilgan. Ogahiyshunos Fathulla G‘anixo‘jayev “Tabibiy tuzgan ikki majmua haqida” maqolasida “Majmuatu muxammasot ush-shuaroyi Feruzshohiy”ga kiritilgan Ogahiy hamda Feruz g‘azallariga bog‘langan 32 shoirning muxammaslari, jumladan, ayni shu muxammas haqida ham ma’lumot beradi. Yu.Muhammadieva Feruzning ushbu muxammasida “Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim” misrasi tarje’ bo‘lib kelgani, bu orqali fikrning ta’sirchan bo‘lishiga erishilgani haqida yozadi...

Shoir lirik asarlari jamlangan tayanch va tayanch yordamchi manbalarga ko‘chirilgan “*Oromijon nigorim sarvi ravon nigorim*”

misrasi bilan yakunlanuvchi muxammas matni o‘zaro qiyoslanganda ular orasida deyarli farq ko‘zga tashlanmadi. Faqat muxammas 2-band, uchinchi misrasidagi “muncha” so‘zi D tayanch yordamchi manbaga “*Husning xayoli birla boshimda turfa savdo*” bo‘lib ko‘chirilgan (270^{a/b}). Shu bandning to‘rtinchi misrasida ham shunga o‘xshash farq ko‘zga tashlandi. Masalan, “Toki jafo qilursan, **tark** aylamassan aslo” misrasidagi “tark” so‘zi D tayanch yordamchi manbaga “**kam**” bo‘lib o‘zgargan. Asar mazmuniga jiddiy ta’sir etmasa-da, bunday o‘zgarishlar muxammas matnida oz bo‘lsa-da, uchraydi. Jumladan, muxammasning to‘rtinchi band, birinchi misrasi A tayanch manbaga “*Shavq o‘tig‘a jong‘a yetgach beixtiyor o‘lubman*” kabi uchraydi. Misradagi “o‘tig‘a” so‘zig‘a “-g‘a” jo‘nalish kelishigi ortiqcha ko‘chirilgan. Bu misra B, D tayanch yordamchi manbalarga to‘g‘ri ko‘chirilgan. Yana bir misol. Ushbu bandning uchinchi misrasi A tayanch hamda V tayanch yordamchi manbalarga “*La’ling mayini jonon behad xumor o‘lubman*” kabi uchraydi. Misradagi “La’ling mayini” birikmasidagi “-ni” o‘rin payt kelishigi D tayanch yordamchi manbaga “-g‘a” jo‘nalish kelishigi bilan to‘g‘ri ko‘chirilgan.

1134 hamda A tayanch manbalardagi muxammas matni o‘zaro qiyoslanganda, unda ayrim matniy o‘zgachaliklar kuzatildi. Kotiblarning e’tiborsizligi sababli mazkur she’r ayrim kamchiliklar bilan ko‘chirilgan. Masalan, muxammasning to‘rtinchi misrasi devonga: “Bu dam kelib boshimg‘a daf aylagil xumorim...” tarzida ko‘chirilgan bo‘lib, 1134 raqamli qo‘lyozma majmuada esa bu misra “Bir tun kelib yonimg‘a raf aylagil xumorim...” kabi tahrir qilingan.

Lug‘atda “Raf” aylamak” birikmasi ikki xil ma’noni anglatadi. 1. Ko‘tarish, yuksaltirish; 2. Yo‘q qilish. “Daf” aylamak” esa qaytarmoq, rad qilmoq, ketkazmoq, haydamoq ma’nolariga ega. Muxammasdagi ta’kidlangan misra tahlil qilinganda, mazmunan *daf* so‘zi to‘g‘riliqi aniqlashadi.

Bundan ko‘rinadiki, majmuani asl nusxdan ko‘chirish jarayonida bu kabi ayrim nozik jihatlar e’tibordan chetda qolgan. Odatda mualliflar bunday xatoga yo‘l qo‘ymaydi. Ammo Mutrib lirik asarlari kotiblar tomonidan ko‘chirilish jarayonida kamchilikka uchragan. Ikki manba orasidagi matniy o‘zgachaliklar quyidagi jadvalda ko‘rsatildi:

№	A tayanch manba (2679/II raqamli qo‘lyozma devon)	1134 raqamli majmua
Birinchi banddagi farqlar:		
1/1	<i>Ko ‘rgach yuzingni ketdi ilkimdin ixtiyorum,</i>	<i>Ko ‘rgach yuzingni ketdi ilkimdin ixтиyорим,</i>
	<i>Chiqdi falakka, ey sho ‘x, ishqingda ohu zorim,</i>	<i>Chiqdi falakka, ey sho ‘x, ishqingda ohu zorim,</i>
	<i>Mag ‘ruri husning o ‘lg ‘och hech qolmadi qarorim,</i>	<i>Mag ‘ruri husning o ‘lg ‘och hech qolmadi qarorim,</i>
	<i>Bu dam kelib boshimg ‘a <u>daf</u> aylagil xumorim</i>	<i>Bir tun kelib yonimg ‘a <u>raf</u> aylagil xumorim</i>
<i>Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.</i>		
Ikkinchchi banddagi farqlar:		
2/2	<i><u>Vaslingg</u>‘a bermasang yo ‘l, ey sarvari diloro</i>	<i><u>Soldi</u> xayoli husning boshimg ‘a turfa g‘avg‘o,</i>
	<i>La ‘ling zilolin istab ko ‘nglumda <u>muncha</u> savdo,</i>	<i>La ‘ling zilolin istab, ko ‘nglumda <u>yuz tamanno</u>,</i>
	<i><u>Husning</u> xayoli birla boshimda <u>muncha</u> g‘avg‘o,</i>	<i><u>Hajr ofatidin</u> aylab qaddimni <u>xam mudomo</u>,</i>
	<i>Tokay jafo qilursan, <u>tark</u> aylamassan aslo,</i>	<i>Tokay jafo qilursan, <u>kam</u> aylamassan aslo,</i>
<i>Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.</i>		
Uchinchi banddagi farqlar:		
3/3	<i>Fahm aylamassan, ey sho ‘x, ishqingda mubtaloman,</i>	<i>Fahm aylamassan, ey sho ‘x, ishqingda mubtaloman,</i>
	<i>Kelmasmu <u>emdi</u> rahming, <u>bezori</u> benavoman,</i>	<i>Kelmasmu <u>zarra</u> rahming, <u>bir</u> <u>zori</u> benavoman,</i>
	<i><u>Tokay</u> tilab visoling <u>shomi</u> <u>sahar</u> gadoman,</i>	<i><u>Har</u> <u>dam</u> tilab visoling <u>sargashtai</u> gadoman</i>
	<i>Vaslingdin, ey sumanbar, bilmon ne deb judoman,</i>	<i>Vaslingdin, ey sumanbar, bilmon ne deb judoman,</i>
<i>Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.</i>		
To‘rtinchchi banddagi farqlar:		
4/6	<i><u>Shavq</u> o‘ti(g‘a) jong ‘a yetgach beixtiyor o ‘lubman,</i>	<i><u>Ishq</u> o‘ti jong ‘a yetgach beixtiyor o ‘lubman,</i>
	<i><u>Gul</u> orazingni <u>bir</u> <u>dam</u> ko ‘rmakka zor o ‘lubman,</i>	<i><u>Mehri</u> ruxingni <u>har</u> <u>dam</u> ko ‘rmakka zor o ‘lubman,</i>

	<u><i>La'ling mayini(g'a) jonon,</i></u> <u><i>behad xumor o'lubman,</i></u>	<u><i>Shirin kaloming istab</i></u> <u><i>devonavor o'lubman,</i></u>
	<u><i>Shirin kaloming istab ko'b</i></u> <u><i>intizor o'lubman.</i></u>	<u><i>La'ling mayig'a jono(n) behad</i></u> <u><i>xumor o'lubman,</i></u>
<i>Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.</i>		
Beshinchchi banddag'i farqlar:		
5/8	<u><i>Sansiz manga tiriklik dahr ichra</i></u> <u><i>pur jafodur,</i></u>	<u><i>Sansiz manga tiriklik dahr ichra</i></u> <u><i>pur jafodur,</i></u>
	<u><i>Zebo qading xayoli ko'nglumga</i></u> <u><i>muttakodur,</i></u>	<u><i>Sarvi qading xayoli ko'nglumga</i></u> <u><i>muttakodur,</i></u>
	<u><i>Baxtim kamolig'a ham la'li</i></u> <u><i>labing davodur,</i></u>	<u><i>Har g'amza(nga), nigor, jonus</i></u> <u><i>jahon fidodur</i></u>
	<u><i>Har g'amzanga, nigor, jonus</i></u> <u><i>jahon fidodur,</i></u>	<u><i>Chun murg'i ko'nglum iki</i></u> <u><i>zulfunga mubtalodur,</i></u>
<i>Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.</i>		
Oltinchchi banddag'i farqlar:		
6/7	<u><i>Chekmak ishim fig'ondur la'li</i></u> <u><i>ziloling istab,</i></u>	<u><i>Tinmay ko'zumni ashki la'ling</i></u> <u><i>zilolin istab,</i></u>
	<u><i>Har lahza iztirobim ikki hiloling</i></u> <u><i>istab,</i></u>	<u><i>Har lahza iztirobim ikki hiloling</i></u> <u><i>istab</i></u>
	<u><i>Sorg'ordi <u>orazim, chun nozik</u></i></u> <u><i>niholim(ng) istab,</i></u>	<u><i>Sorg'ordi <u>rangi ro'yim, nozik</u></i></u> <u><i>niholing istab,</i></u>
	<u><i>Jodu ko'zing tilarda parvona</i></u> <u><i>xoling istab,</i></u>	<u><i>Qadim duto yuzungni bir dona</i></u> <u><i>xolin istab,</i></u>
<i>Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.</i>		
Ettinchchi banddag'i farqlar:		
7/5	<u><i>O'rtar xayoli hajring, ey</i></u> <u><i>podshohi xo'bon,</i></u>	<u><i>O'rtar xayoli hajring, aylab</i></u> <u><i>ko'zumni giryon,</i></u>
	<u><i>Kulbam sori qadam qo'y</i></u> <u><i>chekdurma ohu afg'on,</i></u>	<u><i>Etdi chiqarg'a jonom, ey kokili</i></u> <u><i>parishon,</i></u>
	<u><i>Vomuq g'amida goldim, ey</i></u> <u><i>kokili parishon,</i></u>	<u><i>Muncha jafo qilursan ne</i></u> <u><i>muddao sanga jon</i></u>
	<u><i>Muncha jafo qilursan, ne</i></u> <u><i>muddao sanga jon,</i></u>	<u><i>Chekmak ishim tunu kun</i></u> <u><i>shavq ichra ohu afg'on</i></u>
<i>Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.</i>		
Devonga ko'chirilgan muxammasning sakkizinchchi bandi majmuaga ko'chirilgan muxammas baytlaridan tubdan farq qiladi.		

8/4	<i>Ko ‘rma ravo jafoni boshingdin oylonaman,</i>	<i>Yig ‘laram hasratingdin begona bo ‘lmaq ‘uncha,</i>
	<i>Tuz ahdinga vafoni qoshingdin oylonaman,</i>	<i>Tiyg ‘i firoqing ichra vayrona bo ‘lmaq ‘uncha,</i>
	<i>Etganda, o ‘n sakizda boshingdin oylonaman,</i>	<i>Ishqingda dahr eliga afsona bo ‘lmaq ‘uncha</i>
	<i>Ming jilva birla otg ‘on toshingdin oylonaman,</i>	<i>Rahm aylagil g ‘amingda g ‘amxona bo ‘lmaq ‘uncha,</i>
<i>Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.</i>		
To‘qqizinchi banddag'i farqlar:		
9/9	<i>Bemori hajring o ‘ldim, <u>ey xo‘b la’li xandon,</u></i>	<i>Bemori hajring o ‘ldim, <u>ey lablari durafshon,</u></i>
	<i><u>Ko‘ksing jahon boshimg‘a go ‘yoki bo ‘ldi zindon,</u></i>	<i><u>Bo‘ling(di) jahon boshimg‘a go ‘yoki, bo ‘ldi zindon,</u></i>
	<i><u>Furqat yarosi ichra bu Mutribi xush alhon,</u></i>	<i><u>Nolangni qilmag‘ilkim, ey Mutribi xush alhon,</u></i>
	<i><u>Bu dam kelib, nigor, dardimga ayla darmon,</u></i>	<i><u>Shoyad kelib nigor, dardingg‘a qilsa darmon,</u></i>
<i>Oromijon nigorim, sarvi ravon nigorim.</i>		

Jadvalda muxammasnning matn tarixi masalasi to‘liq aks etganini ta’kidlash kerak. D.S.Lixachev fikricha: “*Matn tarixi* tushunchasi muayyan asar matnining barcha masalalarini qamrab oladi. Asarga aloqador hamma masalalarini faqat to‘liq (yoki imkon darajasida to‘liq) o‘rganishgina bizga asar matni tarixini tom ma’noda kashf etish imkonini beradi...”. Nurboy Jabborov matn tarixining badiiy asar yaratilishi, kitobat qilinishi va nashr etilishigacha bo‘lgan jarayonlarni nechog‘liq qamrab olishini detallashtirib talqin etadi: “...matn tarixi qo‘lyozma manbalar genealogiyasini tekshirishdan muallifning va hatto manbani ko‘chirgan kotibning dunyoqarashi va g‘oyasini o‘rganishgacha, asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro‘yobga chiqishidan uning yaratilishigacha u yoki bu darajada aloqador bo‘lgan boshqa adabiy yodgorliklar bilan o‘zaro bog‘liq jihatlari tadqiqigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oladi...”. Bu o‘rindagi tahrirlarni “*asarning yuzaga kelishida muallif ijodiy niyatining ro‘yobga chiqishi*” omili bilan bog‘lash to‘g‘riroq bo‘lar edi. Ko‘rinadiki, bir lirik asar doirasida butun boshli bandlar nomuvofiqligi kuzatiladi. Bu hol, avvalo, muxammasnning

mazmuniga ta'sir etgan bo'lsa, ikkinchidan, vazn saktaligini keltirib chiqargan. Masalan, devonga ko'chirilgan muxammas matnida "*Bir zori*" so'zi "*Bezori*" shaklida, "...g'a" qo'shimchasining ortiqcha qo'yilishi, "*Ziloling istab*", "*Niholing istab*"ga qofiyadosh bo'lgan birikma muxammasning uchinchi misrasida "*Niholim* *istab*" kabi berilishi jiddiy xatolar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Majmuadagi xatolar: "*Har g'amza(nga) nigoro jonu jahon fidodur...*" misrasidagi "*g'amzanga*" so'zi "*g'amza*", "*Bo'ling(di) jahon boshimg'a go'yoki, bo'ldi zindon...*" misrasidagi "*Bo'ldi*" so'zi "*Bo'ling*" tarzidagi matniy kamchiliklar bilan ko'chirilgan.

Matnning bunday o'zgarishlarga uchrash holati yuqoridagi jadvalimiz misolida tahlil etildi. Jadvalning birinchi ustunida matnning tugal, har jihatdan mukammal to'g'ri varianti berildi. Bu hol matnning dastlabki varianti doimo to'g'ri, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Muxammasning 1134 raqamli qo'lyozma majmuadagi matni shoir tomonidan keyinchalik qayta ishlangan va ayrim o'zgarishlarga uchragan. Natijada she'r ancha mukammal holga kelgan. Misralar mantiqiy ketma-ketligida ham tartib saqlangan. Bunday holatlarni shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda e'tiborga olish zarur.

Matn tahriri adabiy asarlarning muallif dastxati yoki unga yaqin variantlarini nashr nusxalari bilan qiyosiy o'rganish, yuzaga kelgan tafovutlarning sabablarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday yaratilayotgan asar biror maqsadga yo'naltirilgan holda yoziladi. Shunday ekan "tahrir" jarayoni ikki usulda namoyon bo'ladi. *Birinchisi*, muallif ongli ravishda yoki o'sha davr ijtimoiy-siyosiy voqealariga binoan yaratgan asarining qayta sayqallanish jarayonida yuzaga kelgan tahrir, *ikkinchisi* yaratilgan asarning kotiblar tomonidan amalga oshirilgan bilvosita yoki bevosita qilingan tahrir. Rus olimi D.S.Lixachyev "Tekstologiya" kitobida tahrirning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatadi:

- 1) g'oyaviy tahrir;
- 2) uslubiy tahrir;
- 3) asardagi faktlarni boyitish, kengaytirishga qaratilgan tahrir;
- 4) bir necha turni o'zida mujassam etgan qorishiq tahrir.

Matnshunos Q.Pardaev o'zining tadqiqotida matn tahririni g'oyaviy tahrir, muallif tahriri, kotib tahriri kabi turlariga ajratib o'rganadi.

Mutrib Xonaxarob adabiy merosi tadqiqida yuqorida keltirilgan tahrir turlarini to‘liq tatbiq etib bo‘lmaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, shoir devoni qo‘lyozmalariga ko‘chirilgan lirk asarlar matnida jiddiy o‘zgarishlar borligi namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, Mutrib asarlari matniga doir tahrirni quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin:

1. Muallif tahriri (muallif o‘zi yaratgan asarning keyinchalik matndagi faktlarni boyitishi va kengaytirishiga qaratilgan tahrir);
2. Kotib tahriri.

1. *Muallif tahriri (muallif o‘zi yaratgan asarning keyinchalik matndagi faktlarni boyitishi va kengaytirishiga qaratilgan tahrir).*

Mutrib she’rlari matnida muallif tahririning quyidagi uch ko‘rinishi ko‘zga tashlanadi:

1. Yaxlit she’r baytlarining qisqarishi;
2. Bayt tarkibidagi so‘zlarning o‘zgarishi;
3. She’r matnining qayta ishlanishi.

Yaxlit she’r baytlarining qisqarishi. Tahrirning bu turi Mutrib ijodida g‘azal baytlariga bog‘langan muxammaslar matnida ko‘proq uchraydi. Bu hol shoirning Navoiy, Munis, Ogahiy g‘azallariga bog‘langan taxmislarda yorqinroq ko‘rinadi. Masalan, 1134 raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo‘lyozma manbada Mutribning Ogahiy hamda Feruz g‘azallariga bog‘langan 5 ta muxammasi berilgan. Bular O‘zR FA ShIda saqlanayotgan shoir devoni qo‘lyozmalarida uchramaydi. Jumladan, shoir Ogahiyning *rajazi musammani solim* (- - V - / - - V - / - - V -) vaznida yaratgan “*Jonbaxsh la’ling uzra to xat qildi paydo orazing...*” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga taxmis bog‘langan. Muxammasning birinchi bandi quyidagicha:

*Qildi xirad begonasi ko‘rgach, nigor, orazing,
Aylab manga har lahzada mehr oshkor, orazing,
Bazmimg‘a yetkurdi bu tun ming zebu oro orazing,
Jonbaxsh la’ling uzra to xat qildi paydo orazing,
Xurshid uza jam’ ayladi Xizru Masiho orazing.* (1134 inv. 22^b, 23^a).

Shoir Ogahiyning 9 baytli g‘azalidan uchinchi hamda oltinchi baytlarini tushirib qoldirib, 7 baytiga taxmis bog‘langan. Tushirib qoldirilgan baytlar quyidagicha:

*Zohid tilar jannat guli sarvin magarkim ko‘rmamish,
Lutf ichra zebo qomating husn ichra hamro orazing.*

*Oydek yuzung mahjurlari shom g‘amini yorutur,
Partav maning shomimg‘a ham solg‘aymu oyo orazing.*

Mutrib Ogahiyning *rajazi musammani solim* vaznida yozilgan “*Qoshu ko‘zung*” radifli g‘azaliga ham taxmis bog‘lagan. Muxammasning birinchi bandi quyidagicha:

*Bir g‘amzada soldi mango sonsiz yaro qoshu ko‘zung,
Jonu dilimg‘a yetkurur ming mojaro qoshu ko‘zung,
Man xastadin yo topdimu jurmu xato qoshu ko‘zung.
Vah ne balodur bilmadim, ey dirlrabo, qoshu ko‘zung –
Kim bir nazarda soldi o‘t jonio aro qoshu ko‘zung.*

Mazkur g‘azal o‘n uch baytdan iborat. Shoir tomonidan yaratilgan taxmis esa yetti banddan tarkib topgan. Ko‘rinib turibdiki, g‘azalning olti bayti, ya’ni uchinchi, beshinchi, sakkizinchi, o‘ninchisi, o‘n birinchi hamda o‘n ikkinchi baytlari shoir tomonidan tushirib qoldirilgan. Mana o‘sha baytlar:

*Jonimg‘a qo‘ydi dog‘lar rashk o‘tidin xoli labing,
Ko‘nglumga yetkurdi tumon dardu balo qoshu ko‘zung.*

*Qoshu ko‘zung bedodidin dod aylasam ermas ajab –
Kim, ne jafolar qilmadi oxir mango qoshu ko‘zung.*

*Yo‘qtur mango ishqing aro yurmak tirik imkonikim,
Jonimni yo qaddu yuzung olg‘usi yo qoshu ko‘zung.*

*El qatlini qasd aylabon mastona qilg‘och bir nazar,
Soldi jahong‘a nolayi vo hasrato qoshu ko‘zung.*

*Aylay hayotim naqdini har dam nisoru sadqasi,
Yoshurmog‘il man zordin aylab hayo qoshu ko‘zung.*

*Majlis fazosida usul etgan chog‘i raqqos o‘lub,
Har g‘amzada yuz jon olur, ey mahliqo, qoshu ko‘zung.*

(Ogahiy. Ta‘viz ul-oshiqin. Qo‘lyozma devon. №1529. 116^b-
117^a.)

Mutrib Ogahiyning “*Orazing*” hamda “*Qoshu ko‘zung*” radifli g‘azallariga taxmis bog‘lar ekan, ustoziga g‘azallarining biror so‘zini o‘zgartirmagan. Ammo g‘azalning aksar baytlari tushirib qoldirilgan. Bizningcha, buning sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

birinchidan, shoir Ogahiy tomonidan yaratilgan ushbu g‘azallarning ba’zi baytlariga har jihatdan muvofiq keluvchi taxmis bog‘lashga jur’at eta olmagan;

ikkinchidan, shoir tayangan manbada, ya’ni bayoz, majmua yoki devonlarga ko‘chirilgan variantlardagi qo‘lyozmalarda yuqoridagi baytlar qisqargan holda berilgan bo‘lishi ehtimoli bor;

uchinchidan, shoir g‘azalning o‘zi tanlagan baytlarigagina taxmis bog‘lagan bo‘lishi mumkin.

2. Bayt tarkibidagi so‘zlarning o‘zgarishi.

Mutrib Xonaxarobning devon qo‘lyozmalariga kiritilmagan muxammaslari 1127 raqamli qo‘lyozmaga ham ko‘chirilgan. Bu qo‘lyozmaga kiritilgan muxammaslar 1134 raqamli qo‘lyozmada ham uchraydi.

Ushbu ikki qo‘lyozma manbadagi muxammaslar matni o‘zaro solishtirilganda ular orasida ayrim matniy o‘zgachiliklar borligi aniqlandi. Ta’kidlash kerakki, yuqorida keltirilgan ikkala manbada ham muxammaslar Feruz qalamiga mansub “*Ohista-ohista*” g‘azaliga bog‘langan. Xulosalar aniq bo‘lishi uchun avvalo, g‘azal matni Xiva Ichonqal’a muzeyida saqlanayotgan 5884/11 raqamli “G‘azaliyoti Feruz” manbasi asosida tekshirildi. Qiyosiy o‘rganish natijalari Feruz g‘azali ayrim baytlari Mutrib muxammasida negadir, o‘zgartilgan holda uchraydi. Jumladan, g‘azalning ikkinchi baytidagi “*qilg‘ali*” so‘zi 1127(57^b), 1134(54^{a/b}) raqamli qo‘lyozma majmualarga “*ayladi*” tarzida o‘zgarishga uchragan. Muxammasning ushbu bandi quyidagicha:

*Uzorin gul gul aylab jannatoso o‘lgali gulshan,
Tarahhumlar qilib, bilkull bo‘lurg‘a bu kecha bir tan,
Ko‘rub holi xarobim hajr aro ul dilbari purfan,
Firoqida qarorg‘on ko‘zlarimni ayladi ravshan,
Ochib ruxsorayi xurshidson ohista-ohista.*

1127 raqamli majmuada “Ochib ruxsorayi” birikmasidagi “ruxsorayi” so‘zi “ruxsorani” shaklida ko‘chirilgan. Ushbu g‘azalning sakkizinchı baytidagi “Qucharsan, quch” birikmasi muxammasda “Vagar quchsang” tarzida tahrir etilgan:

*Agar istarsen o‘pmaklikni eng jonfizo la‘lim,
Qucharsan quch belim engu miyon ohista-ohista (5884/11-inv.
105^a).*

Mutrib muxammasida:

*Agar istarsen o ‘pmaklikni eng jonfizo la ’lim,
Vagar quchsang belim engu miyon ohista-ohista.*

Bu kabi tahrirlar, ya’ni o‘zi muxammas bog‘layotgan g‘azallar matnidagi bunday o‘zgarishlar Mutrib tomonidan amalga oshirilgani haqiqatga yaqin, bizningcha. Negaki, ayrim hollarda bunday o‘zgarishlar shoir tomonidan amalga oshirilgan.

Professor Nurboy Jabborov tahrirni hajm va ko‘lamiga ko‘ra ikki turga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi: “1) butun matn tarkibiga oid tahrir; 2) matnning alohida qismiga aloqador tahrir”. Misollardan ham ko‘rinib turibdiki, o‘rganilayotgan manbadagi tahrirlar asosan matnning alohida qismiga oid.

Mutrib Feruzning “*Dedim, ko ‘zumni ravshan et, mehri jamoling ko ‘rsatib*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azaliga ham taxmis bog‘lagan. Feruz g‘azalining maqta’iga ham Mutrib tomonidan juz’iy tahrir kiritilgan. Masalan, “Dedim, ko ‘zungdin o‘rgulay Feruzg‘a bir bo‘sa ber...” ni muxammas misralaridagi “dilso‘zg‘a”, “qunduzg‘a”, “navro‘zg‘a” so‘zlariga mos ravishda “Feruzg‘a” tarzida o‘zgartirilgan (1127(78^b) raqamli qo‘lyozma; 1134(79^{a/b}) raqamli qo‘lyozma). She’r matni quyidagicha:

*Fosh aylabon mehru vafo man tashnayi dilso ‘zg ‘a,
Keldi qoshimg ‘a cho ‘lg ‘anib, sanjob ila qunduzg ‘a,
Ey Mutribo, emdi do ‘nub, har bir kuning navro ‘zg ‘a,
Dedim, ko ‘zungdin o‘rgulay, bir bo‘sa ber Feruzg‘a,
Dedi, yuzumni og ‘ritur har yon xating nishi botib.*

Feruzning to‘qqiz baytli *rajazi musammani solim* vaznidagi “*Labing*” radifli g‘azaliga yozilgan Mutrib taxmisi ikkinchi bandida g‘azalda qo‘llangan “jovidon”, “jonon” so‘zları muxammas matnida “tozakim”, “hayvon” tarzida o‘zgartiriladi. Masalan,

*La ‘lingni bir o ‘pmak bila topdim hayoti **jovidon**,
I’jozi Isomu ekan yo sharbati **hayvon** labing [1152-inv.].*

*La ‘lingni bir o ‘pmak bila topdim hayoti **tozakim**,
I’jozi Isomu ekan yo sharbati **hayvon** labing [1134-inv.].*

Feruz g‘azalining yettinchi bayti ham juz’iy tahrir qilingan. Mutrib “Doim ko‘ngulda saqlabon pinhon labingning shavqini” (1152(387^b-288^a) raqamli qo‘lyozma) misrasida “-ning” qaratqich

kelishigini tushirib, she'r misralarining birinchi, ikkinchi, uchinchi misralariga mos ravishda “-ni” tushim kelishigini qo'llaydi. Masalan:

*Jon ichra tun-kun asradim jonon labingni shavqini,
Aylab dili mahzunima mehmon labingni shavqini,
Xavf aylab ag'yor ahlidin olon labingni shavqini,
Doim ko 'ngulda saqlabon pinhon **labingni** shavqini,
Emdi yetibman o 'lgali o 'ptur mango pinhon labing* (1134-inv. 79^{a/b}).

Matnshunos Nafas Shodmonovning yozishicha: “... matn muallifi harakatdagi voqelikni aks ettirar ekan, muayyan ijodiy ruhiy jarayonni kechiradi. Shu jarayonda u obyektiv va subyektiv sabablar ta'sirida matnning ayrim o'rinalariga munosabatini o'zgartirishi va ularga turli hajmlardagi tuzatishlar kiritishi mumkin. Bunday tuzatish va o'zgartirishlar matnning materiali, yaratilishi, shakllanishi, qurilishi va hokazo tarixiy, badiiy, g'oyaviy hamda uslubiy jihatlarini o'rganishga asos bo'ladi”. Garchi majmuadagi Mutrib she'rlarida harakatdagi voqelik aks etmagan bo'lsa-da, muallif muayyan ijodiy ruhiy jarayonni kechirgani aniq. Matndagi tahrirlar ayni shu ijd jarayoni mahsuli sifatida baholanmog'i kerak. Shu bois tahrirlar asosan matnni mukammallashtirishga xizmat qilgan.

2. *She'r matnining qayta ishlanishi*. Adabiyot tarixida ijodkor o'zi yozgan asarlarini vaqt o'tishi bilan keyinchalik ham qayta ishlagan holatlar bo'lgan. Bunda ayniqsa, she'riy asarlar ijodkor tomonidan sayqallanib, har tomonlama mukammal ko'rinishga keltirilgan. Mutribning 1908-yilda A tayanch manbaga ko'chirilgan *ramali musammani mahzuf* vaznida yozilgan “Ko'r” radifli g'azali ham muallif tomonidan (hijriy 1328/1910-yilda ko'chirilgan) qayta tahrir etilib, 2025 raqamlı qo'lyozma bayozga kiritilgan. Ta'kidlash kerakki, tahrirga uchragan ushbu g'azal badiiy jihatdan takomillashgan, poetik jihatdan boyitilgan. Quyida shu g'azal baytalarini ketma-ket tartibda keltiramiz:

Birinchi bayt:

*Ofati hajringdin, ey gul, chashmi giryonimni ko'r,
Bulbuloso gul yuzing shavqida nolonimni ko'r.*

(2679-inv. 117^b-118^a).

*Ko'nglum ichra, ey sumanbar, dog'i hijronimni ko'r,
Ishq aro Majnun kabi choki giribonimni ko'r (2025-inv.107^b).*

Ikkinchi bayt:

Vahki, ruxsorim xazon hajr ila pajmurdadur,

Notavon ko 'nglumda sonsiz dardi pinhonimni ko 'r (2679-inv).

Bodayi vaslingdin, ey gul, vahki, masrur o 'lmayin,

Furqatingdin kecha-kunduz chashmi giribonimni ko 'r (2025-inv).

Uchinchi bayt:

Lablaringni kavsaridin qatra ehson aylakim,

Yetdi labga chiqg 'ali tandin hazin jonimni ko 'r (2679-inv).

To ko 'rub, gulzor husningni xiraddin oyru lub,

Bulbuloso dam-badam faryodi afg 'onimni ko 'r (2025-inv).

To 'rtinchi bayt:

Qon to 'kub iki ko 'zumdin ro 'zu shab g 'am dashtida,

Ishq aro Majnun kabi choki giribonimni ko 'r (2679-inv).

Intizingdin tiganmas dardima pobast o 'lub,

Ko 'nglum ichra necha yuz lak dardi pinhonimni ko 'r (2025-inv).

Beshinchi bayt:

O 'rtanurman hajring ichra o 'tg 'a tushgan qil kabi,

Qilg 'ali bir dam muruvvat qalbi so 'zonimni ko 'r (2679-inv).

Aylab uzrimni qabul, ey gul, xirom et, man sori,

Bo 'lsa ne jurmim sanga, ondin pushaymonimni ko 'r (2025-inv).

Oltinchi bayt:

Yuzlanib ming turfa mehnatlar firoqing ichrakim,

Har nafas oromisiz faryodi afg 'onimni ko 'r (2679-inv).

Fosh etib, mehri vafo bu kecha kulbamg 'a kelib,

Shavq o 'tig 'a lahza-lahza qalbi so 'zonimni ko 'r (2025-inv).

Yettinchi bayt:

Zor yig 'lab, lahza tinmas ishq aro Mutrib kabi,

Ko 'zlarimdin zohir o 'lg 'on ashki to 'fonimni ko 'r (2679-inv).

Mutriboso, g 'am chekib, doim sururi ishq aro,

Muncha dardi furqat ichra chiqmag 'on jonimni ko 'r (2025-inv).

Mutribning yuqorida keltirilgan g‘azali A (tayanch manba) hamda 2025 raqamli manbalardagi varianti bilan qiyoslanganda misralardagi o‘xshashlik faqat bitta misrada aynan saqlanganligi kuzatildi. Bu “Ishq aro Majnun kabi choki giribonimni ko‘r” misrasi bo‘lib, shoir lirik asarlari ko‘chirilgan qo‘lyozma devonda sakkizinchi misrada kelgan. Keyinchalik 2025 raqamli qo‘lyozma bayozga ikkinchi misraga ko‘tarilgan. Bizningcha, g‘azal bayti tartibining bunday o‘zgarishi o‘zini oqlagan.

Kotib tahriri. Mutribning lirik merosi orasida uchramaydigan yana bir muxammas matnida kotib tomonidan tahrirlar ko‘zga tashlanadi. U Feruzning savol-javob shaklidagi *hazaji musammani solim* vaznida yozilgan “*Dedim, ko‘zumni ravshan et, mehri jamoling ko‘rsatib*”, deb boshlanuvchi yetti baytli g‘azaliga taxmis bog‘lagan. Ushbu muxammas orasidagi o‘zgarish Feruz g‘azalining to‘rtinchi misrasida uchraydi. Misradagi **sango bergum oni** birikmasi 1134 raqamli qo‘lyozma majmuaga so‘zlar o‘rni o‘zgartirilgan holda ko‘chirilgan. Misra g‘azalda quyidagicha:

Dedim, visol ichra labing shahdi maning komim erur

*Dedi, **sango bergum oni** zahri firoq ichra qotib* (1152-inv. 78^b).

Baytga bog‘langan muxammas bandi esa:

Bag‘rimni qoni hajr aro sahboyi gulfomim erur,

Ishq ichra chekkan nolishim zotingg‘a payg‘omim erur,

Tokim tirikman, halqai zulfiq mani domim erur,

Dedim, visol ichra labing shahdi maning komim erur,

*Dedi, **oni bergum sango** zahri firoq ichra qotib – tarzida bitilgan.*

1134(79^b) inv. qo‘lyozma.

Xuddi shu muxammas 1127(78^b) raqamli qo‘lyozma majmuaga 1152 raqamli manbara muvofiq ko‘chirilgan. Muxammasning to‘rtinchi bandi 1134 raqamli qo‘lyozma majmuaga “Bazm ichra topti shodlig‘ bu lahza **ko‘nglum uyi**” tarzida “ko‘nglumning” so‘zidagi “-ning” qaratqich kelishigi tushirib ko‘chirilgan. Ushbu muxammas matni 1127(23^b, 24^a) raqamli qo‘lyozma orqali tiklanishi zarur. Tahrir qilingan band quyidagicha:

*Bazm ichra topti shodlig‘ bu lahza **ko‘nglumning uyi**,*

Sunbulmu atrafshon erur boshingni, jono, gesuyi,

Ketdi ko‘zumdin tiyralig‘ tushgach jamoling partavi,

Dedim, labingni sharbati, shirinmu yo kavsar suyi,

Dedi, bo ‘lurmu har suvni obi baqog ‘a o ‘xshotib.

Oxirgi misradagi “suvni” so‘zi 1127 raqamli qo‘lyozmaga 1152 raqamli manbadagi سویی (suyi) tarzida ko‘chirilgan.

“Oni bergum sango” birikmasining o‘rni o‘zgarishi asar mazmuniga ta’sir etmagan. Ammo kotibning e’tiborsizligi bois “-ning” qo‘shimchasi tushirib ko‘chirilishi vaznda saktalikni yuzaga keltirgan.

Mutribning A tayanch manbaga kirgan ikkita musaddasi 1134 raqamli majmua tarkibida ham uchraydi. Bular: “*Mash’ali bazmima husnini balosini ko ‘rung...*”, “*Gulshan ichra jilvau yuz nozi izhor ayladi...*” misralari bilan boshlanadi.

Ushbu she’rlar matni qiyoslanganda, ular orasida ayrim o‘zgachaliklar kuzatiladi. Jumladan, yetti bandli “*Mash’ali bazmima husnini balosini ko ‘rung...*” (A tayanch manba. 231^{a/b}) misrasidagi “balosini ko‘ring” birikmasi majmuaga “jilosini ko‘ring” tarzida ko‘chirilgan. Shu o‘rinda “*Mash’ali bazmima husnini jilosini ko ‘rung...*” varianti mazmunan to‘g‘ri ekanini ta’kidlash kerak. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, kelgusida shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashda ushbu musaddas matni 1134 raqamli qo‘lyozma majmuadagi variant asosida tiklanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Quyidagi jadvalda “*Gulshan ichra jilvau yuz noz izhor ayladi...*” misrasi bilan boshlanuvchi ikkinchi musaddas matnidagi tafovutlar keltirildi:

She’r bandi va misrasi	A tayanch manba	1134 raqamli qo‘lyozma majmua
1/1	“ <i>Qilmadim komim ravo <u>ul</u> yorlig ‘hangomida</i> ” (232 ^b -bet)	“ <i>Qilmadim komim ravo <u>chun</u> yorlig ‘hangomida</i> ” (209 ^a -bet).
3/1	<i>Doimo</i> ko ‘rgach o ‘zin majnunshior aylar ongo...	<i>Dahr eli</i> ko ‘rgach o ‘zin majnunshior aylar ongo...
6/3	<i>Ohkim, ehsoni lutf ila dame shod etmayin,</i> <i>Xasta ko ‘nglumni g ‘amu hijrondin ozod etmayin,</i>	<i>Ohkim, ehsoni lutf ila dame shod etmayin,</i> <i>Xasta ko ‘nglumni g ‘amu hijrondin ozod etmayin,</i>

<p><u>Lablarini kavsaridin</u> qatra <u>xayrod</u> etmayin, <i>Mutribi sargashtani bir jom ila yod etmayin,</i> <i>Do 'stlar, ul dirlrabo ishq mani zor ayladi,</i> <i>Rashk tiyg 'i jon ila ko 'nglumni afgor ayladi.</i></p>	<p><u>Lablaridin kavsarini</u> qatra <u>xaridor</u> etmayin, <i>Mutribi sargashtani bir jom ila yod etmayin,</i> <i>Do 'stlar, ul dirlrabo ishq mani zor ayladi,</i> <i>Rashk tiyg 'i jon ila ko 'nglumni afgor ayladi.</i></p>
--	---

Ko‘rinadiki, “ul” so‘zi “chun”, “doimo” so‘zi esa “dahr eli” tarzida tahrir etilgan. She’rning keyingi “**Lablarini kavsaridin** qatra **xayrod** etmayin” misrasi “Bayozi majmua”ga “**Lablaridin kavsarini** qatra **xaridor** etmayin” tarzida ko‘chirilishi asar mazmunini tubdan o‘zgartirib yuboradi. Ayniqsa, “Xaridor” so‘zi musaddasning keyingi misralaridagi *shod*, *ozod*, *yod* so‘zlariga qofiyadosh sifatida ko‘chirilishi mantiqan noto‘g‘ri.

Umuman, manbalar tahlili asosida aytish mumkinki, ushbu she’r matni faqatgina A tayanch manbadagina mukammalroq tarzda uchraydi. 1134 raqamli manbadagi musaddaslar matnida ko‘plab vazn, qofiya buzilishi bilan bog‘liq nuqsonlar bor.

A tayanch manba hamda B tayanch yordamchi manbalariga ko‘chirilgan “*Mayi la 'ling bila jonimni daf'i xumor etgil*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning beshinchi bayti qiyoslanganda ular orasida quyidagi farq borligi kuzatildi:

Ochib gulzori husning chehrayi baxtimni siyohidin,
Bori ayshim xazondur, tiyra baxtimni bahor etgil.

(A tayanch manba. 151^b).

Bori ayshim xazondur, chehrayi baxtim siyohidin,
Ochib gulzori husning, tiyra baxtimni bahor etgil.

(B tayanch yordamchi manba. 235^a).

(*Chehrayi baxtim siyohidin barcha turmushim xazon kabitdir, gulzor husningni ochib, hayotimni o‘q tezligi kabi (kelib) bahor etgil*).

Ikkinchchi berilgan baytda, oshiqning chehrayi baxti (siyohidin) qora bo‘lganidan barcha turmushi xazon bo‘lgani, (yor) go‘zal (gulzor) husnini ochib (kelib), (oshiqning) hayotini o‘q tezligi kabi

bahor etishi kerakligi anglashiladi. Ushbu baytda shoir tazod(xazon-bahor)dan mohirona foydalangan.

Birinchi baytda: (yorning) go‘zal husni (oshiqning) chehrayi baxti qoraligidandir. Barcha turmushi xazondur, (yor uning) hayotini o‘q tezligi kabi bahor etishi kerakligi mazmuni tushuniladi. Baytda muallif aytmoqchi bo‘lgan fikr saqlanmasligi natijasida g‘azalda anglashilgan mazmun o‘zgarib, mantiq buzilishi yuzaga kelgan.

B(273^a) tayanch yordamchi manbaga ko‘chirilgan “*O‘tub qish mavsumi bazm eli fasli bahor o‘ldi*” misrasi bilan boshlanuvchi qasidaning qirq sakkizinchisidagi misrasida “*shikor*” so‘zi uchraydi. Bu so‘z A tayanch manbaga “*nigor*” bo‘lib ko‘chirilgan. She’r matni quyidagicha:

*Yetib har dam sitam ahlig‘a adlidin siyosatdur,
Mudom iqboli shahborig‘a dushmanlar shikor o‘ldi.*

Har dam haqsizlik, zulm qilganlargaadolat hukmrondur, davlatning eng a’lo duriga dushmanlar doim shikor(ovlamoq mazmunida) bo‘ldi, mazmuni anglashiladi. Bu bayt mazmuniga “*nigor*” so‘zi umuman mos tushmaydi.

Shunga o‘xhash yana bir misol, shu qasidaning ellik to‘rtinchi misrasidagi “*adlidin*” so‘zi 903/IV raqamlı qo‘lyozma devonga “*lutfidin*” bo‘lib ko‘chirilgan. Qasida bayti quyidagicha:

*Muallo ostonidin topib faqru g‘ino rohat,
Salotin ahli doim **adlidin** umidvor o‘ldi* (A tayanch manba.

234^a-bet).

B tayanch yordamchi manbada:

*Muallo ostonidin topib faqru g‘ino rohat,
Salotin ahli doim lutfidin umidvor o‘ldi.*

Birinchi bayt: baland, yuksak (muallo) ostonasidin kambag‘al va boyalar rohat topib, (xalq) Sultonlarning adolat ko‘rsatishidin doim umidvor bo‘ldi. Xalq shohlarning adolatli bo‘lishidan umidvor. Shunda kambag‘al ham boy ham rohat topadi.

Ikkinci bayt: baland ostonasidin kambag‘al va boyalar rohat topib, (xalq) Sultonlarning marhamatidan, yaxshilik qilishidan doim umidvor bo‘ldi. Bizningcha ikkinchi baytdagi “*lutfidin*” so‘zi keng qamrovga ega. Sababi, ushbu so‘z adolat, ehson, mehr-shavqat kabi hislatlarni o‘zida mujassam etadi.

Shoir devon qo‘lyozmalariga ko‘chirilgan “*Komimcha ishrat etmadim bir kecha jononim bila*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli *rajazi musammani solim vaznida* yozilgan g‘azal ko‘chirilgan. Bu g‘azalning yettinchi misrasida “Jon vahmi tushmish jismima” birikmasi uchraydi. Bu birikma A tayanch hamda B, D tayanch yordamchi manbalarga quyidagicha ko‘chirilgan:

*Vah, naylayin shavq o‘tidin dod **aylabon** ahboblar,
Xam bo‘ldi bilkull qomatim holi parishonim bila.*

(A tayanch manba. 196^a-bet.)

*Vah, naylayin shavq o‘tidin dod **aylamay** ahboblar,
Xam bo‘ldi bilkull qomatim holi parishonim bila.*

(V tayanch yordamchi manba. 253^b-bet).

*Vah, naylayin shavq o‘tidin **jon tushmish jismima**,
Xam bo‘ldi bilkull qomatim holi parishonim bila.*

(D tayanch yordamchi manba. 275^a-bet).

Birinchi va ikkinchi baytlardagi “aylabon” so‘zi “aylamay” tarzida o‘zgarishi g‘azal vazniga ta’sir etmagan. Biroq mazmun o‘zgargan. Uchinchi baytdagi “jon tushmish jismima” birikmasi vaznga ta’sir etib, g‘azal mazmunining o‘zgarishga sabab bo‘lgan.

Ushbu misra 2028(162^{a/b}) raqamli qo‘lyozma bayozga “Vah, naylayin shavq o‘tidin **jon vahmi tushmish jismima**” tarzida to‘g‘ri ko‘chirilgan. Bu qo‘lyozmalarning barchasi shoir yashagan davrda ko‘chirilgan bo‘lib, ko‘chiruvchi tomonidan xatolarga yo‘l qo‘yilgan.

Mutrib Xonaxarobning devon qo‘lyozmalarida uchramaydigan g‘azallari matnida ham bir qancha saktaliklar ko‘zga tashlandi. Bu saktaliklar kotib tomonidan bilvosita hamda bevosita amalgaga oshirilgan tahrir, desak adashmaymiz. Quyida bular haqida ma’lumot beriladi:

Hijriy 1328/1910-yilda Muhammad Sharif Muhammad Ya’qub devon ba Xarrot tomonidan ko‘chirilgan 2025 raqamli qo‘lyozma bayoz matnida shoirning ayrim g‘azallaridagi so‘zlar ishlatilishida ba’zi kamchiliklar ham uchraydi. Masalan, ramali musammani mahzuf (-V - -/-V - - /- V -) vaznida yozilgan *Ko‘nglum ichra, ey sumanbar, dog‘i hijronimni ko‘r*” misrasi bilan boshlanuvchi ushbu g‘azalning to‘rtinchi baytidagi “**yuz lak**” birikmasi “**yuz lek**” tarzida ko‘chirilgan. Tabiiyki, bu hol bayt mazmuniga ta’sir ko‘rsatgan:

*Intizingdin tuganmas dardima pobast o 'lub,
Ko 'nglum ichra necha **yuz lek** dardi pinhonimni ko 'r.
(Qo 'lyozma, 107^b-bet).*

Ma'lumki, "lek" so'zi Navoiy asarlari lug'atida "lekin" so'zining qisqargan shakli sifatida berilgan. Ushbu zidlov bog'lovchisi g'azal mazmunining buzilishiga sabab bo'lган. Asliyatda bu so'z لک (lak) shaklida yozilgan. "Lak" so'zi fors tilidan olingan bo'lib, "yuz ming" ma'nosiga ega. Kotib esa bu so'zga "ى" (i) harfini ortiqcha qo'shib, لیک (lek) tarzida "tahrir" etgan. Holbuki, matnshunos Nurboy Jabborov fikricha: "Matnning muallif ishtirokisiz amalga oshirilgan har qanday tahriri asar mohiyatiga zarar yetkazishi jihatidan maqsadga muvofiq emas".

She'r mazmunida oshiq yorini kutib, tuganmas dardga giriftor bo'lganidan ko'nglidagi dard necha yuz mingdan ham yuz karra ortiq darajaga yetganini anglash mumkin. Ushbu misralarda shoir mubolag'a san'atining g'uluv turidan foydalangan. Bundan ko'rindiki, matn mazmuni "yuz lek" birikmasi o'rniga "yuz lak" bo'lishini talab etadi.

Shu g'azalning to'qqizinchi misrasida عذر (uzor) so'zi uchraydi. Bizningcha bu so'z asliyatda عذر (uzr) bo'lган. G'azal bayti quyidagicha:

*Aylab **uzorimni** qabul, ey gul, xirom et, man sori,
Bo 'lsa ne jurmim sanga, ondin **pushaymonni** ko 'r.*

*Aylab **uzrimni** qabul, ey gul, xirom et, man sori,
Bo 'lsa ne jurmim sanga, ondin **pushaymonimni** ko 'r.*

"Uzor" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, yuz, bet; chakka ma'nolarni bildiradi. "Uzr" so'zi esa uch xil ma'noni ifodalaydi: 1. Kechirim; 2. Bahona, sabab; 3. Kamchilik.

Baytda oshiq yoridan uzrini qabul qilib, u tomon xirom etishini, xatolaridan pushaymon ekanini ko'rmog'ini iltijo etgani ifodalangan. Ayon bo'ladiki, "uzor" so'zining qo'llanishi g'aliz. Shu baytda kotib yana bir xatoga yo'l qo'yib, "Ondin **pushaymonimni** ko'r" birikmasidagi "-im" qo'shimchasini tushirib ko'chiradi. Natijada fikr ifodasidagi mantiq buzilgan.

6932 raqamli qo'lyozma bayoz hijriy 1328/1908-yilda *Mullo Muhammad Sharif ibn Muhammad Ya'qub devoni mulaqqab ba*

Xarrot tomonidan ko‘chirilgan. Negadir, ushbu bayozdagi Mutrib g‘azallarining ayrimlari matni saktaliklar bilan ko‘chirilgan. Jumladan, shoirning “*bir manmu?*” radifli g‘azalining sakkizinchisidagi “*hajring*” so‘zi esa ikki marta takror kelgan:

*Chiqarg‘a yetdi jonim emdi vahmi ijtinobingdin,
Bukim, hajring **hajring** o‘tini paykari so‘zoni bir manmu?*

Bunday kamchiliklarni ko‘plab uchratish mumkin. Ana shu kamchiliklardan yana biri shoirning “*Qil*” radifli g‘azali birinchi misrasida kuzatiladi. Misradagi “*Xandon qil*” birikmasidagi “*xandon*” so‘ziga “-*din*” qo‘shimchasi ortiqcha qo‘shilgan:

*Mani jono visoling shahdidin masruri xandondin qil,
Damodam ko‘rguzub lutfi karam ozodi hijron qil.*

“*Bu kecha bazmimg‘a kelgan la’li xandonimmudur*” misralari bilan boshlanuvchi g‘azalning birinchi misrasidagi “*La’li xandonimmudur*” birikmasi “*La’li xandondur*” ya’ni “-*immu*” qo‘shimchasi tushirib ko‘chirilgan:

*Bu kecha bazmimg‘a kelgan la’li xandonimmudur,
Sunbuloso iki yuz anbarafshonimmudur.*

Tabiiyki, bu hol vazn buzilishi bilan birga she’rning ohangdorligiga ham putur yetkazgan.

Mavzu doirasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Mutrib asarlarining Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi, Xiva Ichonqal‘a muzeyi, O‘zR FA ShI, Hamid Sulaymon fondida 2679/II, asosiy fondida saqlanayotgan 903/IV, 906/VII raqamli devon qo‘lyozmalari qiyosiy o‘rganilib, Mutrib Xonaxarob asarlari ko‘chirilgan devon qo‘lyozmalari orasidan *tayanch manba* sifatida 2679/II raqamli qo‘lyozma devon tanlandi hamda “A” harfi bilan belgilandi. Qolgan 903/IV, 906/VII raqamli devon qo‘lyozmalari *tayanch yordamchi manbalar* sifatida olindi. Bular “B”, “D” harflari bilan belgilandi.

Shoir devoni qo‘lyozmalaridagi g‘azallar matnini qiyosiy o‘rganishda bir qancha xatolar ko‘zga tashlandi. Bu holni bartaraf etish uchun shoir yashagan davrda ko‘chirilgan qo‘lyozma bayoz, qo‘lyozma tazkira, qo‘lyozma majmualardagi Mutrib she’rlari tahlil etildi. Ushbu qo‘lyozma manbalar shoir she’rlari matnini tiklashda *yordamchi manba* vazifasini o‘tashini ta’kidlash kerak.

Shoir she'riy asarlarini o‘rganishda matn tarixi muammosi birinchidan, bir lirik asar doirasida so‘z va misralarning o‘zgarishi, ikkinchidan, bir lirik asardagi bandning tubdan farq qilishi jihatidan yuzaga kelgani misollar orqali ko‘rsatib berildi.

Shoir nazmiy asarlarida matn tahriri masalasi 1) muallif o‘zi yaratgan asarning keyinchalik matndagi faktlarni boyitishi va kengaytirishiga qaratilgan tahrir; 2) kotib tahriri kabi ilmiy tasnif asosida amalga oshirildi. Ishning bunday tasnif asosida bajarilishi muallif variantiga yaqin, ishonchli matnlarini tiklash imkonini berishi bilan ham muhim ahamiyatga ega.

Savollar:

1. Mutrib ijodida matn tarixi va tahriri masalasi qanday?
2. Mutribning qaysi she’ri matn tarixiga misol bo‘la oladi?
3. Muallif va kotib tahriri deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Xorij olimlarining matnshunoslikka oid ilmiy-nazariy adabiyotlari bilan tanishish.
2. Matn tarixi va tahririga doir tadqiqotlarni o‘qish.

O‘qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Жабборов Н. Ўзбек матншунослиги ва унда матн танқиди, илмий-танқидий матн истилоҳларининг ўрни./Ўзбек мумтоз адабиётини ўрганишнинг назарий ва манбавий асослари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Тошкент, Mumtoz so‘z, 2019. – Б.12.

2. Жабборов Н. Бадиий матн таҳрирининг хос хусусиятлари. – “Ўзбек адабиётшунослигига талқин ва таҳлил муаммолари” мавзуидаги илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, Мумтоз сўз, 2014. –Б. 28.

3. Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Тошкент, Navoiy universiteti, 2019. – Б.18.

4. Пардаев Қ. Муқимий шеъриятида матн тарихи, таҳрири ва талқини. Дисс. фил. фан. док.(DSc). – Тошкент, 2019. – Б. 41.

5. Мухаммадиева Ю. Ферузнинг бадиий маҳорати. Ф.ф.б.ф.д. (PhD) дисс. Тошкент, 2021. –Б. 40-41.

6. Лихачев Д.С. Текстология. Краткий очерк. – М. –Л: Наука, 1964. – С.7.

7. Навоий асарлари луғати (Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 184.

8. Бу сўз араб тилидан олинган бўлиб, хурсанд, шод; хушчақчақ маъноларига эга. **القاموس العربي الأوزبكي**. АН-НА’ЙМ. /Арабча ўзбекча луғат. (Тузувчилар: О.Носиров, М.Юсупов ва бошқалар). // –Тошкент, Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. –Б. 613.

9. Томашевский Б.В. Писатель и книга. Очерк текстологии. Изд. 2-е, – М., 1959, стр. 148.

10.Жабборов Н. Матн тарихи ва унинг генезисига доир айрим мулоҳазалар. /Ўзбек филологиясида матншунослик ва манбашунослик муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. 1-китоб. – Наманган, 2021. – Б. 5-12.

11.Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-иқбол” – адабий манба. – Тошкент, Muharrir, 2009. –Б. 22.

12.Лихачёв Д.С. При участии А.А. Алексеева и А.Г. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – Санкт-Петербург, Изд-во “Алетейя”, 2001, стр. 33.

13. Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Дисс. фил. фан. док.(DSc). – Тошкент, 2018. – Б. 191.

14.ЎзР ФА ШИ Асосий фонд, Огаҳий. Таъвиз ул-ошиқин. №1529. –Б. 116^б-117^а.

MUTRIB SHE'RLARIDAGI MATN TAFOVUTLARI TAHLILI

Reja:

1. Shoirning davriy matbuot nashrlaridagi she'rlarini qo'lyozma manbalar asosida tahlil qilish
2. Risola-majmuadagi⁷ she'rlarni devon qo'lyozmalari bilan qiyosiy o'rghanish
3. Risola-majmuadagi she'rlarning qo'lyozma bayoz hamda majmualardagi matniy tahlili

Tayanch so'zlar: majmua, tayanch yordamchi manba, qo'lyozma, bayoz, risola-majmua, bayt, misra, band, izofa, tafovut, g'azal, radif, nashr, tazkira.

Har qanday asarning manbalararo matniy tafovutlarini aniqlash va muallif variantiga yaqin mukammal variantini tiklash matnshunoslikning asosiyligi muammolaridan hisoblanadi. Shu paytgacha Mutrib ilmiy faoliyati xususida ba'zan umumiyligi tarzda, ba'zan maxsus maqolalar e'lon qilingan bo'lsa-da, shoir she'rlari matniy jihatdan maxsus tadqiq etilmagan. Shoirning XIX asr oxiri XX asr boshlarida ko'chirilgan devon qo'lyozmalari, qo'lyozma bayozlar, majmua (to'plam) hamda tazkiralarga kiritilgan she'rlaridan ayrimlari joriy imloda nashr etilgan. Ushbu nashrlarni shoir asarlarining asliyati bilan qiyoslaganda ular orasida matniy tafovutlar borligi ko'zga tashlanadi. Bunday matniy xatoliklar tabiiyki, ayrim o'rnlarda so'zlarning noto'g'ri o'qilishiga olib kelgan bo'lsa, ayrim hollarda shoir ifodalamoqchi bo'lgan poetik mazmunning o'zgarib ketishiga, matniqdan uzoq g'aliz jumlalar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bu esa o'z navbatida, Mutrib asarlarining asliyat asosidagi qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirishni kun tartibiga qo'yadi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotda Mutrib lirik asarlari asliyati (devon qo'lyozmalari, qo'lyozma tazkira, majmua (to'plam), bayozlardagi she'r matnlari) bilan ularning nashr varianti (hozirgi kunda e'lon qilingan vaqtli matbuot nashrlari, internet sahifalari,

⁷ Bu yerda Matnazar Pirnazarovning "Mutrib Xonaxarobiy(Risola-majmua)"si nazarda tutilyapti.

shoir she'rlarining turli to'plam(risola-majmua, o'zbek adabiyoti xrestomatiyasi)lari o'zaro muqoyasa etildi. Ta'kidlanganidek, shoir asarlari nashrga tayyorlanish jarayonida o'zgarishlarga uchragan va bu o'zgarishlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) bayt va misralarning tushib qolishi
- 2) so'zlarning noto'g'ri o'qilishi
- 3) izofalarning noo'rin qo'llanilishi, tushirib qoldirilishi
- 4) qo'shma so'zlarning to'g'ri yozilmasligi
- 5) so'zlarning leksik jihatdan farq qilishi.

1. Bayt va misralarning tushib qolishi. B(264^a) tayanch yordamchi manbada Mutribning "Etding mani" radifli g'azali berilgan. G'azal 7 baytdan iborat bo'lib, u "Guliston jurnali"ning 1974-yil 7-soni (28-bet)da nashr etilgan. Biroq g'azal nashrda 6 bayt shaklida uchraydi:

*Nazzorayi husning uchun har lahza furqat dashtida,
Qon yig'latib, dahr ahlig'a bee'tibor etding mani.*

Bu bayt devon qo'lyozmasiga to'rtinchi o'rinda keladi. Ammo asossiz ravishda nashrdan tushirib qoldirilgan.

B(205^b), D(139^b) tayanch yordamchi manbalarga "Fido" radifli 7 baytli g'azal ko'chirilgan. Bu g'azal ham M.Pirnazarovning "Mutrib Xonaxarobiy (Risola-majmua)"⁸ risolasiga (7-bet) 6 bayt qilib beriladi. Quyidagi bir bayt nashrdan tushib qolgan va u devon qo'lyozmalarida to'rtinchi o'rinda uchraydi:

*Rahm etib, kulgum sori qilsang xiromon noz ila,
Jismi jonim yo'linga, ey ko'nglum olg'onim, fido.*

Mutribning B(208^a), D(241^b) tanyach yordamchi manbalarga ko'chirilgan "Yo Rab" radifli 7 baytli g'azali ham risola-majmua (11-bet)da 6 bayt tashkil etadi.

*Vafot mehrin tilab ajzu niyoz etsam janobig'a,
Qilur har kun fuzunroq, jonima javru sitam, yo, rab.*

Yuqoridagi bayt asliyatda beshinchchi o'rinda berilgan.

B(208^b), D(242^a) tayanch yordamchi manbalardagi 7 baytli "Ko'rub" radifli g'azal risola-majmua (11-bet)ga 5 bayt qilib berilgan. Nashrda ikki bayt tushib qolgan:

⁸Matnazar Pirnazarovning 2001-yildagi "Mutrib Xonaxarobiy(Risola-majmua)"si keyingi o'rnlarda risola-majmua kabi beriladi.

*Ming turfa savdolar solib boshimg‘a qotil ko‘zлari,
Rahm etmas hijron⁹ qaydida iki ko‘zum qonin ko‘rub.*

*Bilmon ne zolimdur, manga ortar jafosi dambadam,
Qilmas dame obod hazin ko‘nglumni vayronin ko‘rub.*

Ushbu baytlar tayanch yordamchi manbalarda to‘rtinchchi hamda oltinchi o‘rinda keladi. Misollardan ko‘rinadiki, baytlarni tushirib qoldirishga asos yo‘q. Ehtimol noshirlar nashrga tayyorlagan manbada baytlar ko‘chirilmagandir.

B(230^a-228^a) tayanch yordamchi manbadan o‘rin olgan “*Ketur soqiyo sog‘ari lolarang*” misrasi bilan boshlanuvchi mutaqoribi musammani mahzuf vaznida yozilgan 10 baytli g‘azal risola-majmua (30-bet)da 8 bayt. Tushib qolgan baytlar quyidagicha va ular asliyatda yettinchi hamda sakkizinchchi o‘rinda berilgan:

*Boshimg‘a tushub hajr aro ko‘p alam,
Havo birla nafsimga bergach malang.*

*Labi yodida manda hech qolmadi,
Ne osori xushu, ne nomusu nang.*

B(233^b), D(256^a) tayanch yordamchi manbalardagi “*Sayri gulshan aylarga, ey go‘zal, xiromon qil*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azal risola-majmua (31-bet)da 6 bayt. Tushib qolgan bayt shoir devon qo‘lyozmalariga beshinchchi o‘rinda keladi. Ushbu bayt quyidagicha:

*Uch aysh uzra ulfat bo‘lmoqingni izhorin,
Qolsun anglamay ag‘yor ishq ishini pinhon qil.*

B (194^{a/b}) tayanch yordamchi manbadagi “*Ey sho‘x, g‘amza tiyg‘ini chekmak nedur jon ustina*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azal risola-majmuada faqat 6 bayti berilgan:

*O‘lturdi g‘amzang novaki gulshan aro ko‘rgan kishi,
Shirin kaloming dur sochib, man zori hayron ustina.
Gul orazing uzra ajab zeb ila mushkin xollari,
Ne xush yaroshur borchasi ul la‘li xandon ustina.*

(Risola-majmua. 35-bet).

⁹Ushbu g‘azalning “Rahm etmas hijron qaydida iki ko‘zum qonin ko‘rub” misrasi: ----/-V-/-V--V- shaklida bo‘lib qolgan. G‘azal rajazi musammani solim vazni(Mustaf‘ilun, mustaf‘ilun, mustaf‘ilun, mustaf‘ilun:--V-/-V--V/-B)da yozilgan.

Nashrda bu g‘azalning birinchi bayti ikkinchi misrasi, ikkinchi bayti uchinchi misrasi sababsiz qisqartirilgan. Bundan tashqari “Kishi” so‘zi nashrga “Chog‘i” bo‘lib tahrir etilgan. Bu hol mazmunga ta’sir etmasa-da, keyingi o‘rindagi “Borchasi” so‘zining “-si” egalik qo‘sishimchasi tushib qolishi evaziga she’r vaznida saktalik yuzaga kelgan.

Mutribning B (270^b-271^a) tayanch yordamchi manbadagi Munis (*Xiromon qomatingkim, gulshani umrim niholidur*) misrasi bilan boshlanuvchi g‘azaliga yozgan 9 bandli taxmisi ko‘chirilgan. Ushbu taxmisning yettinchi bandi risola-majmua (38-bet)ga quyidagi tarzda tabdil qilingan:

*Bo‘lub navras niholing fayzidin ushshoqlar masrur,
Majolis ichra bukim fosh erur iki yuzingdin nur,
Jahon husning bahori birla firdavsi paridekdur,
Yo‘q ersa ko‘ngluma bo Ollohki, ul do‘zax misolidur.*

Dastlabki ikki misradan keyin keluvchi uchinchi misra nashrda tushirib qoldirilgan. Tushirib qoldirilgan bu misra quyidagicha:

Hazin ko‘nglum g‘aminkim, bodayi vasling-la barham ur.

Bundan tashqari shoir she’rlari misralarida so‘z va misralarning noto‘g‘ri o‘qilishi ham bir necha o‘rinlarda ko‘zga tashlanadi. Bu hol shoir she’rlarining poetik mazmuniga, she’r qolipiga jiddiy ta’sir etgan.

2. So‘zlarning noto‘g‘ri o‘qilishi. Shoir she’rlari nashrida so‘z va misralarning noto‘g‘ri o‘qilishi juda ko‘p o‘rinlarda ko‘zga tashlanadi. Bu hol shoir asarlari mohiyatan asliyatdan uzoqlashishiga hamda poetik mazmunining o‘zgarishiga olib kelgan. Masalan, Mutribning “Guliston jurnali” 1974-yil 7-son 28-sahifasiga ko‘chirilgan “Etding mani” radifli g‘azalining birinchi misrasida “Beixtiyor” so‘zi uchraydi. Bu so‘z nashrga “Ne ixtiyor”, shu baytning ikkinchi misrasidagi “Ruxingg‘a” so‘zi esa, “Zahingg‘a” tarzida noto‘g‘ri berilgan:

*Jono, yuzing ko‘rgan chog‘i ne ixtiyor etding mani,
Sham‘i zahingg‘a har zamon parvonavor etding mani.*

“Ixtiyor” so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, tanlash, saylash, xohish, erk, huquq kabi ma’nolarni bildirsa-da, “Be” qo‘sishimchasi bilan (Be+ixtiyor) kelganda ixtiyorsiz, ixtiyori o‘zida bo‘lmagan kishi tasviri anglashiladi. Nashrdagi “Ne ixtiyor” hamda “Zahingga”

so‘zlarining berilishi orqali mazmun quyidagicha o‘zgaradi: *jono, sani ko‘rgan chog‘imda mani ne(nega) ixtiyor etib qo‘yib, har zamonda shamdek yorug‘ zahingg‘a parvonavor etding.*

Tabdil qilish jarayonida asliyatdagi بى اختيار so‘zidagi بى (be) harfiga qo‘yilgan nuqta ust qismida qo‘yilgan bo‘lsa, نى اختيار (ne ixtiyor) bo‘lib o‘qilgan. ر (rux) so‘zidagi ر (re) harfini ustiga qo‘yilgan nuqtani ham xuddi shu shaklda izohlash mumkin. Biroq so‘zlarning noto‘g‘ri o‘qilishi bayt mazmuniga ta’sir etgan.

Ushbu bayt B(264^a) tayanch yordamchi manbada quyidagi ko‘rinishda uchraydi:

*Jono, yuzing ko‘rgan chog‘i beixtiyor etding mani,
Sham‘i ruxingg‘a har zamon parvonavor etding mani.*

Baytning nasriy bayoni: *jono, sani ko‘rgan chog‘imda mani ixtiyorsiz etib qo‘yib, har zamonda shamdek yorug‘ yuzingg‘a parvonavor etding.*

G‘azalning o‘ninchisi misrasida “Behad xumor etding mani” birikmasi uchraydi. Bu birikma nashrga “Badxumor etding mani” kabi tahrir etilgan:

*Jonimni o‘rtab hajr aro la‘ling tamannosi uchun,
Shirin kaloming shahdig‘a badxumor etding mani.*

B tayanch yordamchi manbada:

*Jonimni o‘rtab hajr aro la‘ling tamannosi uchun,
Shirin kaloming shahdig‘a behad xumor etding mani.*

“Behad” so‘zi “Hadsiz”, “Cheksiz” kabi ma’nolarni bildiradi. “Badxumor” so‘zi forsiy, arabiylar so‘zlardan yasalgan bo‘lib, “Ichkilikdan keyingi eng yomon holat, o‘ta xumori” ma’nosini beradi.

Baytda anglashilgan ma’no (B tayanch yordamchi manbadagi): *labingni orzusi uchun ayriliqda jonim o‘rtandi, (sen esa) shirin so‘zingni bolig‘a behad(hadsiz, cheksiz) xumor etding.*

Nashrda: *labingni orzusi uchun ayriliqda jonim o‘rtandi, (sen esa) shirin so‘zingni bolig‘a badxumor etding.*

Xorazm lahjasida “Badxumor” so‘zi “Juda yomon xumor bo‘ldim” mazmunida ham ishlatiladi. Ko‘ringanidek, bayt mazmunida unchalik o‘zgarish sezilmasa-da, vazn jihatida xatolik yuzaga kelgan.

Shu g‘azalning oltinchi baytida ham qo‘yidagicha o‘zgarishni ko‘rish mumkin:

*Ko‘rgach yuzung tobonini toki chaman sayronida,
Doim firoq ichra g‘aming chekkani zor etding mani.*

Ushbu bayt B tayanch yordamchi manbada bunday ko‘chirilgan:

*Ko‘rgach yuzung tobonini nogah chaman sayronida,
Doim firoq ichra g‘aming changiga tor etding mani.*

G‘azal rajazi musammani solim (mustaf‘ilun, mustaf‘ilun, mustaf‘ilun, mustaf‘ilun: - - V - / - - V - / - - V - / - - V -) vaznida yozilgan.

Nashrda “nogah” so‘zi “toki”, “Changiga tor etding mani” birikmasi esa “Chekkani zor etding mani” kabi tahrirga uchrashi bayt mazmunida g‘alizlikni yuzaga keltirgan. Bayt mazmunidan *oshiq gulzorda aylanib (chaman sayronida)* yurganida nogahon yorning chaqnab turgan yuzini ko‘rganligini bayon etadi va shu bilan yor (uni) doim ayriliq g‘amida cholg‘u asbobiga tor etgani mazmuni anglashiladi. “Toki” hamda “Chekkani zor” so‘zlarining qo‘llanilishi mazmunda g‘alizlikni yuzaga keltirgan. “Toki” so‘zi bog‘lovchi vazifasida keladi. Ammo baytda maqsad, mazmunni ochib bermaydi. “Nogah” so‘zi esa bir zumda, tez fursatda yuzaga kelgan voqeа. “Chekkani zor” birikmasi hech qanday ma’no anglatmaydi.

Shu g‘azalning maqta’ qismidagi “Yor” so‘zi nashrda “zor”ga o‘zgargan:

*Zindon hajr ichra agar Mutribni band aylar esang,
Zotinga, ey gulrux, ne deb avvalda zor etding mani.*

B tayanch yordamchi manbada:

*Zindon hajr ichra agar Mutribni band aylar esang,
Zotingg‘a, ey gulrux, ne deb avvalda yor etding mani.*

Baytda anglashilgan ma’no: ey gulrux, Mutribni judolikda, ayriliqda (qoldirib) zindon ichida kishanlamoqchi ekansan, ne deb sohibingg‘a (o‘zingg‘a) mani avvaldan yor etding.

Nashrda: ey gulrux, Mutribni judolikda, ayriliqda (qoldirib) zindon ichida kishanlamoqchi ekansan, ne deb sohibingg‘a (o‘zingg‘a) mani avvaldan zor etding.

Baytda shoir “Yor” so‘zi orqali oshiqning avval ma’shuqa tomonidan (yor sifatida) qabul qilingani, keyin u ma’shuqaning

azobiga giriftor etilishi tasviri gavdalantirilgan. Agar baytda “Zor” so‘zi qo‘llanilsa, mantiq buziladi.

Matnazar Pirnazarov tadqiqot ishida shoir g‘azallarida ko‘plab badiiy san’atlar qo‘llanilganiga doir misollarni keltiradi. Chiroyli tahlillar asosida shoirning badiiy mahorati ochib beriladi. Biroq bu misollardagi so‘zlarning matniga e’tibor qaratilsa, ularda ayrim matniy farqlar borligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, M.Pirnazarov “Mutribning san’atkorlik mahorati” faslida: “...Xalq poeziyasida yozma she’riyatda ham poetik fonetika alliteratsiya usulining mazmun va shaklga ijobiy ta’siri bor. Mutribning quyidagi “S” tovushining takrorlanishi shu jihatdan xarakterli:

Sazrin kaloming Mutrib o sargashtani sayd etib,

Har bir so‘zing ey maxliquo_jon bergusi_jon bergusi – tarzida shoirning takrorga asoslangan yoyiq radifli g‘azalining maqta’ qismidan misol keltiradi [Pirnazarov, 1973, 87-97]. Xo‘sh, ushbu baytdagi “poetik fonetika alliteratsiya usuli” qay holatda yuzaga kelgan, so‘zlarning noto‘g‘ri o‘qilishi evazigami? Baytdagi “Sayd” so‘zi g‘azalning vazniga hamda mazmuniga ta’sir etadi. “Sazrin” so‘zi esa xato o‘qilgan. Aslida bu bayt: “Ey Mahliquo, (sening) shirin so‘zing boshi aylangan Mutribni xursand etadi. Ey oy yuzli (yor), har bir so‘zing jon bag‘ishlaydi, jon bag‘ishlaydi” mazmuniga ega! Asliyat (903/IV inv. (261^a)da esa ushbu bayt:

Shirin kaloming Mutribi sargashtani xursand etib,

Har bir so‘zing, ey mohliquo, jon bergusi, jon bergusi – kabi ko‘chirilgan.

Alliteratsiya san’ati esa, bilganimizdek, muayyan tovushlar takroriga quriladi. Yuqorida qayd etilgan misralarda esa faqat “sargashta” va “xursand” so‘zlarida “s” tovushi takrorlangan. Tabiiyki, biz buni tom ma’nodagi alliteratsiyaga misol bo‘la oladi, deb hisoblay olmaymiz. Alliteratsiya (Tavze) – she’rda, jumlada, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi. Tovushlar ohangdorligi, asosan bir xil tovushlarning takrorlanishidan hosil bo‘lgan ohangdoshlik alliteratsiya deb yuritiladi [O‘ZME, 2000]. Bunga misol qilib Furqatning “Sayding qo‘yaber, sayyod, sayyora ekan mendek...” misrasi bilan boshlanuvchi musaddasi yoki bo‘lmasa, E.Vohidovning “Qaro

qoshing, qalam qoshing, Qiyiq qayrilma qoshing qiz...” kabi misralari bilan boshlanuvchi she’rlarini eslash kifoya.

3.Izofalarning noo‘rin qo‘llanilishi hamda tushirib qoldirilishi.

Ma’lumki, izofa forsiy tildan kirib kelgan. Har bir lirik asar matnida izofalar o‘z o‘rniga ega. Agar matnda izofalar aks etmas ekan, bu hol mazmunga hamda vaznga ta’sir etadi. Mutrib she’rlarining joriy nashrlarida izofalarning qo‘llanilmasligi, noo‘rin qo‘llanilishi holati ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, B(218^b), D(248^b) tayanch yordamchi manbalarga “*Ey ko‘ngul, o‘rtanma ko‘p sarvi xiromoning kelur*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan g‘azal ko‘chirilgan. Bu g‘azalning uchinchi misrasida “Shomi furqat” birikmasi uchraydi. Ushbu birikma Abdurashid Abdug‘afurov tayyorlagan nashrda “Shomu furqat” tarzida berilgan [Abdug‘afurov, <https://kh-davron.uz>]. Bundan tashqari g‘azalning to‘rtinchi misrasida “Xurshidi ruxsoring kelur” birikmasi “Xurshidi raxshoning kelur” kabi xato tabdil qilingan. G‘azalning nashr variantida ushbu bayt quyidagicha:

*Shomu furqat ichra bo‘lgan ko‘zlaringni tiyrasin,
Qilg‘ali ravshan bu tun xurshidi raxshoning kelur.*

Devonning B, D tayanch yordamchi manbalarida bayt matni o‘zgacha berilgan:

*Shomi furqat ichra bo‘lgan ko‘zlaringni tiyrasin
Qilg‘ali ravshan bu tun xurshidi ruxsoring kelur.*

“Raxshon” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, yaltiroq, porloq, toblanuvchi ma’nolarini beradi. “Ruxsor” so‘zi esa yuz, chehra degani.

Bayt mazmuni: *Ayriliq zulmatida bo‘lgan ko‘zlaringning qorasini ravshan qilmoq uchun bu tun quyosh yuzliging kelur.*

Nashrda: *Ayriliq va zulmatda bo‘lgan ko‘zlaringning qorasini ravshan qilmoq uchun bu tun porloq yuzliging kelur.*

Nashrdagi “Xurshidi raxshoning kelur” birikmasida mazmun “porloq yuzliging kelur” bo‘lib qolgan. “Shomu” so‘zidagi “U” esa “Va” vazifasida kelgan. Bu yerda “Va” bog‘lovchisi noo‘rin qo‘llanilgan. Asliyatdagi “Xurshid ruxsoring” mazmunga mos keladi.

Shu g‘azalning sakkizinchi misrasida ham ayrim farqlar ko‘zga tashlanadi. Nashrda:

Lutf birla zahr hijrondin o‘lgan jismima,

Tozadin jon bergali Isoi davroning kelur.

B, D tayanch yordamchi manbalarda esa ushbu bayt:

Lutf birla zahri hijrondin o‘lgan jisminga,

Tozadin jon bergali Isoyi davroning kelur – tarzida keladi.

Shoir bu g‘azalning boshidan oxirgi baytigacha ma’shuqanining yor ishqida chekkan azoblari tufayli ko‘ngliga malham bo‘luvchi yupanch so‘zlarini bayon qiladi. Tayanch yordamchi manbalardagi “Jisminga” so‘zi orqali tushunish mumkinki, oshiq ma’shuqa ishqida ayriliqda chekkan achchiq og‘riqli azobidan o‘lgan jismiga xuddi Iso Masihga o‘xshagan tiriltiruvchi yor unga yangidan jon bergali kelishi mazmuni anglashiladi.

Agar nashrda berilgan “Jismima” variantini tahlilga tortsak, mazmun ma’shuqanining ko‘ngliga emas to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘z-o‘ziga aytilgandek mazmun anglashiladi. Asliyatda berilgan ikkinchi shaxs birlikdagi so‘z nashrda birinchi shaxs birlikda bo‘lib qolgan. Bundan tashqari “Isoyi” aslida “-yi” izofasi bilan berilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Qo‘lyozmada “Iso” ismi عسیی shaklida berilgan. Bu so‘zni joriy nashrda vazn talabi bilan “Isoyi” yoki “Isiyi” kabi berish kerak.

Shoirning 7 baytli “Paydo” radifli g‘azali joriy nashrlarida jiddiy matniy xatolik bilan nashrga tayyorlangan. Ushbu g‘azal nashrida bir bayt tarkibida “so‘zlarning leksik jihatdan farq qilishi”, “so‘zlarning noto‘g‘ri o‘qilishi”, “izofalarning noo‘rin qo‘yilishi” ko‘rinishida ko‘zga tashlanadi.

Lirik asarlarda berilgan har bir so‘z o‘z mazmuniga ega. Agar joriy nashrda bu so‘zlar leksik jihatdan farq qiladigan darajada o‘zgarishga uchrasa, bayt mazmuniga ta’sir etadi. So‘zlarning tushib qolishi esa she’r qolipining buziladi. Misralarning noto‘g‘ri o‘qilishi ham shoir asarlaridagi g‘oyalardan yiroqlashishiga olib keladi.

Dastlab, Polvonnazir Bobojonov tomonidan tayyorlangan nashr xususida to‘xtalamiz. U Laffasiy tazkirasini tabdilida, “Mutribkim, Muhammad Husayin devon Xoji tabib o‘g‘li” - “Husayin” deb beradi, ammo Mutrib otasining ismi “Hasan”. Qo‘lyozmada ham حسن “Husan” berilgan. “Husan” bo‘lishi uchun bu ism arabchasi حسین “Husain” kabi yozilshi kerak. Nashr jarayonida, bu ism tarixiy manbalardan

xabarsiz holda “Husan” tarzida xato o‘qilgan (84-85-betlar). Bundan tashqari, shoirning ushbu nashrda e’lon qilingan “paydo” radifli g‘azali matnida ham bir qancha matniy nomuvofiqliklar ko‘zga tashlanadi. Bu g‘azal Matnazar Pirnazarov tomonidan nashrga tayyorlangan “Mutrib Xonaxarobiy (risola-majmua)”sida hamda Bolta Davlatovning “Xorazm haqiqati” gazetasi (1991-yil, 20-iyul soni)da ham nashr qilingan. Matndagi farqlar B(203^b), D(238^b) tayanch yordamchi manbalar hamda Laffasiyning 12561(140^a) raqamli qo‘lyozma tazkirasi asosida qiyosiy o‘rganildi.

G‘azalning birinchi baytidagi “Hamdingdin” so‘zi Matnazar Pirnazarov tayyorlagan risola-majmuaga “Hamdamingdin” shaklida o‘zgarishga uchragan:

*Zihi jonlarg‘a hamdamingdin bo‘lib fayzu safo paydo,
Xayolingdin ko‘ngullarga bo‘lib har muddao paydo.*

Tayanch yordamchi manbalarda, Laffasiyning qo‘lyozma tazkirasida, B.Davlatov hamda P.Bobojonov tayyorlagan nashrlarda quyidagicha to‘g‘ri beriladi:

*Zihi jonlarg‘a hamdingdin bo‘lib fayzu safo paydo,
Xayolingdin ko‘ngullarga bo‘lib har muddao paydo.*

G‘azal hazaji musammani solim(mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun(V---/V---/V---/V---) vaznida yozilgan.

“Hamdam” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, ulfat, birga yuruvchi; o‘rtoq, do‘sit degan ma’nolarni beradi. “Hamd” so‘zi esa arab tilidan olingan bo‘lib, 1. Maqtov madh; 2. Shukr, tashakkur deganidir.

Ma’nosi: *Sening hamdingdan jonlarga naqadar ajoyib fayzu safo hosil bo‘lib, Sen haqingda xayol surishdan ko‘ngullardagi barcha muddao-maqsadlar yuzaga chiqadi.*

Nashrdagi bayt mazmuni: *Sening do’stligingdan jonlarga naqadar ajoyib fayzu safo hosil bo‘lib, Sen haqingda xayol surishdan ko‘ngullardagi barcha muddao-maqsadlar yuzaga chiqadi.*

Baytdagi “Hamd” so‘zi “Hamdam” deb noto‘g‘ri o‘qilganligi sababli baytdagi ma’no o‘zgarib, mazmunga ta’sir qilgan.

Ushbu g‘azalning uchinchi bayti Laffasiy qo‘lyozma tazkirasida quyidagicha ko‘chirilgan:

*Qilib charx uzra xurshid ... mahni jilvagar tun-kun,
Olardin qudrating birla jumla(y)i olamg‘a ziyo paydo.*

Ushbu baytda “-ila” bog‘lovchi vazifasidagi ko‘makchi tushib qolgan. Keyingi misradagi ko‘makchi vazifasida kelgan “-la” so‘zi o‘zgarib, “Birla” shaklida berilgan.

Tazkira nashrida:

*Qilib charx uzra xurshid **monand** jilvagar tun-kun,
Olardin qudratingla jumla_ olamg‘a ziyo paydo.*

“Monand” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, “O‘xhash” degani. Baytdagi “Xurshid ila mahni” birikmasi “Xurshid monand” bo‘lib o‘zgaradi. Bundan tashqari “-la” ko‘makchisi she’riy shaklda berilganda chiziqcha bilan yozilishi maqsadga muvofiqdir. Bu bilan baytda imloviy xatoga yo‘l qo‘yilgan. “Jumlayi olamg‘a” birikmasining “Jumla olamg‘a” bo‘lib kelishida izofa berilmagan.

Ushbu bayt risola-majmuada quyidagicha uchraydi:

*Qilib **charxi** xurshid **ila to** jilvaki tun-kun,
Olardin qudrating-la jumla_ olamg‘a ziyo paydo (5-bet).*

B.Davlatov tamonidan tayyorlangan nashrda:

*Qilib **xurshid** **charx** uzra ajoyib jilvagar tun-kun,
Olardin qudratingla jumlai olamga ziyo paydo.*

Tayanch yordamchi manbalarda quyidagicha to‘g‘ri berilgan:

*Qilib **charx** uzra xurshid **ila mahni** jilvagar tun-kun,
Olardin qudrating-la jumlayi olamg‘a ziyo paydo.*

Baytning nasriy bayoni: *Osmonda oy va quyoshni tunu kun nur-jilva sochuvchi qilib qo‘ygansan. Bu ikkovidan Sening qudrating bilan butun olamga ziyo-yorug‘lik paydo bo‘ladi.*

Quyida shu g‘azalning to‘rtinchi bayti qo‘lyozma tazkirada hamda tayanch yordamchi manbalardagidek aynan saqlangan:

*Birov husn avji uzra guljabinu qaddi mavzundur,
Birovda ishq aro bulbul kabi tun-kun navo paydo.*

Bu to‘rtinchi bayt nashrlarda quyidagicha beriladi:

M.Pirnazarov tayyorlagan risola-majmuada,
*Birov husni avji uzra **jibin** qaddi mahzundur,
Birov to ishq aro bulbul kabi tun-kun navo paydo.*

P.Bobojonov nashrida:

*Birovkim husnu shavqda guljabinu qaddi mavzundur,
Birov ishq aro bulbul kabi tun-kun navo paydo.*

B.Davlatov nashrida:

*Birov husn ahli ichra gul jabinu qaddi **muzundur**,*

Birovda ishq aro bulbul kabi tun-kun navo paydo.

G‘azalning o‘ninchি baytidagi “Shavq” so‘zi risola-majmuada “Ishq” bo‘lib tahrir etilgan. “Oshiqlaringg‘a” so‘zidagi “-ga(-g‘a)” jo‘nalish kelishigi esa tushib qolgan. Natijada bayt mazmuni o‘zgarib, vazn saktaligi yuzaga kelgan. Ushbu bayt quyidagicha:

*Bu yanglig ‘husn ila ma ’shuqliq izhor etib, har dam,
Qilib oshiqlaring ishq aro bo ‘yi vafo paydo.*

Bu bayt B.Davlatov nashrida:

*Bu yanglig ‘husn ila ma ’shuqaliq izhor etib, hardam,
Qilib oshiqlariga shavq aro bo ‘yi safo paydo.*

Tayanch yordamchi manbalar, Laffasiy qo‘lyozma tazkirasi hamda P.Bobojonov tayyorlagan nashrda shoir devon qo‘lyozmalaridagi kabi quyidagicha to‘g‘ri beriladi:

*Bu yanglig ‘husn ila ma ’shuqliq izhor etib, har dam,
Qilib oshiqlaringg‘a shavq aro bo ‘yi vafo paydo.*

Baytning nasriy bayoni: *bunga o ‘xhash husn bilan har dam ma ’shuqliqni izhor etib-ko ‘rsatib, oshiqlaringga shavq bilan vafoning hidini-asarini(izini) paydo qilasan.*

Shu g‘azalning o‘n ikkinchi misrasida “Naxl” so‘zi uchraydi. Bu so‘z P.Bobojonov, B.Davlatovlar nashrlarida “Nahl” bo‘lib berilgan. “X” va “H” harflarining o‘zgarishi bayt mazmunining o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. Masalan, “Naxl” so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, 1. Ko‘chat, yosh daraxt; 2. Xurmo daraxti ma’nolarini anglatса, “Nahl” esa “Asalari” degan ma’noni beradi. Ushbu bayt quyidagicha:

*Etib lutfing bahori tiyra tufroqdin jahon ichra
Ming alvon ne’matu yer uzra nahli dilkusho paydo.*

Baytdagi “Ne’matu yer” (Ne’mat va yer) shaklida berilgan birikma matn kontekstida tarqoqlikni yuzaga keltiradi. Tayanch yordamchi manbalarga, qo‘lyozma tazkiraga hamda risola-majmuaga “Ne’mati yer”, ya’ni “Erni ne’mati” bo‘lib to‘g‘ri berilgan:

*Etib lutfing bahori tiyra tufroqdin jahon ichra
Ming alvon ne’mati yer uzra naxli dilkusho paydo.*

Baytning nasriy bayoni: *Sen lutfing bahori bilan qora tuproqdan jahonda ming turli dilni yayratuvchi-ochuvchi yangi-yangi ne’matni yer yuzida paydo qilasan.*

G‘azalning maqta’ qismidagi “Iy whole” so‘zi risola-majmuada “Imon” shaklida, payt mazmunini ifodalovchi “To” so‘zi esa tushib qolgan:

*Solib ko‘nglumga **imon** gavharin __ naqdi jon **chiqqach**,
Ilohi, aylagil Mutribg‘a andog ‘rahnamo paydo.*

Ushbu bayt B.Davlatov nashrida:

*Solib ko‘nglumga **imon** gavharin **to** naqdi jon **chiqqach**,
Ilohi, aylagil Mutribg‘a andog ‘rahnamo paydo.*

Tayanch yordamchi manbalarda, qo‘lyozma tazkirada hamda P.Bobojonov tayyorlagan nashrda quyidagicha to‘g‘ri berilgan:

*Solib ko‘nglumga **iymon** gavharin **to** naqdi jon **chiqq‘ach**,
Iloho, aylagil Mutribg‘a andog ‘rahnamo paydo.*

G‘azal maqta’si shoirning yaratuvchiga jon chiqar paytida iymonini salomat saqlashni so‘rab, qilgan iltijosi bilan tugaydi. Nashrlarda berilgan ushbu baytdagi farqlar bayt mazmuniga unchalik ta’sir etmagan bo‘lsa-da, vaznga ta’sir etgan o‘rinlar seziladi.

M.Pirnazarovning 2001-yildagi “Mutrib Xonaxarobiy (Risola-majmua)”si shoirning 1909-yilda Muhammad Ya’qub tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozma devon asosida nashrga tayyorlangan. Bundan tashqari bu nashrda biz *tayanch yordamchi manbalar* sifatida qayd qilayotgan shoirning 903/IV, 906/VII raqamli devon qo‘lyozmalari hamda 1172, 1157, 1185, 1134 raqamli qo‘lyozma bayozu muxammasotlardagi she’rlari haqida ham ma’lumot beradi.

Matnazar Pirnazarov Mutrib she’rlaridagi qo‘lyozma matndan tushib qolgan bir va ikki bo‘g‘inli so‘zlar hamda baytlar qisqarishi¹⁰ kabi o‘rinlarga e’tibor bermay risola-majmuani nashrga tayyorlaydi. She’rlarning joriy imlodagi variantlarida ham so‘zlarning noto‘g‘ri o‘qilishi hamda imlo qoidalariga amal qilinmasligi natijasida bir qancha matniy xatoliklar yuzaga kelgan.

Risola-majmuaga ko‘chirilgan she’rlarni noshir o‘zi qayd qilgan 903/IV, 906/VII raqamli devon qo‘lyozmalari (biz qayd qilayotgan tayanch yordamchi manbalar) hamda qo‘lyozma bayozlardagi

¹⁰ Bu haqda g‘azal tahlili keltirilgan o‘rinlarda matn ostida havola orqali to‘liq ma’lumotlar berib o‘tiladi.

she’rlar matni asosida qiyoslab o‘rganish maqsadga muvofiqdir¹¹. Tadqiqotda bu masala quyidagi tasnif asosida tekshirildi:

1. *Risola-majmuadagi she’rlarning tayanch yordamchi manbalar matni asosida;*
2. *Risola-majmuadagi she’rlarning qo‘lyozma bayoz hamda majmualardagi matni asosida;*

1. Risola-majmuadagi she’rlarning tayanch yordamchi manbalar matni asosida qiyoslaganimizda, bir qancha farqlar ko‘zga tashlandi. Birinchi *so‘zlarning noto‘g‘ri o‘qilishiga* oid misollarni keltirsak. Masalan, B(208^a), D(241^b) tayanch yordamchi manbalardagi “*Bugun bazmimg‘a keldi, ul pari paykar xirom aylab*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning ikkinchi bayti risola-majmuaga quyidagicha ko‘chirilgan:

**Mani la’li bila to tongg‘acha mag‘rur etib, ul sho ‘x,
Bori g‘amlarni jon ko‘ngluma **bosgil xirom** aylab.**

(Risola-majmua. 11-bet).

Tayanch yordamchi manbalarda:

**Mayi la’li bila to tongg‘acha mag‘rur etib, ul sho ‘x,
Bori g‘amlarni jon ko‘ngluma **bilkull harom** aylab.**

“Bilkull” so‘zi nashrga “Bosgil” bo‘lib xato ko‘chrilgan. حرام (Harom) so‘zi esa (foydalanishi, iste’mol etilishi, shar’an man’ etilgan narsa mazmunini beradi) nashrda “Xirom” bo‘lib o‘zgaradi. Agar noshir o‘zi tayangan qo‘lyozma manbada “ح” harfning ustiga nuqta qo‘yilgan bo‘lsa, حرام “Xirom” deb o‘qigan bo‘lishi ham mumkin. Bu esa bayt mazmuniga ta’sir etadi.

G‘azalning sakkizinchi baytida ham xatolar ko‘zga tashlanadi:

***Tunu kun xotirim majruh edi ag‘yor tanidin,*
*Mani shod etdi dildorim, alar suhbatini shom aylab.***

Tayanch yordamchi manbalarda:

***Tunu kun xotirim majruh edi ag‘yor ta’nidin,*
*Mani shod etdi dildorim, olar subhini shom aylab.***

Baytda anglashilgan ma’no: (*ag‘yor*) *raqiblar ta’nasidan tunu kun ko‘nglum qayg‘uda edi, ularning tongi(subhi)ni qorong‘u tun aylab, dildorim mani shod etdi.*

¹¹ Sababi noshir o‘zi qayd qilgan 1909-yilda ko‘chirilgan Mutrib devon qo‘lyozmasini ma’lum sabablarga ko‘ra qo‘lga kirta olmadik.

Nashrda “Ta’na” so‘zidagi tutuq belgisining tushirib qoldirilishi bayt mazmuniga ta’sir etadi: (*ag ‘yor*) *raqiblar tanasidan tunu kun ko ‘nglum qayg ‘uda edi, ularning suhbatini qorong ‘u tun aylab, dildorim mani shod etdi.*

B(208^a), D(241^b) tayanch yordamchi manbalardagi “Yo Rab” radifli 7 bayti g‘azal risola-majmuaga quyidagicha ko‘chirilgan:

Firoqida mani ko ‘nglumda tun-kun hazin g ‘am yo rab,

Chtob noz ila aylar manga lutfini kam yo rab (Risola-majmua.

11-bet).

Tayanch yordamchi manbalarda:

Firoqidin mani ko ‘nglumda tun-kun huzn g ‘am, yo Rab,

Itob noz ila aylar manga lutfini kam, yo Rab.

Hazaji musammani solim (mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun (V---/V---/V---/V---) vaznida yozilgan bu g‘azal baytidagi حزن (Huzn) so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, qayg‘u, g‘am, hasrat, حزین (Hazin) so‘zi esa qayg‘uli, mungli, g‘amli degani. Agar baytda “Hazin” so‘zi qo‘llanilsa vazn buziladi. “Firoqida” so‘zining qo‘llanilishida ham xuddi shunday xatolik yuzaga keladi. “Itob”ning “Chtob” shaklida berilishi nashr jarayonida sodir bo‘lgan texnik xatodir.

Mutribning B(208^b), D(242^a) tayanch yordamchi manbalarga ko‘chirilgan 7 baytli rajazi musammani solim vaznida yozilgan “*Bo ‘ldim xirad begonasi ruxsori tobонин ко ‘rub*” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalning yettinchi misrasidagi “Hayvon suyi” birikmasi risola-majmuaga “Hayvon uyi” bo‘lib tahrir etilgan. Ushbu bayt quyidagicha:

Dedim: zilol lablaring sharbatmu yo hayvon uyi,

Dedi: so ‘rub netgung oni ishqing o ‘tini qo ‘zg ‘atib.

(Risola-majmua. 11-bet).

Tayanch yordamchi manbalarda:

Dedim: zilol lablaring sharbatmu yo, hayvon suyi,

Dedi: so ‘rub netgung oni ishqing o ‘tini qo ‘zg ‘atib.

Oshiq tilidan aytilgan ushbu birikma “Tiriltiruvchi suv” ma’nosida kelgan. Nashrda esa “Tiriltiruvchi uy” bo‘lib qolgan. Shoir bu orqali tajohilu orif, tashbeh, istiora.... kabi badiiy san’atlardan samarali foydalangan.

Ikkinchi bayt mazmuni: *dedim, (seni) tiniq suv kabi lablaring sharbatmu, yoki tiriklik suvimi?* Dedi, so ‘rab nima qilasan, bu ishq o ‘tini qalbingda (yana) qo ‘zg ‘atib.

Nashrda mazmun tubdan o‘zgarib, *dedim, (seni) tiniq suv kabi lablaring sharbatmu, yoki tiriklik uyimi?* Dedi, so ‘rab nima qilasan, bu ishq o ‘tini qalbingda (yana) qo ‘zg ‘atib.

B(254^b) tayanch yordamchi manbaga ko‘chirilgan “*Kelur kulbamga dildorim boqib, har yona, har yona*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azal boshdan oxirigacha takrir san’ati asosida yaratilgan. G‘azalning birinchi misrasidagi “Har yona, har yona” qo‘sh qofiya risola-majmuaga hamda Yu.Ro‘zmatovning “Xorazm haqiqati” gazetasining 1963-yil, 27-dekabr sonida (ushbu nashrda hamma qo‘sh qofiyalar (-) chiziqcha bilan ajratib yozilgan) quyidagicha beriladi:

*Kelur kulbamga dildorim boqib, **haryona, haryona,**
Visolidin mani shod etgali mardona, mardona.*

(Risola-majmua. 35-bet).

*Kelur kulbamga dildorim boqib, **haryona - haryona,**
Visolidin mani shod etgali mardona, mardona.*

“Xorazm haqiqati” gazetasida.

Baytdagi *har yona, har yona* qofiyasi mavjud imlo qoidalariga ko‘ra ajratib yozilishi kerak. Nashr holatidagi ikki so‘zning bir-biriga qo‘shib yozilishi uslubiy xatoni yuzaga keltirgan.

G‘azalning to‘rtinchi baytidagi “...ravshan qilay desam” birikmasi risola majmuada “...ravshan qilar doim” bo‘lib o‘zgaradi. Natijada bu baytning mazmunida ham nomutanosiblik yuzaga keladi. Tayanch yordamchi manbalarda:

*Jamolidin ko ‘zumning tiyrasin ravshan qilay, desam,
Ming alvon jilva aylab, der: bu ne, begona, begona.*

Baytda anglashilgan ma’no: (*yorimning*) *husnidan ko ‘zimning (qayg ‘usini ketkizay) qorasini ravshan qilay desam, ming xil noz va g ‘amza aylab deydi: bu ne begona, begona?*

Shoir oshiq ko‘zidagi g‘am-g‘ussaga to‘lgan qorong‘ulikni ma’shuqasining jamoli orqali ravshan gilaman desa, ma’shuqa ming xil noz va g‘amza aylab, oshiqni begona sanaydi. Bu baytni risola-majmuada quyidagicha ko‘ramiz:

*Jamolidin ko ‘zumning tiyrasin ravshan **qilar doim**,
Ming alvon jilva **birla der** bu ne, begona, begona.*
(Yor) jamolidin ko ‘zimning qorasini (qayg‘usini) **doim ravshan qillardı**, ming xil noz va g‘amza bilan deydi: bu ne begona, begona?

Birinchidan, bu bayt matnida punktatsion xatolikka yo‘l qo‘yilgan. “*Ming alvon jilva **birla der** bu ne, begona, begona*” aslida “*Ming alvon jilva aylab, der: bu ne, begona, begona*” kabi berilishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari baytning ikkinchi misrasidagi “Jilva aylab” birikmasi nashrga “Jilva birla” bo‘lib kelgan. Mumtoz adabiyotimizda ma’shuqa tasvirini ifodalashda “Jilva aylamoq” fe’li ko‘proq ishlatiladi. Nashrga tayyorlovchi ko‘rgan (903/IV inv.) manbada ham “Jilva aylab” varianti berilgan. Biroq M.Pirnazarov 1909-yildagi qo‘lyozma devon matni asosida bu g‘azalni nashrga tayyorlashda bunga ahamiyat bermagan. Ammo qo‘lyozmalar qiyosidan bayt mazmuni “Jilva aylab”ni taqozo qiladi. Qolaversa, bu g‘azal Xon farmoniga binoan tuzilgan 1152(717^a) raqamlı qo‘lyozma majmua matnida ham “Jilva aylab” kabi ko‘chirilishi buni tasdiqlaydi. Bu bayt “Xorazm haqiqati” gazetasining 1963-yil, 27-dekabr sonidagi Yu.Ro‘zmatov tomonidan tayyorlangan nashrda quyidagicha beriladi:

*Jamolidin ko ‘zumning **butrasin** ravshan qilay, desam,*

Ming alvon jilva aylab der: bu ne, begona - begona.

Baytdagi “Butrasin” so‘zi ma’no anglatmaydi.

Risola-majmuada g‘azalning maqta’ qismidagi so‘zlar noto‘g‘ri yozilishi hisobiga bayt mazmuni o‘zgarib, vazn buzilishi ko‘zga tashlanadi:

*Qilib Mutribni uyqu chog‘ida **noumid** ishratidin,*

*Har oqshom tongg‘acha boshlab **uqubon** afsona, afsona.*

Ushbu bayt Yu.Ro‘zmatov tayyorlagan nashrda “No‘mid” shaklida keladi,

*Qilib Mutribni uyqu chog‘ida **no‘mid** ishratdin,*

Har oqshom tongg‘acha boshlab uzoq afsona - afsona.

Tayanch yordamchi manbalarda:

*Qilib Mutribni uyqu chog‘ida **navmid** ishratdin,*

Har oqshom tongg‘acha boshlab uzoq afsona, afsona.

G‘azal hazaji musammani solim (mafoiyun, mafoiyun, mafoiyun, mafoiyun: V---/V---/V---/V---) vaznida yozilgan.

Baytda anglashilgan ma’no: (*ma’shuqa*) *har tuni tonggacha uzoq afsonani boshlab, Mutribni uyqu paytida hursandchilik qilishdan noumid qiladi.*

Risola-majmuada: (*ma’shuqa*) *har tuni tonggacha tushunib(uqbon)* *afsonani boshlab, Mutribni uyqu paytida hursandchilik qilishidan noumid qiladi.*

B(270^b-271^a) tayanch yordamchi manbada Navoiyning “Aylab” radifli g‘azaliga Mutrib muxammasi ko‘chirilgan. Bu muxammasning uchinchi bandidagi “Rux” so‘zi nashrda “Rah”, “Kulub” so‘zi esa “Kelib” shaklida berilgan:

*Bo'lurg‘a mahv ruxsori manga komu murodini,
Ko'rub toza niholin, tozadin jismimg‘a jon kirdi,
Rahi tobonidin ko‘nglum muhabbat mujdasin terdi,
Kelib o‘lturdiyu ilgim chekib yoninda yer berdi¹²,
Takallum boshladi har lafzini durri xushob aylab.*

Muxammasning to‘rtinchi bandi birinchi misrasidagi “-da” o‘rin payt kelishigi nashrga “-din” chiqish kelishigi qo‘shimchasiga o‘zgartirilgan. Bundan tashqari uchinchi, to‘rtinchi hamda beshinchi misralarida jiddiy xatoga yo‘l qo‘yilgan:

*Qilib ikki tizzimdin noz ila to tongg‘acha maskan,
Takallum duri shahvorila ko‘nglumni qilib ravshan,
Dedi bir-bir chaman ichra maning-la bo‘lmayin bir san,
Ki ey zoru balokash oshiqim, mensiz nechukdursan, -
Men o‘ldum lol_ ayta olmayin mayli javob aylab.*

Ushbu bandda leksik, grammatik hamda orfografik o‘zgarishlar uchraydi. To‘g‘ri variant quyidagicha:

*Qilib ikki tizzimda noz ila to tongg‘acha maskan,
Takallum duri shahvor ila ko‘nglumni qilib ravshan,
Dedi: “**Birpirahan**” ichra maning-la bo‘lmayin bir tan,
Ki: ey zori balokash oshiqim, mensiz nechukdursan, -
Men o‘ldum lolu ayta olmayin mayli javob aylab.*

¹²Ushbu misrada kotib bir qancha xatolarga yo‘l qo‘ygan. Bularni bartaraf etish maqsadida Navoiy qo‘lyozma devoni matni bilan qiyoslanildi, tuzatishlar kiritildi (**Kelib** o‘lturdi ilgim tutub yonida yer berdi (903/IV (270^b-271^a) raqamli devon qo‘lyozmasi) Navoiy devonida: **Kulib** o‘lturdiyu ilgim chekib yoninda yer berdi” kabi berilgan.

Muxammasning beshinchi bandi nashrida ham quyidagicha xatolar yuzaga kelgan. Nashrda:

*Jafo tarkin_ qilg‘ach ganji lutfidin ko ‘zim yetdi,
Hasad eli ko ‘rub yuz g‘am bila rashk o‘rnig‘a go‘ydim,
Hazin jonimdin mahzun motamini tuchasin yutdi,
Chiqardi shishayi ____ dog‘i bir sog‘ar to ‘la go‘ydi.
Ichib tutdi manga yuz nav’ noz oso itob aylab.*

Tayanch yordamchi manbada:

*Jafo tarkini_ qilg‘ach ganji lutfidin ko ‘zim yutdi,
Hasad ahli ko ‘rub yuz g‘am bila rashk o‘tig‘a kuydi,
Hazin jonimdin hijron motamini navhasin yutdi,
Chiqardi shishayi may dog‘i bir sog‘ar to ‘la quydi.
Ichib tutdi manga yuz nav’ noz oso itob aylab.*

Mutrib Munis, Ogahiy, Navoiydek salaflariga ergashib, o‘ziga xos poetik asar yaratishi uning yuksak ijodkor ekanligini belgilaydi. Biroq uning she’rlari nashrlarda ko‘plab xatoliklar bilan tabdil etilsa, Mutrib she’rlari mazmun mohiyati butunlay yo‘qolishi shubhasiz.

Mutribning Munis g‘azaliga bog‘langan muxammas matnidagi farqlarni keltiramiz. Muxammasning ikkinchi bandidagi “Falaklarkim”, “Malaklarkim”, “O‘rtamaklarkim”, “Mardumaklarkim” kabi takrorlanuvchi qofiyadosh so‘zlar risolamajmuaga quyidagicha beriladi:

*Sarosar titrashib faryodi ohimdin falaklarim,
Qolur hayratlararo ishq ichra holimg‘a malaklarim,
Sanga odatmudur doim bu yonglig ‘o‘rtamaklarim,
Emas giryon ko ‘zim ichra g‘ubor mardumaklarim.
Yuzingni ko ‘rgali oning nishoni hatti holidur.*

(Risola-majmua. 38-bet).

Ikkinci misradagi “Qolur hayrat aro...” nashrga “Qolur hayratlararo...” kabi “-lar” ko‘plik ko‘shimchasi orttiriladi. Bundan tashqari, “Xatti xolidur” birikmasi esa “Hatti holidur” shaklida xato yozilgan.

To‘qqiz bandli bu muxammas bandining boshqa o‘rinlarida ham so‘zlarning tushib qolishi yoki noto‘g‘ri o‘qilishi kabi farqlar ko‘plab uchraydi.

Qo‘shma so‘zlarning to‘g‘ri yozilmasligi

Qo‘shma so‘zlar joriy nashrda ma’lum qoida asosida to‘g‘ri yozilishi lozim. Taassufki, mumtoz adabiyotimiz namunalarini isliyatdan tabdil qilish jarayonida qo‘shma so‘zlarning ajratib yozilishi hollari ko‘p uchraydi.

B(209^{a/b}), D(243^a) tayanch va yordamchi manbalardagi “*Bir nafas olg‘il yuzingdin, ey pari paykar, niqob*” misrasi bilan boshlanuvchi 5 baytli g‘azalda “Andaliboso” (Andalibdek) “Jonbaxsh” kabi qo‘shma so‘zlar qo‘llangan. Bular risola-majmua(13-bet)ga quyidagicha tabdil etilgan:

*Andalib aso fig‘onu nolalar chekmak ishim,
Gulshani vasling tamannosida aylab tarki xob (2-bayt).*

*Jismima jon bergali **jon baxsh** guftoring bila,
Bazm aro qilg‘il takallum har dam, ey **dur xushob** (3-bayt).*

Bu o‘rinda “durri xushob” birikmasi “dur xushob” tarzida noto‘g‘ri tabdil qilingan. Natijada mazmun g‘aliz bo‘lganidan tashqari vazn saktiligiga yo‘l qo‘yilgan.

B(214^{a/b}), D(245^b) tayanch yordamchi manbalarga ko‘chirilgan “*O‘z ilki birla tutdi bu kecha yor sharbat*” misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azal matni risola-majmuada bir necha o‘rinlarda xatoga yo‘l qo‘yilgan.

Dastlab g‘azalning to‘rtinchi baytidagi “Payopay” hamda “Gul’uzor” so‘zlarining nashrda berilishiga ahamiyat bersak:

*Bo‘lg‘ay qachon tuyassar har dam o‘z ilgi birla
Bermak manga **payobi ul gul uzor** sharbat (Risola-majmua. 15-bet).*

Tayanch yordamchi manbalarda:

*Bo‘lg‘ay qachon tuyassar har dam o‘z ilgi birla
Bermak manga **payopay ul gul’uzor** sharbat.*

G‘azal muzore’yi musammani axrab (maf’uvlu/foilotun/maf’uvlu-foilotun: --V/-V--/--V/-V--) vaznida yozilgan.

G‘azalning sakkizinchi baytida “Ortib” so‘zi “Aytib” bo‘lib o‘zgargan. “Mushkbor” so‘zi “Mushki bor” shaklida ajratib yozilgan. Ushbu bayt quyidagicha:

*Sarmast boda bo 'ldim, har dam jununim aytib,
Yuz noz ila ichurgach ul mushki bor sharbat.*

Tayanch yordamchi manbalarda:

*Sarmast boda bo 'ldim, har dam jununim ortib
Yuz noz ila ichurgach ul mushkbor sharbat.*

Baytda anglashilgan ma'no: *yor yuz noz bilan bu qora va xushbo'y sharbatni menga ichirgach, har dam savdoyiligim ortib ichkilikdan sarmast bo 'ldim.*

Nashrda: *yor yuz noz bilan bu qora va xushbo'y sharbatni menga ichirgach, har dam savdoyiligim aytib ichkilikdan sarmast bo 'ldim.*

Shoir bu baytda oshiqning ma'shuqa qo'lidan ichgan qora va xushbo'y sharbatni ta'sirida har doim savdoyiligining ortib borishini yuqori darajaga ko'tarilganligini izohlagan. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

So'zlarning leksik jihatdan farq qilishi

B(254^b) tayanch yordamchi manbara ko'chirilgan "Kelur kulbamga dildorim boqib, har yona, har yona" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalning ikkinchi baytidagi "Paymona, paymona" qofiyasi risola-majmuaga iymona, iymona shaklida uchraydi. Masalan,

*Vafo izhorin aylarga mango bazm ichra bu kecha,
Tutub har lahza sog'arni to 'la iymona, iymona.*

(Risola-majmua. 35-bet).

Tayanch yordamchi manbalarda:

*Vafo izhorin aylarga manga bazm ichra bu kecha,
Tutub har lahza sog'arni to 'la paymona, paymona.*

Bu leksik o'zgarish bayt mazmuniga ta'sir etgan. "To'la paymona" deyilganda "Umri tugagan" majoziy ma'noda keladi. Nashrdagi "Iy whole" so'zi arabchadan olingan bo'lib, ishonch degani.

Shoir baytida ikki xil ma'noni anglash mumkin:

1. Baytdagi o'z ma'no;
2. Ramziy ma'no.

O'z ma'nosи: *bu kecha bazmda (yorim) menga sodiqligini ko'rsatishi uchun har lahzada may qadahini tutib, umrni tugatdi, tugatdi.*

Bu kecha ma'shuqa yorga sodiqligini bildirishi uchun unga may tuyapti. Har lahzada umri tugayotganligiga ishora qilinyapti.

Ikkinchı ma'nosi, tasavvufda qadah – ishqqa yetaklovchi yo‘l.
May – ishq ramzi.

Bular ramziy ma’noda bo‘lib, may bu yerda ishqning timsoli. Ma’shuqa oshiqning qalbida ishqni shunchalik darajada orttirganki, har lahzada qalbidagi ishqning ortishidan oshiqning umri poyoniga yetganday.

Nashrdagi “Iymona, iymona” so‘zлari orqali bayt mazmuni butunlay o‘zgaradi. Buni quyidagi baytning nasriy bayonidan anglash mumkin: *Bu kecha bazmda (yorim) menga sodiqligini ko‘rsatishi uchun har lahzada may qadahini tutib, ishonchi to‘la(di)*.

Nashrdagi bu holat asliyatdagi holatni ko‘z oldimizga keltirishni taqozo qiladi. Masalan, paymona so‘zi M.Pirnazarov ko‘rgan 903/IV raqamli devon qo‘lyozmasida ham پیمانه shaklida berilgan. Nashrga tayyorlovchi buni “Iymona, iymona” deb o‘qiydi. Aslida iymona so‘zi ایمانه bo‘lib yoziladi.

B(270^b-271^a) tayanch yordamchi manbaga Mutribning Navoiy g‘azaliga bog‘langan muxammasi ko‘chirilgan. Bu muxammas Navoiyning (“Navodir un-nihoya”dagi g‘azaliga bog‘langan. Hozir bu qo‘lyozma O‘zR FA ShI asosiy fondida 1195 hamda 11675 raqami ostida saqlanadi) hazaji musammani solim vaznida yozilgan g‘azaliga bog‘langan. Muxammasda bir qancha so‘zlar risola-majmua matnida leksik o‘zgarishga uchragan. Masalan, muxammasning ikkinchi bandidagi “Nukta”, “Zarbaft”, “Shu’oiy”, “Shabrv” so‘zлari nashrda quyidagicha tahrir qilingan:

*Yig‘ib ko‘nglig‘a shavqat nuqtasini ul pari paykar,
Solib boshig‘a ming ziynat bila zulfidin ma’jar,
Qilurg‘a tiyra kulbamni sham’i husnidin anvar,
Chekib mujgon jabravlар kibi jon qasdiga xanjar.
Beliga zulfi anbarboridin mushkin tanob aylab.*

(Risola-majmua. 37-bet).

Nashrdagi so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi: “Nuqta” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, 1. Nuqta; 2. Xol, dog‘ degani. “Zulf” bu ayollar sochi ma’nosini beradi. “Sham’i” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, quyosh ma’nosiga ega. “Shabrv” so‘zi esa “Jabrv” deb xato o‘qilgan.

Ushbu band tayanch yordamchi manbada quyidagicha to‘g‘ri ko‘chirilgan:

*Yig‘ib ko‘nglig‘a shavqat nuktasini ul pari paykar,
 Solib boshig‘a ming ziynat bila zarbaftdin ma’jar,
 Qilurg‘a tiyra kulbamni shuo’iy husnidin anvar,
Qilib¹³ mujgon shabrvilar kibi jon qasdiga xanjar.
 Beliga zulfi anbarboridin mushkin tanob aylab.*

“Nukta” arab tilidan olingan bo‘lib, nozik ma’noli so‘z, chiziq, ma’nosи chuqur va chiroyli so‘z kabi ma’nolarni bersa, “Zarbaft” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, zardan to‘qilgan mato mazmuniga ega. “Shuo”” so‘zi shu’la, yorug‘lik degani. “Shabrv” so‘zi kechasi kezuvchi, tunkesar; o‘g‘ri, tungi bosqinchи ma’nosini ifodalaydi. So‘zlarning ma’nosidan ham anglash mumkinki, risola-majmua matnidagi bu o‘zgachalik shoir aytmoqchi bo‘lgan mazmundan ancha yiroqlashgan.

2. Risola-majmuadagi she’rlarning qo‘lyozma bayoz hamda majmualardagi matni asosida qilingan tahlil.

Tayanch yordamchi manbalarda uchramaydigan she’rlarning ma’lum bir qismi qo‘lyozma bayozlar va qo‘lyozma muxammasotlardan o‘rin olgan. Bu she’rlar ham shoirning ilmiy-ijodiy laboratoriyasi mahsulidir. Mutribning risola-majmuaga ko‘chirilgan 15 ta g‘azali va 1 ta muxammasi bizga ma’lum bo‘lgan 1152, 6932, 6951, 6952, 1184, 6969 raqamli qo‘lyozma bayozlarga hamda 1134 raqamli qo‘lyozma muxammasotda uchraydi. Vaholanki, bu she’rlar M.Pirzanarov ko‘rgan 1909-yildagi Mutrib qo‘lyozma devoniga ham kiritilgan bo‘lishi mumkin. Biroq bu manba yo‘qligi sababli ushbu she’rlar bizga ma’lum bo‘lgan boshqa qo‘lyozma bayozlar orqali qiyoslandi.

1152 raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo‘lyozmasidan Mutribning “*Ul siymbar o‘zgalarga yor ekandur, bilmadim*” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali o‘rin olgan. Bu g‘azalning asliyatdagi va risola-majmua(33-bet)dagi matni solishtirilganda, quyidagicha farqlar ko‘zga tashlandi:

*Ishq aro aylab mani doim xirad begonasi,
 Bir fusunkor zolim mango duchor ekandur bilmadim.*

1152(512^a) raqamli qo‘lyozma majmuada bayt quyidagicha berilgan:

¹³Banddagи “Qilib” so‘zi Mutrib devoniga “Chekib” bo‘lib o‘zgartirilgan. Navoiy devoni qo‘lyozmasida berilgan variant asosida tiklangan.

*Ishq aro aylab mani doim xirad begonasi,
Bir fusungar zolimu makkor ekandur bilmadim.*

Ushbu g‘azal Feruzning ramali musammani mahzuf (foilotun, foilotun, foilotun, foilun: - V - - / - V - - / - V - - / - V -) vaznidagi “*Ul sanamg‘a o‘zga ruhbon bor ekandur bilmadim*” (504^b) misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azaliga nazira sifatida yozilgan. Nashr variantidagi “Bir **fusunkor** zolim **mango duchor** ekandur, bilmadim” misrasida vazn saktaligi yuzaga kelgan. Birinchidan, nashr variantida bu misradagi “makkor” so‘zi “mango” tarzida xato tabdil qilingan. Ikkinchidan, baytga asliyatda yo‘q “duchor” so‘zi qo‘shilib qolgan. Asliyatdagi “fusungar” so‘zi esa “fusunkor” shaklida noto‘g‘ri o‘qilgan. Bu so‘z fors tilidan olingan bo‘lib, afsunchi, avroqchi; nayrangboz; hiylakor ma’nolarini beradi.

G‘azalning to‘rtinchi baytidagi “Jonima” so‘zi nashrga “Qonima” bo‘lib o‘zgartirilgan,

*Shavq vaslidin chekarman bir nafas yuz turfa g‘am,
Orzusi qonima ozor ekandur bilmadim.*

Agar baytda “Qonima” so‘zi qo‘llanilsa, bayt mazmuni o‘zgaradi.

G‘azalning yettinchi baytida “Izhor” so‘zi uchraydi. Bu so‘z nashrga “Ozor” shaklida xato berilgan:

*Ko‘yi ishqida tanu jonimni barbod aylasam,
Nozu afsuni mango ozor ekandur bilmadim.*

1152 raqamli qo‘lyozma majmuada:

*Ko‘yi ishqida tanu jonimni barbod aylasam,
Nozu afsuni mango izhor ekandur bilmadim.*

Birinchidan, shu g‘azalning sakkizinchi misrasida “Ozor” so‘zi qofiya vazifasida kelgan. *Ikkinchidan*, shoirning mahoratini namoyon qiladigan jihatlardan biri g‘azal qofiyalarini qo‘llashda takrorga yo‘l qo‘yilmasligidadir. Agar ushbu so‘zlar takrorga yo‘l qo‘yilsa, demak yo kotiblar tomonidan xatolik bo‘ladi, yoki noshirlar. Bu baytdagi holat noshirlar xatosi ekaniga shubha yo‘q. Chunki asliyatda اظهار (izhor) berilgan.

Baytda anglashilgan ma’no: (*yor*) *ishqi yo‘lida(azobida)* *tanu jonimni(vujudimni)* *barbod aylasam, uning noz va nayrangi menga (bo‘lgan muhabbatini)* *zohir qilish, ko‘rsatish ekan, bilmadim.*

Agar nashrdagi baytni tahlilga tortsak, oshiq yori ishqida butun vujudini barbod aylagani, ma'shuqa esa noz va nayrangi orqali unga **ozor** qilmoqchi ekanligi mazmuni anglashiladi. Mazmundagi asl ma'no esa (Ma'shuqaning oshiq muhabbatiga oshkori) aks etmay qoladi.

G'azalning maqta' qismidagi "Holat" hamda "Chog'" so'zlar nashrga quyidagicha berilgan:

*Tiyg'i furqatdin o'lar **hodiga** yetgan **choshdakim**,
Mutribo sargashtaga dildor ekandur bilmadim.*

1152 raqamli qo'lyozma majmuada:

*Tiyg'i furqatdin o'lar **holatg'a** yetgan **chog'dakim**,
Mutribi sargashtaga dildor ekandur bilmadim.*

"Holat" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, 1. Hol ahvol; 2. Tuzilish ma'nolariga ega. "Chog'" so'zi baytda paytni bildiruvchi mazmunida kelgan. Nashrdagi "Hodi" so'zi to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, yo'l boshlovchi, yetakchi ma'nolarini beradi. "Chosh" so'zi "Chog'" so'zining etimologik o'zgarishga uchragan shakli bo'lishi ham mumkin. Ammo shoir asliyatida جاغدакیم (chog'dakim) bo'lib kelgan. "Holat" so'zining "Hodi" kabi berilishi bayt mazmuniga ta'sir etib, vazn saktaligini yuzaga keltirgan.

Baytda anglashilgan ma'no: *ayriliq azobidan o'lar holatga yetgan paytimda, (ul yor) boshi aylangan Mutribga mahbuba ekan, bilmadim.*

6932 raqamli qo'lyozma bayozga Mutribning ramali musammani mahbuni mahzuf (foi'lotun, foi'lotun, foi'lotun, fo'ilun: -V--/ VV--/VV-/VV-) vaznida yozilgan "*Mani yo rab, bu kecha lutf ila jonona yetur*" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azali risola-majmuaga ko'chirilgan matni bilan qiyoslanganda ular orasida quyidagi farqlar borligi aniqlashdi.

G'azalning to'rtinchchi misrasi risola-majmuada:

*Yig'laram subhu maso ko'yida Ya'qub kabi,
Go'yiyo Yusuf **misoli mohi kan'ona** yetur* (Risola-majmua (17-bet)).

6932(150^{a/b}) raqamli qo'lyozma bayozda:

*Yig'laram subhu maso ko'yida Ya'qub kabi,
Go'yiyo Yusuf **Misri shahi Kan'ona** yetur.*

G‘azalning to‘rtinchi baytida ham shunga o‘xhash matniy farqlar ko‘zga tashlanadi:

Nuktidin nafsi ko ‘nglumni shod aylagali,

Anbar afshon ikki suyi parishona yetur.

6932(150^{a/b}) raqamli qo‘lyozma bayozda:

Nakhatdin nafsi ko ‘nglumi shod aylagali,

Anbarafshon iki gisuyi parishona yetur.

“Nakhat” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, hushbo‘y hid ma’nosini beradi. Bu so‘z nashrga “Nukti” shaklida xato ko‘chirilgan. “Ko‘nglimi” so‘zidagi “-i” nashrga “-ni” kabi beriladi. Ikkinchisidagi “Anbarafshon” so‘zi “Anbar afshon” shaklida ajratib yozilgan. “Gisuyi” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, o‘rilgan soch mazmunini beradi. “Suyi” so‘zi baytda “Suvi” ma’nosida bo‘lib qolgan. Shoir bu bilan ma’shuqasining anbar sochuvchi o‘rilgan ikki sochli yor tasvirini gavdalantirgan.

6952(73^b-74^a) raqamli qo‘lyozma bayozga Mutribning hazaji musammani solim vaznidagi “*Jon qasdin aylab, ey pari, har lahza fatton* ko ‘zlarin” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azali risolamajmua (31-bet)da ham uchraydi. G‘azalning birinchi hamda ikkinchi misrasidagi “Fatton”, “Paykon” so‘zleri nashrga “Fig‘on”, “Payhon” kabi o‘zgargan. Ushbu bayt quyidagicha:

Jon qasdin aylab, ey pari, har lahza fatton ko ‘zlarin,

Har dam tanimga solg‘usi yuz zaxmi paykon ko ‘zlarin.

“Fatton” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, fitna qiluvchi, maftun etuvchi, o‘ziga tortuvchi, jozibali kabi ma’nolarga ega. “Fig‘on” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, nola, ohu zor mazmunini beradi. Bayt mazmunini “Fatton” so‘zi to‘ldiradi. Noshir “Fatton” so‘zining yozilish shakli bilan “Fig‘on” so‘zining yozilishi bir-biriga yaqin bo‘lganligi sababli bayt mazmuniga ahamiyat bermasdan “Fig‘on” deb o‘qigan (فغان/فتان). “Paykon” so‘zi nashrga “Payhon” bo‘lib, ya’ni “kof” harfining “he”ga o‘zgarishi undosh tovushining almashinuviga sabab bo‘ladi. Arab grafikasidagi harflarning bir-biriga o‘xhash yozilishi bu holni yuzaga keltirgan bo‘lishi ham mumkin.

G‘azalning to‘rtinchi baytida ham yuqoridagi holat takrorlangan. Masalan,

Hoki rahingga‘a yuz qo‘yib, gar nola_ zor aylasam,

*Novak ravon aylab gilur kim, tiyra **baron** ko ‘zlarin.*

Qo‘lyozma bayozda:

Xoki rahingg ‘a yuz qo ‘yub, gar nolayi zor aylasam,
Novak ravon aylab qilurkim, tiyra burron ko ‘zlarin.

Nashrda “Xoki” so‘zining “Hoki” shaklida kelishi leksik xato, “Qo‘yib” so‘zining tarixiy shakli “Qo‘yub”dir. Har bir davrning o‘ziga xos tarixiy so‘zлari aslidagidek saqlanishi maqsadga muvofiq. “Qilurkim” so‘zining “Qilur kim” shaklida ajratib yozilishi ulubiy xatoni yuzaga keltirgan. “Nolayi zor” birikmasidagi “-yi” izofasi qo‘yilmagan. Bu esa vazn saktaligini yuzaga keltirgan. Ikkinchи misradagi “Burron” so‘zi “Baron” shaklida beriladi. “Burron” so‘zi fors tilidan olingan bo‘lib, keskir, o‘tkir ma’nolarini beradi. “Baron” so‘zi esa unga, uning ustiga kabi ma’no anglatadi. Bu so‘zlearning ham yozilish shakli bir xil بран/بران . Shoir “Burron” so‘zini bejizga keltirmagan. Bu yerda oshiq ma’shuqasining qora o‘tkir ko‘zini nazarda tutyapti. So‘zlar yozilishi bir xil bo‘lsada, baytda anglashilgan ma’no shunga mos tarzda berilishi lozim.

G‘azalning o‘n birinchi misrasi nashrda quyidagicha tahrir qilingan:

Toki yuz ming xolin tamoshosin tamanno aylasam,
Bilmon ne jurmimdin ___ sargashta hayron ko ‘zlarin.

Qo‘lyozma bayozda:

Nogah yuzing xolin tamoshosin tamanno aylasam,
Bilmon ne jurmimdin qilur sargashta hayron ko ‘zlarin.

Baytda anglashilgan ma’no: *nogah yuzingdagi xolingni tamoshо qilishni orzu aylasam, (seni) mahliyo ko ‘zlarin nima xatoyim borligini bilmay sargardon qiladur.*

Nashrda: toki yuz ming xolingni tamoshо qilishni orzu aylasam,
(seni) mahliyo ko ‘zlarin nima xatoyim borligini bilmay sargardon
_____.

“Qilur” so‘zi nashrdan tushib qolgan.

Nashrdagi bayt mazmunida oshiq qachondir ma’shuqa yuzidagi yuz ming xolini tamoshо qilishni orzu aylasa, u(ma’shuqa)ning mahliyo bo‘lgan ko‘zlaridan oshiq nima xatosi borligini bilmay sargardon bo‘lgani ma’nosи anglashiladi. Ma’shuqaning yuzidagi yuz ming xol borligini xayol qilishni o‘zi, yorning yuzi faqat xoldan iborat degan tasavvur hosil qiladi. Bu kabi tahrirlar esa shoir asarlari

tub mazmun mohiyatining butkul yo‘q bo‘lib ketishini anglatadi. G‘azalning maqta’ qismi ham nashrda quyidagicha o‘zgaradi:

Garchi hayot afzolik sahbosidin istar esam,

Mutribg‘a aylar yuz tuman ofat namoyon ko ‘zlarin.

Qo‘lyozma bayozda:

Garchi hayot afzo labing sahbosidin istar esam,

Mutribg‘a aylar yuz tuman ofat namoyon ko ‘zlarin.

Nashrda “... afzo labing...” birikmasi “Afzolik” shaklida beriladi. Bu ikki so‘z bir-biriga birikuvi natijasida yuzaga kelib, bayt mazmuniga hamda vazniga ta’sir etgan.

Har bir ijodkor asarlarini o‘rganishda, eng avval matnga bo‘lgan mas’uliyatni his qila bilishi lozim. Aks holda o‘rganilayotgan asar mazmuniga jiddiy ta’sir etadi. Mutrib Xonaxarobning A.Abdug‘afurov, B.Davlatov, P.Bobojonov, Yu.Ro‘zmatov, M.Pirnazarov tomonidan gazeta va jurnallarda e’lon qilingan she’rlari hamda 2001-yilda nashr qilingan M.Pirnazarovning “Mutrib Xonaxarobiy (Risola-majmua)”ga ko‘chirilgan yuzga yaqin Mutrib she’rlari qayta nashrtalab ekanligini ta’kidlash lozim.

Savollar:

1. M.Pirnazarov nashr ettirgan “Mutrib Xonaxarobiy (Risola-majmua)”sida shoirning nechta she’ri e’lon qilingan?
2. Ijodkorning davriy matbuot nashrlarida qaysi mavzulardagi she’rlari chop etilgan?
3. Mutribning joriy nashrlardagi she’rlari qanday tasniflangan?
4. Shoirning 1172, 1157, 1185, 1134 raqamli qo‘lyozma bayozlarga ko‘chirilgan g‘azal va muxammaslari haqida ma’lumot bering?

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. Mutrib ijodida nido va talmih san’ati.
2. “Risola-majmua”dagi she’rlarning vaznini aniqlash.
3. Shoir ijodida qofiyaning qo‘llanilishi.

O‘qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Пирназаров М. Мутриб Хонахробий (Рисола-мајмұа). Тошкент-2001. –Б. 1-2.

2. Навоий асарлари лугати (Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1972. –Б. 498.

3. ازبکی - عربی قاموس. Арабча-ўзбекча лугат (Тузувчилар: Э.Талабов, Қ. Ташметов). – Тошкент: Ўқитувчи. 1986. –Б. 30.

4. Абдуғафуров А. ZIYOUZ.COM кутубхонаси <https://kh-davron.uz>.

5. ЎЗМЭ. Биринчи жилд. Тошкент, 2000 й.

6. Пирназаров М. Мутриб девонининг нодир бир нусхаси. // Ўзбек тили ва адабиёти. №6. –Б. 56-60.

7. Ўзбек адабиёти. Хрестоматия. V том, II китоб. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1968. – Б. 352.

8. Лаффасий. Тазкираи шуаро (Нашрга тайёрловчи: П.Бобожонов). – Урганч, Хоразм. 1992. – Б. 83.

9. Madirimova S. Mutrib asarlaridagi matn tafovutlari tahlili. O'zbekiston: til va madaniyat, №1. Тошкент, 2022. – Б. 156-159.

Mutrib she'rlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish tamoyillari Reja:

1. Tamoyil tushunchasi va ularning turlari
2. Mutrib she'rlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda tamoyillarning o'rni
3. Shoir she'rlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish tamoyillari

Tayanch so 'zlar: ilmiy-tanqidiy matn, tamoyil, she'r, muxammas, shoir, matnshunos, manba, tasnif, tavsif, tayanch manba, yordamchi manba.

Mumtoz asarlarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish lirik hamda tarixiy asarlarning nisbatan mukammal matnlari yuzaga chiqishining asosidir. Bu borada Ye.E.Bertels, M.Osmonov, D.S.Lixachev, I.Sultonov, H.Sulaymonov, P.Shamsiyev, S.G'aniyeva, L.Xalilov, M.Rashidova, F.Is'hoqov kabi matnshunos olimlar tomonidan dastlabki ishlar amalga oshirilgan. Mutaxassislar har bir o'rganilayotgan asar matniga doir o'zgarishlarni aniqlab, ilmiy-tanqidiy matn yaratishning o'ziga xos tamoyillarini ishlab chiqqanlar.

Ma'lumki, matnshunoslik fani muayyan manbalar asosida aniq, tarixiy faktlarga asoslangan holda ish ko'radi. Qo'lyozma manbalarni o'rganish, ilmiy istifodaga kiritish, ilmiy-tanqidiy matnlarni tuzishda belgilangan tizim asosida yondashish o'ziga xos o'rin tutadi. Bunda mavzuning mohiyatidan kelib chiqib, ma'lum bir tamoyillar, ilmiy tasnif va tavsiflar asosida tadqiqot olib borish talab etiladi.

Hozirgi kunda olib borilayotgan tadqiqotlardagi ilmiy-tanqidiy matn tamoyillari ustoz matnshunos olimlarimizning ilg'or tajribalariga tayanilib, amalga oshirilmoqda. Biroq shu kunga qadar qabul qilingan tamoyillar qat'iy o'zgarmas bir qolip sifatida ishlab chiqilmagan. Aslida, P.Shamsiyev, S.G'aniyeva, I.Sultonov kabi matnshunos olimlarimiz tajribalari asosida yuzaga kelgan tamoyillar keyingi tadqiqotchilar uchun nisbatan umumiylar vazifasini o'tab kelmoqda.

“Tamoyil” so‘zi usul, yondashuv kabi ma'nolarni anglatadi. Qo'lyozma manbalarning nisbatan mukammal variantini tiklashda ilmiy-tanqidiy matnning o'rni muhim. O'z navbatida ilmiy-tanqidiy matnning ma'lum bir tizimga asoslangan ilmiy tamoyillar asosida tuzilishi maqsadning aniq ro'yobga chiqishiga imkon beradi.

Matnshunoslikka oid nazariy tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ilmiy-tanqidiy matnni yaratishda quyidagi uch tamoyil qo'lyozma manbaning nisbatan to'liq variantlarini ishlab chiqishga zamin yaratadi:

1. Umumiylilik tamoyili.
2. Alohalik tamoyili.
3. Xususiy tamoyil.

Umumiylilik tamoyili. Biror bir qo'lyozma manba ustida ilmiy izlanish olib borish jarayonida tadqiqotchi matnshunoslik va manboshunoslik nuqtai nazaridan avval o'rganilgan tadqiqotlarda erishilgan ilmiy natijalardan, xususan, tamoyillardan istifoda etishi mumkin. Bu tamoyil avval xususiy ko'rinishga ega bo'lib, keyinchalik hamma uchun umumiylar bo'lgan tamoyilga aylanadi. Bunday tamoyillar hamma qo'lyozma asarlar ilmiy-tanqidiy matnnini yaratish uchun zamin bo'la oladi. Rus matnshunoslardan Ye.E.Bertels, D.S.Lixachevlarning tadqiqotlarida hamda P.Shamsiyev tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar hozirgi kunda ham qo'lyozma manbalarning ilmiy-tanqidiy matnnini yaratishda

foydalanim kelinmoqda. Mavjuda Hamidova ham 1994-yilda “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tadqiqi” mavzusidagi doktorlik ishida ham bu tamoyillarga alohida e’tibor qaratadi va ulardan o‘zining tadqiqotida foydalanadi. Jumladan, olma “Saddi Iskandariy” dostonining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o‘zining o‘n uchta tamoyilini ishlab chiqadi. Fatxulla G‘anixo‘jayevning 1998-yildagi “Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” devoni va uning ilmiy-tanqidiy matni” nomli tadqiqotida ham bu tamoyillar asos vazifani o‘tagan. Bundan tashqari, Yu.Tursunovning “Alisher Navoiyning “Muhokamatu-l-lug‘atayin” asari ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda ham bu umumiyl tamoyillar yetakchilik qilgan.

Tamoyillarning ikkinchi guruhi bo‘lgan *alohidalik tamoyili* unikal bir hodisadir. Bir asarning yillar va asrlar davomida qayta-qayta ko‘chirilishi natijasida muallif variantidan katta tafovutlar asosida yiroqlashuv jarayoni yuzaga keladi. Bunda asarning muallif variantiga yaqin variantini tiklash uchun barcha manbalarning qiyosiy-matniy tadqiqi amalga oshirilishi talab etiladi. Filologiya fanlari doktori R.Zohidov So‘fi Ollohyor “Sabot ul-ojizin” asarining ilmiy-tanqidiy matni uchun 25 ta (15 ta qo‘lyozma va 10 ta toshbosma) turli davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozma va toshbosma manbalari misolida o‘rganib, hamma uchun umumiyl bo‘lgan *xillash*, *tasniflash*, *qiyoslash*, *saralash* kabi to‘rtta tamoyilni ishlab chiqadi. Bu o‘z navbatida “Qo‘lyozmalarning shartli xronologik nisbati”ni yuzaga keltiradi.

Tamoyillarning uchinchi guruhi bo‘lgan *xususiy tamoyil* qanday yuzaga kelishi mumkin, degan savol bo‘lishi tabiiy. Bu jarayon bir asarning muallif davrida ko‘chirilgan turli variantlari asosida har bir o‘rganilayotgan asar tekstologiyasidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Masalan, yuqorida qayd etilgan Mavjuda Hamidova, Fatxulla G‘anixo‘jaev, Yusuf Tursunov kabi olimlar tadqiqotlarida ham bunday hodisa yuzaga kelganini ta’kidlash kerak. Bular faqat P.Shamsiev tamoyillaridan tashqari o‘zlarining yangi tamoyillari bilan ilmiy-tanqidiy matn yaratishning qulay va oson bo‘lgan eng maqbul variantlarini ishlab chiqishgan. Shu bilan birga mumtoz adabiyotimiz rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘sishgan ijodkor

Mutrib Xonaxarob asarlarini o‘rganish, u qoldirgan merosning ilmiytanqidiy matnini yaratish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridandir. Dastlab shoir asarlari 1950-yildan joriy nashrlarda e’lon qilina boshlangan. Hozirgi kunga kelib, shoir ijodi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar u qadar ko‘p emas. 2001-yil M.Pirnazarov tomonidan nashrga tayyorlangan “Mutrib Xonaxarobiy (Risolamajmua)” risolasi shoir ijodini targ‘ib qilishga doir e’tiborga molik ishlardan. Ushbu nashrda shoirning yuzga yaqin she’rlari joriy imloga tabdil qilinib, nashr etilgan. Biroq bu nashrdagi she’rlarni ularning qo‘lyozma variantlari bilan qiyoslaganda, nashrda jiddiy matniy nuqsonlar borligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, matnda so‘zlarning tushib qolishi, so‘zlarni noto‘g‘ri o‘qilishi hamda baytlarning tushib qolishi shular jumlasidandir. Professor N.Jabborov o‘zining “Matn tarixini o‘rganish – ilmiy haqiqat mezoni” nomli maqolasida har bir asarning dastlab matnshunoslik izlanishlari bo‘lmasa, adabiyotshunoslik tadqiqotlari aksar hollarda o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Agar adabiy manbani yaxlit bir imoratga qiyoslansa, matnshunoslik uning poydevoridir. Adabiyotshunoslik ana shu poydevor ustiga qurilmog‘i zarur. Aks holda u poydevorsiz inshoot singari omonat bo‘lib qoladi...” kabi fikrlari buning isbotidir. Shunday ekan, har bir asarni dastlab tekstologik jihatdan o‘rganish, uning nisbatan to‘liq variantlarini yuzaga keltirish matnshunoslikning dolzarb muammolaridan ekanligi ayni haqiqatdir.

Mutrib Xonaxarob asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish uchun o‘zbek matnshunosligida shu kunga qadar yig‘ilgan tajribalarni inobatga olib, quyidagilar asosida *xususiy tamoyillar* ishlab chiqildi:

1.Devonning ilmiy-tanqidiy matnini tuzish uchun devon qo‘lyozmalarini lotin alifbosining dastlabki uch harfi – A, B, D kabilar bilan belgilash (Dastlab bu tamoyil P.Shamsiyev tadqiqotlarida qayd qilingan) *tamoyili;*

Manbalarning shartli belgilari:

- qo‘lyozma – 2679/II, Mulla Abdulkarim devon ko‘chirgan – A.
- qo‘lyozma – 903/IV, Mulla Karimbergan devon ko‘chirgan – B.
- qo‘lyozma – 906/VII Mullo Boltaniyoz usto Qurban niyoz mulaqqabi bin Xarrot ko‘chirgan – D.

2.Shoir she’rlari sarlavhalarini muvofiqlashtirish tamoyili:

-she'rlarga qo'yilgan sarlavhalarning "2 qasida Mutrib Xonaxarob" kabi berilishi kerak bo'lган o'rinda "Qasida Mutrib" holatida ko'chirilgan. Qasidaga qo'yilgan raqam hamda shoirning "Xonaxarob" taxallusi tushib qolgan. A(135^b). Yoki yana bir o'rnlarda "126-G'azali Mutrib", "Musaddas" shakllarida ham uchraydi. A(126^b, 132^a).

- asosiy matnga yoki hoshiyalarga ko'chirilgan she'rlarning ba'zi o'rnlarda sarlavha berilmagan. Masalan, A(129^a) tayanch manbada 134-o'rindan keyin kelgan "*Bu kecha aqlimni toroj ayladi bir gul'uzor...*" misrasi bilan boshlanuvchi 11 baytli g'azalga "135-g'azali Mutrib Xonaxarob" sarlavhasini qo'yish kerak. Bu tartib B(251^a), D(224^b) tayanch yordamchi manbalarda saqlangan, ya'ni sarlavha qo'yilgan.

-tayanch manbada uchramaydigan g'azal, muxammas, murabba'larni kiritganda sarlavhalar qo'yish lozim. Masalan, 1134 raqamli qo'lyozma majmuaga shoirning 5 ta muxammasi o'rin olgan. Bu muxammaslar A tayanch manbada hamda B, D tayanch yordamchi manbalarda uchramaydi. Ushbu muxammaslarga navbatdagi raqamni qo'yib, "17-Muxammas Mutrib Xonaxarob" kabi sarlavhalash lozim.

3.Devondagi she'rlarning alifbo tartibida joylashuvini qayta ko'rib chiqish tamoyili.

Ba'zi o'rnlarda g'azallarning alifbo tartibidagi joylashuvida xatolik bor:

Ӯ(gof) harfiga yozilgan g'azallar orasida ham yuqoridagi harflar joylashuvi singari Ӯ(kof) harfidagi g'azal ko'chiriladi. Masalan, "*Bir nafas ushshoq xaylidin mani yod etmading...*" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azaldan keyin "*Shukrkim, bu kecha ul sarvi xiromon kelajak...*" kabi 6 ta g'azal berilib, undan keyin yana "*Ochg'il yuzing, ey dilbar, ul sarvi ravong'a o'xshading...*" misrasi bilan boshlanuvchi g'azal o'rin olgan. Bu orada yana "*Bir dam muruvvat yo'qmudur o'lturdi hijron, ey go'zal...*" hamda "*Sayri gulshan aylarga, ey go'zal, xiromon qil...*" kabi Ӆ(lom) harfi bilan tugaydigan ikkita 7 baytli g'azal, undan keyin "*Mani avval gul husninga zor etmakni mashq etding...*" misrasi bilan boshlanuvchi g'azal joy olgan. A tayanch manba (146^a-156^b).

4. Qo‘lyozma majmular va bayozlardagi she’rlarni tayanch manba uchun tiklashda shartli belgilarni qo‘yish tamoyili.

Bu holatda qo‘lyozma majmua va bayozlarning aslidagi tartib raqami saqlanishi maqsadga muvofiq. Chunki manbalar soni ko‘p bo‘lishi evaziga chalkashliklar yuzaga kelishi mumkin. Bular:

- qo‘lyozma majmular – 1152, 1134, 1127, 1129.

- qo‘lyozma bayozlar – 6816, 6927, 6928, 6932, 6951, 6952, 6969, 6939, 6971, 6976, 6990, 7023, 7039, 7122, 2024, 2025, 2028, 2036, 5894/II, 5894/III, 5894/IV, 5894/V, 5884/V, 1125, 1126, 1128, 1172, 1176, 1177, 1179, 1182, 1184, 1185, 1186, 1190, 1191, 1192, 1195, 1196.

- toshbosma manbalar – 12561, 14420, 9543.

5. Qo‘lyozma majmua va bayozlardan olingan she’rlarni ilmiytanqidiy matnga kiritish tamoyili;

A tayanch manbada uchramaydigan g‘azallarni ilmiy-tanqidiy matn tarkibiga kiritganda arab alifbosi tartibida ko‘chirilgan harflarning oxirgi sonidan kelib chiqib, hozirgi joriy alifbodagi harflar ketma-ketligi asosida raqamlash lozim. Masalan, A tayanch manbadagi ՚ (алиф) ҳарфига ёзилган ғазаллар сони 39 та. Янги топилган ՚ (alif) harfiga yozilgan g‘azallar soni 5 tani tashkil etadi. Bular 40^a, 41^b, 42^d, 43^e, 44^f kabi joylashtiriladi.

ئ (te) harfiga yozilgan g‘azallar 2 ta (1tasi fors-tojik tilida, 1 tasi turkiy tilda): 31^a, 32^b.

ۇ (dol) harfiga yozilgan g‘azallar 2 ta: 36^a, 37^b.

ۈ (re) harfiga yozilgan g‘azallar 1 ta: 89^a.

ى (sin) harfiga yozilgan g‘azallar 2 ta: 11^a, 12^b.

ە (qof) harfiga yozilgan g‘azallar 1 ta: 10^a.

ڭ (kof) harfiga yozilgan g‘azallar 1 ta: 7^a.

ڭ (gof) harfiga yozilgan g‘azallar 2 ta: 38^a, 39^b.

ۈ (lom) harfiga yozilgan g‘azallar 9 ta: 24^a, 25^b, 26^d, 27^e, 28^f, 29^g, 30^h, 31ⁱ, 32^j.

ڻ (mim) harfiga yozilgan g‘azallar 11 ta: 104^a, 105^b, 106^d, 107^e, 108^f, 109^g, 110^h, 111ⁱ, 112^j, 113^k, 114^l.

ڽ (nun) harfiga yozilgan g‘azallar 12 ta: 121^a, 122^b, 123^d, 124^e, 125^f, 126^g, 127^h, 128^I, 129^j, 130^k, 131^l, 132^m.

ۋ (vov) harfiga yozilgan g‘azallar 3 ta: 26^a, 27^b, 28^d, 29^e, 30^f.

ى (i) harfiga yozilgan g‘azallar 2 ta: 57^a, 58^b.

A tayanch manba hamda B, D tayanch yordamchi manbalarga murabba’ janridagi she’r uchramaydi. Yangi topilgan murabba’ soni 1 ta: 1^a.

A tayanch manbada jami 16 muxammas bor. Yangi topilgan muxammaslar soni esa 6 ta. Bular: 17^a, 18^b, 19^d, 20^e, 21^f, 22^g.

Jami she’rlar soni: 60 ta.

Yuqorida keltirilgan she’rlar qatorida “Xorazm xabarlari” gazetasiga ko‘chirilgan 2 ta musaddas (72 misra), 6 ta masnaviy (124 misra)lar hisobga olinmadı. Sababi bu she’rlar matnining asli o‘qib bo‘lmas darajada shikastlangan.

6. *Matn tarkibida tovush o‘zgarishlari hamda grammatik uslubiy xatoliklarga uchragan so‘zlarni bir tizimga solish tamoyili*. Masalan, - ايتدى “etdi” va ايتى “etti” so‘zleri ham ikki xil ko‘rinishda ko‘chirilgan.

414-g‘azalning bиринчи misrasi: *Mani bir surati zebo ko‘ringach beqaror etdi...* A(208^b) tayanch manba. B(259^b) hamda D(266^b) tayanch yordamchi manbalarda esa “etti” shaklida uchraydi.

-shoir she’rlarida “-ni” tushim kelishigi hamda “-ning” qaratqich kelishigi faol qo‘llanilgan. Biroq she’rlarni ko‘chirgan kotib “-ning” qaratqich kelishigi o‘rnida “-ni”ni noo‘rin qo‘llagan o‘rinlar ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, 350-g‘azalning to‘qqizinchi misrasi: *Damo-dam muddaiyni so‘zi birla jahli qatlimg‘a...* A(186^{a/b}), B(250^{a/b}). 1152(583^b) raqamli qo‘lyozma majmuada esa “-ning” qaratqich kelishigi berilgan. D tayanch yordamchi manbada bu g‘azal yo‘q.

357-g‘azalning o‘n uchinchi misrasi: *Xiromon qomatingg‘a tushsa Mutribni ko‘zi, ey sho‘x...* A(189^a), B(250^b). 1152(656^a) raqamli qo‘lyozma majmuada “-ning” saqlangan. D tayanch yordamchi manbada bu g‘azal yo‘q.

“Mudaiyni”, “Mutribni” kabilardagi “-ni” tushim kelishigiga nisbatan “-ning” qaratqich kelishigi moslashuvli birikma hisoblanib, bu hol mazmunni yanada to‘liq tushinish imkonini beradi.

L.Xalilovning quyidagi fikrlari ushbu mulohazalarimizning dalilidir: “*Gapda o‘rin va jo‘nalish kelishigidagi so‘zlarning*

grammatik xususiyatlari boshqa bo‘lganligi tufayli bu kelishiklarning biri o‘rnida ikkinchisini qo‘llash xatodir...”

7. Arab, fors, turkiy tillarga oid so‘zlarni eski o‘zbek yozuvi imlo qoidalari asosida yozish tamoyili.

Mutrib she’rlari matnida arab, fors, turkiy tillarga oid so‘zlar eski o‘zbek yozuvi imlo qoidalariga to‘liq amal qilinmagan. Bular asosan “Gof” harfini o‘rnida “Kof”, “Zoyi” (zoie’) so‘zidagi “zod” harfi o‘rnida “zo”, “Ko‘nglum” so‘zidagi “vov” harfining boshqa o‘rinda “i” bo‘lib ko‘chirilishi va hokazolarda ko‘zga tashlanadi. So‘zlarning bir xilda ko‘chirilmasligi shoir til xususiyatining yo‘qolishiga sabab bo‘lgan. Bu kabi farqlarni ilmiy-tanqidiy matnda aks ettirish shart emas. Bu haqda matnshunos P.Shamsiev: “*Kotibning ochiq ko‘rinib turgan xatolarini ham bet ostida qayd eta berishing keragi yo‘q...*” degan mulohazasi o‘rinlidir. Shuning uchun shoir she’rlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda arab, fors, turkiy tillarga oid so‘zlarni eski o‘zbek yozuvi imlo qoidalariga amal qilib, so‘zlarning yozilishi, so‘zlarda aks etgan unlilar bir xillagini bir tizimda saqlash lozim bo‘ladi.

Tadqiqotda Mutrib she’rlari matnidagi arab, fors, turkiy tillarga oid so‘zlarning eski o‘zbek yozuvi imlo qoidalariga amal qilinmagan o‘rnlarga maxsus e’tibor qaratildi. Mulohazalarimiz asosi sifatida ضایع (a.) (zoyi’, zoie’) so‘zidagi “ض” (zod) harfi A tayanch manbada “ظ” (zo) bilan ko‘chirilgan. Masalan, 113-g‘azalning o‘n uchinchi misrasi:

و ه که ظایع قیلما غمز نک او ز کاغه

(*Vahki, zoyi’ qilma g‘amzang o‘qlarini o‘zgag‘a...*). A(123^a-bet).

Bu so‘z B(250^a) hamda D(222^a) tayanch yordamchi manbalarga to‘g‘ri ko‘chirilgan.

- شکوفته (f.) (shukufta) so‘zi شکفته tarzida (vov) harfi berilmasdan ko‘chirilgan. Shu bilan birga ushbu misradagi غنچه (g‘uncha) so‘zidagi izofa ham tushib qolgan. Masalan, 1-qasidaning to‘rtinchi misrasi:

آچیب لب غنچه شکفته لار کیم لاله فاش ایلاپ

(*Ochib lab g‘uncha_ shukuftalarkim lola fosh aylab...*). A(135^b).

Bu qasida hazaji musammani solim (V---/V---/V---/V---)
vaznida yozilgan.

8. She’r matnlarida yuzaga kelgan tafovutlarni bartaraf etishda ishora belgilardan foydalanish tamoyili.

Mutrib she’rlari matnida mingdan ortiq matniy farqlar uchraydi. Bu matniy farqlar, asosan, bayt, so‘z, birikma va qo‘sishchalarining tushib qolishi, noto‘g‘ri ko‘chirilishida ko‘rinadi. Bularni, ya’ni so‘z va birikmalarning mazmunan bir-biriga yaqin variantlari tanlanganda shoir uslubi, mantiqiy izchillik hamda vazn eng asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Rus matnshunosi D.S.Lixachevning quyidagi fikrlari buni tasdiqlaydi: “*Yodgorliklar teksti ularning faqat tashqi belgilariga qarab emas, balki mazmunining o‘zgarishiga va g‘oyaviy yo‘nalishiga qarab ham o‘rganishi lozim*”.

Quyida shoir she’rlari matnidagi tafovutlarni ishora belgilari asosida berishni lozim topdik. Bu ishora belgilar shoir asarlarining ilmiy-taqidiy matnini tuzishda muhim ahamiyatga ega.

Bular:

-*tushib qolgan baytlar uchun satr avvaliga ikki yulduz “**”qo‘yish lozim.* Tiklangan manba oldidan “T:” shakli ko‘rsatiladi. Ilmiy-taqidiy matn yaratishda qo‘yiladigan bu ishora belgisi farq ko‘rsatilgan matn ostida qayd qilingani maqsadga muvofiqdir. Masalan,

1152 (439^b, 440^a) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo‘lyozma majmuada “*Vahki, hajridin tuganmas nolayi zorim maning*” misrasi bilan boshlanuvchi 11 baytli g‘azal ko‘chirilgan. Bu g‘azal A(141^{a/b}) tayanch, B(230^b, 232^a) tayanch yordamchi manbalarga 7 bayti ko‘chirilib, qolgan 4 bayt tushib qolgan. D tayanch yordamchi manbada bu g‘azal uchramaydi. Tushib qolgan baytlar quyidagicha:

يا رب ايتکایمو مشامیم نى معطر بير کيچه
كىشنى وصلى بىلە زلف نكۇنسارىم منىنىڭ

*Yo Rab, etgaymu, mashomimni mu’attar bir kecha**,
Gulshani vasli bila zulfi nigunsorim maning.*

حضرتى وصلى دا جانىم چقۇسى دورۇھ نىتاى
ايلامس لطف كرم بير لحظە دلدارىم منىنىڭ
*Hasrati vaslida jonim chiqg‘usidur vah, netay,
Aylamas lutfu karam bir lahza dildorim maning.*

نالیشيم نى عشق ارا عىب ايلامانك لار وە نىكم
کوبىدە برباد ايرور ناموس ايلە عارىم منىك
*Nolishimni ishq aro ayb aylamanglar vah, nekim,
Kuyida barbod erur nomus ila orim maning.*

ايلابان لطفُ عنایت مطربى سركشته نى
محرم ايتکى وصلى غە يارى وفادارىم منىك
*Aylabon lutfu inoyat Mutribi sargashtani,
Mahram etgay vaslig 'a yori vafodorim maning.*

177/ 8, 9, 10, 11. A (141^{a/6}-b), 160 / 8, 9, 10, 11. B (230⁶, 232^a-

b.) da tushgan.

***D. T: 1152 (439⁶, 440^a-b.).

-misra tushib qolgan o 'rinlarni bir yulduz “” bilan belgilash.*

“Sabr ayladim hijroninga, ey mehribon, ey mehribon” misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning A(173^a) tayanch manbaga ikkinchi hamda uchinchi misrasi ko‘chirilmay qolgan. B(243^a) tayanch yordamchi manbaga olti yarim bayt, ya’ni “Qildim duolar joninga, ey mehribon, ey mehribon” misrasi tushirib qoldirilgan. G‘azal 1186(88^b, 89^a) raqamli qo‘lyozma bayozga to‘liq ko‘chirilgan. D tayanch yordamchi manbada bu g‘azal uchramaydi.

صىرايلادىم هجرانىنكا اى مهربان اى مهربان

* قىلدىم دعalarjaninika اى مهربان اى مهربان *

*Sabr ayladim hijroninga, ey mehribon, ey mehribon,
Qildim duolar joninga, ey mehribon, ey mehribon*.*

* فرقىت غمىدىن بىرنفس عالم كوزىمكى تارايرور

يىتمى قولوم دامانىنكا اى مهربان اى مهربان

Furqat g‘amingdin bir nafas olam ko ‘zumga tor erur,*

Yetmay qo ‘lum domoningga, ey mehribon, ey mehribon.

279/1^b A(173^a-b.), 273/1^b B(243^a-b.)da tushgan. ***D. T:
1186(88^b, 89^a-b.).

279/2^a A(173^a-b.)da tushgan. ***D. T: B (243^a-b.), 1186(88^b, 89^a-b.).

- so ‘zlar va qo ‘shimchalarning tushib qolishi “ - ”:

She’rlar tarkibida so‘z va qo‘shimchalarning tushib qolishi ham boshqa farqlardan kam emas. Bu so‘z va qo‘shimchalar ham shoir yashagan davrda ko‘chirilgan qo‘lyozma bayoz va majmualar

matnidan tiklandi. Bunday farqlarning yuzaga kelishida devon matnining muallif nazorati ostida ko‘chirilmaganligi sabab bo‘ladi. Shu bilan birga kotib bilim saviya darajasi ham bunga bog‘liq. Quyida so‘z va qo‘shimchalarning tushib qolgan o‘rnlarni qayd qilganda ilmiy-tanqidiy matn uchun “-” ishora belgisi beriladi. Masalan, B(205^b), D(239^b) tayanch yordamchi manbalarga, 1152(37^a) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo‘lyozma majmuaga “*Mushabbak aylagan jismimni paykoningg ‘a sallamno*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azal ko‘chirilgan. Bu g‘azalning to‘rtinchi misrasidagi “Isyonim” so‘zidagi “-im” egalik qo‘shimchasi A(86^b-87^a) tayanch manbadan tushib qolgan. Bu qo‘shimcha B, D tayanch yordamchi hamda 1152 raqamli manbalar asosida tiklandi:

منى اۆل وصالىنگ محرمى اىلاركا عهد اىلاب
- نى ايركىن جرم عصيانيم پشيمانىنىكىغە سلمنا

*Mani avval visoling mahrami aylarga ahd aylab,
Ne erkan jurmi isyonim pushaymoningg ‘a sallamno.*

نى ايركىن جرم عصيان پشيمانىنىكىغە سلمنا.

T: B (205^b-b.), D (239^b-b.), 1152 (37^a-b.).

B(120^b) tayanch yordamchi manbara ko‘chirilgan “Nedur” radifli 7 baytli g‘azalning birinchi misrasida “ichra” so‘zi uchraydi. Bu so‘z A(119^b) tayanch manba matnidan tushib qolgan. D tayanch yordamchi manbara bu g‘azal yo‘q.

جانا منى عشق اىچره زارآيلاب سنكا مطلب نيدور
لعلينك شرابىغه خمارآيلاب سنكا مطلب نيدور

*Jono, mani ishq **ichra** zor oylab sango matlab nedur,
La ’ling sharobig ‘a xumor oylab sango matlab nedur.*

جانا منى عشق زارآيلاب سنكا مطلب نيدور.

***D. T: B (120^b-b.).

-bayt tarkibidagi so‘z va qo‘shimchalarning o‘zgarishi,
qo‘shilishi “+”:

Mutrib she’rlari matnida bir so‘zning ikkinchi so‘z tarkibiga qo‘shilib ketishi, so‘zlarning ortiqcha berilishi, noto‘g‘ri ko‘chirilishi kabilar ham ko‘zga tashlanadi. Bu xatolar she’r qolipida saktalikni yuzaga keltiradi. A tayanch manbadagi bu holat B, D tayanch yordamchi manbalardagiga nisbatan kam bo‘lsa-da, ilmiy-tanqidiy

matn uchun so‘zlarning eng maqbul variantlarini tanlab olish muhim ahamiyatga ega.

Bayt tarkibidagi so‘z va qo‘sishimchalarining o‘zgargan hamda qo‘shilgan o‘rinlarida “+” ishora belgisi qo‘yilib, manbalardagi farqlar aks etgan bayt misralarini berish *a* va *b* shaklida hamda ko‘chirilgan g‘azalning tartib raqami matn ostida ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Masalan: “Fido” radifli 7 baytli g‘azalning beshinchi misrasidagi (qatlim) so‘zi A(87^a) tayanch manbaga اقليم (iqlim) tarzida ko‘chirilgan. B(205^b), D(239^b) tayanch yordamchi manbalarga hamda 1152(45^a) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo‘lyozma majmuaga “qatlim” bo‘lib to‘g‘ri ko‘chirilgan:

+ هرزمان ناوک اورار قتلیم اوچون جادوکوزینک

قیل ترحم ناوکینک غا قطره قانیم فدا

“*Har zamon novak urar qatlim uchun jodu ko‘zung*”,

Qil tarahhum novakingg‘a qatrayi qonim fido.

هرzman ناوک اورار اقليم اوچون جادوکوزینک.

T: B (205^b-b), D (239^b-b.), 1152 (45^a-b).

“Iqlim” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, mintaqa, qit’a degan ma’nolarga ega. “Qatlim” so‘zi o‘ldirmak, so‘ymoq ma’nolarini ifodalaydi.

Ayni baytdagi “qatlim” so‘zi misra mohiyatiga mos tushadi. Keyingi misrada (*Qil tarahhum novakingg‘a qatrayi qonim fido*) mohiyat oydinlashadi: *yorning jodu ko‘zi o‘q otishi natijasida oshiqning “qatl”ga ham rozi ekanligi, novakiga qatra qoni fido bo‘lishi tasviri keltiriladi*.

Mukarrar san’atini ifodalab kelgan “*Gulshani vaslingg‘a tun-kun bo‘lmisham, ey gul’uzor, Intizoru, intizoru, intizoru, intizor*” misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning to‘qqizinchi misrasida quyidagicha farqlar kuzatildi. A(125^a), B(223^a) tayanch, tayanch yordamchi manbada:

No ‘sh etarman zahri g‘amni ro ‘zi shab,

Beshumoru, beshumoru, beshumoru, beshumor.

D(250^b)tayanch yordamchi manbada:

No ‘sh etarman bu qil tarahhum tun-kun hijron zahrini,

Beshumoru, beshumoru, beshumoru, beshumor.

Ushbu bayt har manbaga ham xato ko‘chirilgan. Bizningcha, baytdagi bu xatolikni kotibning e’tiborsizligi bilan izohlash mumkin. Zero, shoir asar matni va uning vazniga jiddiy munosabatda bo‘lishi ayon.

Bu g‘azal misrasining nisbatan to‘g‘ri varianti 1152(243^{a/b}) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo‘lyozma majmuaga ko‘chirilgan:

+ نوش ایترمن قیل ترҳم تونکون هجران زهرنى

بیشمار بیشمار بیشمار بیشمار

No ‘sh etarman, qil tarahhum, tun-ku(n) hijron zahrini+,

Beshumoru, beshumoru, beshumoru, beshumor.

G‘azal ramali musammani mahzuf(maqsur): -V--/-V--/-V--/-V-)vaznida yozilgan.

نوش ایترمن زهرغم نى روزشب. 202/5^a A (125^a-6.), 136/5^a B (223^a-6.).

نوش ایترمن бо قیل ترҳм تونکون هجران زهرنى. 95/5^a D (250^b-6.).

T: 1152 (243^{a/b}-6).

1152(94^a-bet) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo‘lyozma majmuaga Mutribning “Aylab” radifli g‘azali ko‘chirilgan. Bu g‘azalning uchinchi misrasidagi “mayi la’li” birikmasi A(92^a-bet) tayanch manbada “mani la’li” kabi beriladi. B, D tayanch yordamchi manbalarda bu g‘azal yo‘q. Ushbu bayt quyidagicha:

+ مىيى لعلى بىلە تاتانكىغچە مغۇررايتىپ اولىشۇخ

بارى غىلارنى جان كونكىلۇمە بالكل حرام ايلاب

Mayi la’li bila to tongg‘acha mag‘rur etib, ul sho ‘x,

Bori g‘amlarni jon ko‘ngluma bilkull harom aylab.

منى لعلى بىلە تاتانكىغچە مغۇررايتىپ اولىشۇخ. 35/2^a A (92^a-6.).

***B, D.

T: 1152 (94^a-6.).

(Ul sho‘x labining qizilligi bilan to tongg‘acha mag‘rurlanib, barcha g‘amlarni jon ko‘nglumga butunlay harom (man’) ayladi).

Shoir “mayi la’li” birikmasi orqali ikki xil ma’noni qo‘llagan. Birinchidan, labning qizilligi, ikkinchidan, mast qiluvchi lab ma’nosida. Bu orqali shoir iyhom san’atidan mohirona foydalangan.

Agar “mani la’li” birikmasi orqali g‘azal misralarini tahlilga tortsak, ma’no biroz o‘zgaradi. Bu misrada shoir “Ul sho‘x, mani la’li labi bilan to tonggacha mag‘rur etib, barcha g‘amlarni jonu

ko‘nglumga butunlay harom (man’) ayladi” – mazmuni ifodalashi anglashiladi. Har ikki variant ham bayt mazmuniga daxl qilmaydi. Biroq mumtoz adabiyotimizda “mayi la’li” birikmasi an’anaviy birikma sifatida ko‘p qo‘llaniladi.

Ramali musammani mahzuf (maqsur) vaznida yozilgan “*Jonfizo la ’lidin hosil bo ’ldi kecha komimiz*” misralari bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning beshinchi misrasi A(132^a) tayanch, B(226^b) tayanch yordamchi manbalarga quyidagicha ko‘chirilgan:

*Soqiyo keltursa solib jomi marg ‘ub emdikim,
Sham ’i husnidin munavvar bo ’ldi tiyra shomimiz.*

Ushbu misra D(262^a) tayanch yordamchi manba hamda 1152(331^a) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo‘lyozma majmuaga quyidagicha to‘g‘ri ko‘chirilgan:

+ ساقیا کیلتورلబالب جام مرغوب ايمدی کیم
شمع حسنیدین منور بولدى تیره شامیمیز

*Soqiyo, keltur labolab jomi marg ‘ub emdikim⁺,
Sham ’i husnidin munavvar bo ’ldi tiyra shomimiz.*

ساقیا کیلتورسا سالیب جام . 239/6^a A (132^a-6.), 153/6^a B (226^b-6.).
مرغوب ايمدی کیم

T: D (262^a-6.), 1152 (331^a-6.).

“*Soqiyo, keltur labolab jomi marg ‘ub emdikim*” misrasidagi “labolab” so‘zi oshiq holatini to‘g‘ri anglash imkonini yaratadi. Oshiq soqiyan dan ko‘ngilni may “ishq” bilan limmo-lim to‘ldirishi uchun jomni to‘la taqdim qilishini xohlaydi. Ko‘rib turganimizdek, ushbu bayt mazmuni birinchi keltirilgan bayt mazmunidan poetik jihatidan ustun hamda muallif aytmoqchi bo‘lgan fikr saqlangan.

A(155^a) tayanch, B(236^b) tayanch yordamchi manbalarga ko‘chirilgan “*Bihamdillahki, bu dam baxtdin komim ravo topdim*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning to‘rtinchi misrasi “*G‘alat erkan bu so‘zim, san nigorim bovafo topdim*” kabi ko‘chirilgan.

Ushbu bayt 1191(152^{a/b}) raqamli qo‘lyozma bayozga to‘g‘ri ko‘chirilgan:

بوکیم دیرلار وفا و مهر يوق حسن اهلى كونكلى دا
غلط ايركن بوسوزکیم من نکاریم دین وفا تاپد يم
*Bukim derlar, vafovu mehri yo ‘q, husn ahli ko ‘nglida,
G‘alat erkan bu so ‘zkm, man nigorimdin vafo topdim⁺.*

غلط اиркан بосозим سن نکارим . 236/ 2⁶ A(155^a-6.), 229/6⁶ B(236⁶-6.). با وفا تاپد يم

***D.

T: 1191 (152^{a/6}-6.).

Kotib birinchi bayt misrasini xato ko‘chirishi g‘azal mazmunida g‘alizlikni yuzaga keltirgan. Ikkinci berilgan baytda g‘azal mazmuni to‘liq saqlangan. Baytdagi ma’no: *oshiqning bu dunyoda kimgadir vafo borligini isbotlash tasviri va buni asoslashda esa o‘z yori orqali iqror bo‘lganligi mazmuni anglashiladi*.

“Bugun, ey mehribonim, yuz ochib kel, intizingman” misrai bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azalning o‘n birinchi misrasi A(186^a) tayanch manbaga “Ochib xurshid yonglig‘ yuzini kulbam sari, ey sho‘x” bo‘lib ko‘chirilgan. Bu misradagi “yuzini” so‘zi B(250^a) tayanch yordamchi manba hamda 1152 (592^{a/b}) raqamli qo‘lyozma majmuaga quyidagicha to‘g‘ri ko‘chirilgan:

+ آچب خورшид янклігү یуз منى کлбм сарى اишوخ

خرام ایتسنک ایاقینکغه تى جانى نثارىنک من

*Ochib xurshid yonglig‘ yuz, mani kulbam sari, ey sho‘x⁺,
Xirom etsang ayoqingg‘a tani joni nisoringman.*

آچب خورшид янклігү یوزинى کлбм сарى اишوخ (.)

***D.

T: B(250^a-6.), 1152(592^{a/6}-6.).

“Gulgun kiyibmish ul pariro‘ qadi dilju ustina” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azalning ikkinchi misrasidagi “qahr” so‘zi A(197^a-bet) tayanch, B(254^a) tayanch yordamchi manbalarga “qad” bo‘lib ko‘chirilgan. Bu so‘z 1152(693^b, 694^a) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo‘lyozma majmuada hamda 1177(4^{a/b}) raqamli qo‘lyozma bayozda quyidagicha uchraydi:

+ کلکون کىب مىش اول پرиро قد دلジョ اوستىنە

قەرايىلە چىن سالمىش بوکون اول چىن ابرۇ اوستىنە

*Gulgun kiyibmish, ul pariro‘, qadi dilju ustina,
Qahr ila chin solmish bugun ul chin abru ustina⁺.*

قدايىلە چىن سالمىش بوکون اول . 375/1⁶ A(197^a-6.), 366/1⁶ B(254^a-6.).

چىن ابرۇ اوستىنە

***D.

T: 1177(4^{a/6}-6.), 1152(693⁶, 694^a-6.).

G‘azal *rajazi musammani solim* vaznida yozilgan. Agar ushbu misrada “qad” so‘zi bo‘lsa vazn buziladi va ma’no o‘zgaradi. “Qahr” so‘zi esa har ikki tomonlama mos tushadi. Shoir bu g‘azalida kitobat san’atidan mohirona foydalangan.

Ko‘ngil oluvchi ul pari(paykar) ustiga gulrang, pushtirang (ko‘ylak) kiygan mish. Achchig‘lanib, qoshlarini (chin abru) chimirib (ustiga kiygan kiyimga qarab), nazar (chin) solganligi anglashiladi.

“Kun emas ro ‘shnolig‘ ichra charx uza ruxsoricha” misrasi bilan boshlanuvchi (8 bayt) g‘azalning maqta’ qismidagi oxirgi misra A(204^a) tayanch manbara “Vahki, ta’sir ayla, ta’sir aylamas zulfining bir toricha...” bo‘lib ko‘chirilgan. B(252^a) tayanch yordamchi manbara hamda 1152(777^b-bet) raqamli qo‘lyozma majmuaga quyidagicha to‘g‘ri berilgan:

جَنْت اِيچرا مطربا مينك حور. غلمان صحبتى
ووه كه تائيرايلا ماس زلفى نينك بيرتار يچه +

*Jannat ichra Mutribo, ming huri g‘ilmon suhbatı,
Vahki, ta’sir aylamasdur, zulfining bir toricha.*

ووه كه تاءثيرايلا تاءثيرايلا ماس زلفى نينك بيرتار يچه.

***D.

T: B(252^a-б.), 1152(777^b-б.).

A(213^a) tanyach, B(262^a) tayanch yordamchi manbalarga ko‘chirilgan “Vahki, dildor o‘lmasa, bazm ichra sog‘arni netay” misrasi bilan boshlanuvchi 9 baytli g‘azalning o‘n beshinchisidagi quyidagicha saktalik yuzaga kelgan:

*Sayri gulshan etmasam ul sarvi gulandomsiz,
Bog‘ aro gulni ne aylay, sunbuli tarni netay.*

Ushbu bayt 1152 (806^b) raqamli “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” qo‘lyozma majmuaga hamda 5894/III (2^a) raqamli qo‘lyozma bayozga quyidagicha to‘g‘ri ko‘chirilgan:

سیر کلشن ايتسم اول سروی کل اندام او لماسا +

باغ ارا کل نى نه ايلاي سنبل ترنى نيتاي

*Sayri gulshan etsam, ul sarvi gulandom o‘lmasa,
Bog‘ aro gulni ne aylay, sunbuli tarni netay.*

سир کلشن ايتма سم اول سروی. كل اندام سиз

***D.

T: 5894/III (2^a-б.), 1152 (806^b-б.).

Birinchi bayt mazmuni: *gulshan sayrini ixtiyor etmasam-u lekin ul gulomdomsiz*, (*usiz*) *bog‘ ichidagi gulni, sunbulni nima qilaman*, mazmuni anglashilgan.

Ikkinci baytda: *gulshan sayrini ixtiyor etsamu, lekin ul gulomdom bo‘lmasa*, (*usiz*) *bog‘ ichidagi gulni, sunbulni nima qilaman*, deyapti.

Ko‘rinadiki, ikkinchi baytda g‘azal mazmuni saqlangan. Quyida ham shunga o‘xshash bir misolni keltiramiz.

“*Gulshani vaslingni dilbar, jannat-ul ma’vo bilay*” misrasi bilan boshlanuvchi 5 baythi g‘azalning ikkinchi misrasi A(215^a) tayanch manbara “*Sham‘i husningdin tajalli yuzini paydo qilay*” misrasidagi “yuzini paydo qilay” birikmasi B(263^b) tayanch yordamchi manba, 1152(871^a) raqamli qo‘lyozma majmua, 1177(150^b) raqamli qo‘lyozma bayozlarga “*nurini paydo qilay*” kabi to‘g‘ri ko‘chirilgan. Bu variant g‘azal mazmunini poetik jihatdan boyitgan:

كىشىن وصلينك نى دلبر جىت الما وا بىلا ئى

+ شمع حسنينك دين تجكى نورينى پىدا قىلاي

Gulshani vaslingni dilbar, jannat-ul ma’vo bilay,

Sham‘i husningdin tajalli nurini paydo qilay +.

شمع حسنينك دين تجلى يوز ينى پىدا قىلاي.

***D.

T: B(263⁶-6.), 1177(150⁶-6.), 1152(871^a-6.).

Ushbu g‘azalning uchinchi misrasida “ko‘zgudek, chehrangni” birikmasi uchraydi. Bu birikma A tayanch, B tayanch yordamchi manbalarga “ko‘zgudek mehringni” bo‘lib o‘zgargan. To‘g‘ri variant esa quyidagicha:

+ كوزكوديك چەرنك نى پنهان ايتمه مندين بير نفظ

لحظه لحظه كوزلاريم نينك تيره سين روشن قىلاي

Ko‘zgudek, chehrangni pinhon etma mandin bir nafas +,

Lahza-lahza ko‘zlarimning tiyrasin ravshan qilay.

كوزكوديك مەرينك نى پنهان.

ايتمه مندين بير نفظ

***D.

T: 1177(150⁶-6.), 1152(871^a-6.).

A tayanch manbada bitta g‘azal negadir, kotib tomonidan oxirigacha ko‘chirilmagan. Ushbu tushib qolgan g‘azal quyidagicha:

Tun-kun, ey pari, mag‘ruri hijroning emasmanmu?

Balolar dashtida choki giriboning emasmanmu?

*Qilursan lablaringdin o‘zgalarni ro‘zi shab masrur,
Bayon etib mustahiq¹⁴ xayr-ehsoning emasmanmu?*

*Mani ushshoq xaylidin hisob etmassan, ey dilbar,
Firoqing shiddatidin chashmi giryoning emasmanmu?*

*Jununim xotiringda har nafas jo tutmas, ey dilbar,
Damodam shavq o‘tig‘a qalbi so‘zoning emasmanmu?*

*Ishim ko‘yi g‘amingdur, ro‘zi shab sargashtalik vahkim,
Yetushmay gulshani vaslingg‘a hayroning emasmanmu?*

Chiqib¹⁵.....

Bu g‘azallar B, D tayanch yordamchi manbalarda ham Mutrib lirik asarlari uchraydigan boshqa manbalarda ham uchramaydi. Buni shoir asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda e’tiborga olish zarur.

Savollar:

1. “Tamoyil” deganda nimani tushunasiz?
2. “Umumiylit”, “Alohidalik” hamda “Xususiy tamoyil”lari bir-biridan qanday farq qiladi?
3. Mutrib she’rlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratishda tamoyillarning o‘rni?

Mustaqil ta’lim uchun topshiriqlar:

1. “Adabiy asarlarning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish”ga doir tadqiqotlar bilan tanishish.
2. Xorij olimlarining matnshunoslikka oid ilmiy asarlarini o‘qish.

O‘qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Лихачёв Д.С. Текстология. Краткий очерк. – М. –Л: Наука, 1964. – С. 400.

¹⁴Munosib, loyiq, haqli.

¹⁵Ushbu g‘azalning sahifasi 2679/II raqamli devon qo‘lyozmasida to‘liq saqlanmagan. 193⁶-бет.

2. Шамсиев П. Научно-критический текст “Хамсы” Алишера Навои и принципы его подготовки. – Ташкент, 1970. – Б. 300.
3. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Илмий-танқидий матн/Тайёрловчи С.Ғаниева. –Ташкент: ЎзФА, 1961. – 306 б;
4. Раширова М. Алишер Навоий “Назмул жавоҳир” асарининг матний тадқики. Филол. фан. номз. дисс. ... – Ташкент, 1991. 145-бет.
5. Ғанихўжаев Ф. Огаҳийнинг “Таъвиз ул-ошиқин” девони ва унинг илмий танқидий матни. Филол. фан. д-ри... дисс. – Ташкент, 1998. –Б 77.
6. Алишер Навоий. Муҳокату-л-лугатайн. Илмий-танқидий матн (Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Ю. Турсунов). –Ташкент, Фан. 2021. –Б.87.
7. Зоҳидов Р. “Саботул ожизин” асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танқидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари. Филол. фан. д-ри. дисс... – Ташкент, 2018. – Б. 255.
8. Исҳоқов Ф. Гулҳаний “Зарбулмасал”ининг илмий-танқидий матни. Филол. фан. номз. дисс. ... – Ташкент, 1997. – Б. 48.
9. Султонов. И. Навоийнинг “Мезонул-авзони” ва унинг критик тексти. Филол. фан. номз. дисс. ... – Ташкент, 1947. – Б. 144.
10. Хошимова Д. М. “Бобурнома” асарининг танқидий матнини яратиш муаммолари (ўзбек, инглиз, ҳамда “Бобурнома” танқидий матнининг япон нашрлари мисолида). Филол. фан. номз. дисс... автореф. – Ташкент, 2006. –Б. 121.
11. Ҳамирова. М. Алишер Навоий “Садди Искандарий” достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқики. Филол. фан. д-ри. дисс... – Ташкент, 1994. – Б. 173.
12. Шамсиев. П. Алишер Навоий “Сабъаи Сайёр” достонининг илмий-критик тексти ва уни тузиш принциплари ҳақида. Филол. фан. номз. дисс. ... – Ташкент, 1952. –Б. 130.

XULOSA

1. Qo‘lyozma manbalardagi Mutrib hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar tahlili shoir biografiyasi yuzasidan bildirilib kelgan munozaralar yechimini topish imkonini beradi. Holbuki, ilmiy adabiyotlarda ijodkorning tavallud sanasi 1852, 1860, 1865, vafoti sanasi esa 1922, 1923, 1925 tarzida turlicha ko‘rsatilib kelgan. “Tazkirai Qayyumiylar”, Laffasiy va Bobojon Tarroh-Xodim tazkiralari dagi Mutrib 1923-yilda vafot etgani, 70 yil umr ko‘rgani haqidagi ma’lumotlar uning tavallud sanasi 1853-yil ekani haqidagi to‘xtamga olib keladi.

2. Xivadagi Muhammad Aminxon madrasasida tahsil olgan Mutrib shariat ilmlarini egallash barobarida maqomchi bastakor sifatida ham shuhrat qozongan. Cholg‘uchi, sozanda ma’nolarini beruvchi Mutrib taxallusini tanlashi sababi shunda. Iste’dodi bois Feruz saroyiga ishga olingan zullisonayn shoir forsiy va turkiy tillarda samarali ijod qilgan. Musiqa, kitobat va tabobat bilan shug‘ullangan. O‘rta bo‘yli, siyrak ketmon soqolli, kiyinishga e’tiborsiz, lekin ilmu tafakkuri va she’rlari bilan hammaga manzur kishi bo‘lgan. Xonaxarob taxallusi mutaxassislar tomonidan ikki xil – hajvga rag‘bati kuchli bo‘lgani, xaroba kulbada yashagani kabi zohiriylarga ko‘ra izohlangan. Aslida, bu o‘zlarini xarobotiylar deb atagan tasavvuf ahli qarashlari bilan ham bog‘liq bo‘lishi haqiqatga yaqin.

3. Mutrib Xonaxarob devonining uch qo‘lyozma nusxasi ma’lum. Shoir devonining O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Hamid Sulaymonov fondida saqlanayotgan 2679/II, asosiy fondida saqlanayotgan 903/IV hamda 906/VII raqamli qo‘lyozmalarining ilmiy-monografik tavsifi 2679/II raqamli qo‘lyozmaning nisbatan mukammal ekanini ko‘rsatadi. Shoir lirik merosiga doir 706 ta g‘azal, (shundan 250 tasi fors, 456 tasi esa turkiy tilda), 16 ta muxammass (shundan 5 tasi fors, 11 tasi turkiy tilda), 5 ta musaddasi va 2 ta qasidasi – jami 729 ta she’rni o‘z ichiga olgani ham ushbu fikrni tasdiqlaydi.

4. Shoir devonining O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondlarida saqlanayotgan mavjud 3 qo‘lyozma nusxasi, mazkur institut hamda Alisher Navoiy nomidagi davlat Adabiyot muzeyi, Xiva Ichonqal‘a muzeyi fondlaridagi 15 dan ortiq bayoz va majmualar ilmiy tafsif

qilinib, devon qo‘lyozmalari bilan qiyosiy-matniy tahlil etilganda, shoirning shu paytga qadar ilm ahliga ma’lum bo‘lmagan 992 misra she’ri aniqlandi. Yangi aniqlangan she’rlar shoir asarlarining janr xususiyatlari, mavzu ko‘lami, badiiyati haqidagi mavjud tasavvurlarni boyitishi, Mutrib adabiy merosi xususidagi ma’lumotlarni yangilashi jihatidan ahamiyatlidir.

5. Shoir asarlari ilmiy-tanqidiy matni uchun tayanch manbani aniqlashda: 1) matnning muallif variantiga yaqinlik darajasi; 2) she’rlar matnining nuqsonlardan xoliligi; 3) qo‘lyozmaning kitobat holati, paleografik belgilari singari mezonlar asos vazifasini bajardi. Garchi shoir devonining 903/IV raqamli qo‘lyozmasi bir yil avval Hijriy 1325, milodiy 1907-yili ko‘chirilgan bo‘lsa ham, 2679/II raqamli qo‘lyozmasi (kitobat sanasi: hijriy 1326, milodiy 1908-yili) xat uslubi, matn mukammalligi, janrlar tarkibi hamda qo‘lyozmada uchraydigan farqlar inobatga olinsa, 903/IV, 906/VII raqamli nusxalariga nisbatan mukammal ekani ayon bo‘ldi. Shunga ko‘ra, ushbu qo‘lyozma devon tuzish tartibiga qat’iy amal qilingani, janrlar tarkibi va tartibi, matnning nisbatan to‘liq va ishonchliligi, shoir she’rlari ko‘p kiritilganiga ko‘ra tayanch manba sifatida tanlandi. Tahlillar natijasida 2679/II raqamli qo‘lyozma devon tanlanib, shartli ravishda “A” bilan, 903/IV, 906/VII raqamli qo‘lyozmalar esa *tayanch yordamchi manbalar* sifatida olinib, “B”, “D” harflari bilan belgilandi.

6. Mutrib asarlari matn tarixini o‘rganish ularda matniy tafovutlar ko‘p ekanini ko‘rsatadi. Shoir asarlaridagi matniy tafovutlarni quyidagicha tasnif etish mumkin:: *a) bir matn doirasida so‘z va misralarning o‘zgarishi;* *b) bandning o‘zaro farq qilishi.*

7. Shoir asarlarini matn tahriri nuqtai nazaridan quyidagi tasnif asosida o‘rganish mumkin: 1) muallif tahriri; 2) kotib tahriri. O‘z navbatida, muallif tahririning uch xil ko‘rinishi kuzatiladi: a) yaxlit she’r baytlarining qisqarishi; b) bayt tarkibidagi so‘zlarning o‘zgarishi; v) she’r matnining qayta ishlanishi. Bu hol shoirning o‘z asarlari matnini takomillashtirish ustida jiddiy ish olib borganidan dalolat beradi. Kotib tahriri esa aksar hollarda matnning muallif variantiga xilof ekani jihatidan maqsadga muvofiq bo‘lmaganani aniqlandi.

8. Mutrib she'riy asarlarining asliyat va nashr nusxalarining qiyosiy-matniy tadqiqi shoir asarlari nashrga tayyorlanishi jarayonida o'zgarishlarga uchraganini ko'rsatadi. Bu o'zgarishlar: 1) bayt va misralarning tushib qolishi; 2) so'zlarning noto'g'ri o'qilishi; 3) izofalarning noo'rin qo'llanilishi hamda tushirib qoldirilishi; 4) qo'shma so'zlarning to'g'ri yozilmasligi; 5) so'zlarning leksik jihatdan farq qilishi tarzidagi tasnif asosida o'rganildi.

9. Mutrib asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish *umumiylilik*, *alohidalik* va *xususiylik* tamoyillari asosida olib borilishi mumkinligiga doir to'xtamga kelindi. *Umumiylilik tamoyili* ilmiy-tanqidiy matn tayyorlashda erishilgan ilmiy natijalardan, yondashuv usullaridan foydalanishni ko'zda tutadi. Bu tamoyil avval xususiy ko'rinishga ega bo'lib, keyinchalik hamma uchun umumiyl bo'lган tamoyilga aylanadi. Bunday tamoyillar hamma qo'lyozma asarlar ilmiy-tanqidiy matnini yaratish uchun zamin bo'la oladi. *Alohalik tamoyili* unikal hodisa sanalib, muayyan asarning yillar va asrlar davomida qayta-qayta ko'chirilishi natijasida muallif variantidan katta tafovutlar asosida yiroqlashuv jarayonini o'rganish va muallif variantiga yaqin matnini tiklash uchun barcha manbalarning qiyosiy-matniy tadqiqi amalga oshirilishini taqozo etadi. *Xususiylik tamoyili* ma'lum bir asarning muallif davrida ko'chirilgan turli qo'lyozmalari asosida har bir o'rganilayotgan asar matnidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Ushbu tamoyillardan foydalanish Mutrib Xonaxarob asarlarining bugungi talablar darajasidagi ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARDAN RO'YXATI

I. Siyosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2017. – 485 б.

2. Мирзиёев Ш.М. “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига табрик. // 2018 йил 7 август.

3. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // Халқ сўзи, 2017 йил 4 август.

4. Мирзиёев Ш.М. Одамлар яхши яшashi учун зарур шароитлар яратиш – барча раҳбарларнинг асосий вазифасидир. // Халқ сўзи, 2017 йил 28 февраль.

II. Manbalar

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Илмий-танқидий матн// Тайёрловчи С.Ғаниева. –Тошкент: Ўз ФА нашриёти, 1961. – Б. 51.

2. Алишер Навоий. Муҳокату-л-луғатайн. Илмий-танқидий матн (Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Юсуф Турсунов). – Тошкент: Ўз ФА нашриёти. 2021. – Б. 25.

3. Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. “Хазойинул-маоний” текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари. Илмий-танқидий тест асосида нашрга тайёрловчи Ҳ.Сулаймон. –Тошкент: ЎзР ФА нашриёти, 1959.

4. Баёний, Муҳаммад Юсуф. Шажараи хоразмшохий. ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди, инв. № 9596.

5.Ғаниева С. Давр адабий ҳаёти кўзгуси (китобда Алишер Навоий илмий-танқидий матн) – Тошкент: Фан, 1961. – Б. 26.

6. Носиров А. Хоразмга оид материаллар. Қўлёзма. ЎзР ФА ШИ. – Тошкент, 1954.

7. Оғаҳий, Асарлар. VI жилдлик. II ж. –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б. 186 – 187.

8. Огаҳий, Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли. Шоҳиду-л-иқбол (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Н.Шодмонов). –Тошкент: Муҳаррир, 2009. –Б. 33.
9. Пирназаров.М. Мутриб Хонахаробий(Рисола-мажмуа). – Тошкент. –Б. 40.
